

**Xamdamov Anvar Norovich
Shodmonova Abera Shodiyevna**

FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH VA UZLUKSIZ TA'LIM PEDAGOGIKASI

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI
TALABALARI UCHUN
DARSLIK**

TOSHKENT – 2024

Mazkur darslik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda pedagogikaning ilmiy asoslari, ta'lim jarayonining mohiyati, ta'lim nazariyasining maqsad va vazifalari, ta'lim jarayonining tamoyillari, metodlari, ta'limni tashkil etish shakllari va baholash mezonlari, tarbiya jarayonining tamoyillari va metodlari, barkamol shaxsni tarbiyalashga doir yo'llar va vositalar, o'qitish ta'lim tizimini boshqarish, shuningdek, ta'lim texnologiyalari va rivojlanishiga oid yondoshuvlar haqida so'z yuritiladi.

Bundan tashqari, har bir mavzuga oid amaliy mashg'ulotlar mavzusi, maqsadi, rejasi, mustaqil ishlarga doir topshiriq va nazorat savollari berilgan.

Taqrizchilar:

Sh.S.Shodmonova – pedagogika fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi TDPU

G.Akramova – pedagogika fanlari doktori, Buxoro Davlat universiteti

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 - dekabrda 537 – sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablarining ilk bo'g'ini, poydevori hisoblanadi. Bu davrda olingan bilim va ko'nikmalar inson hayotiy ko'nikmasining asosiy omilidir. Bu bosqichda o'quvchilar bilimi sayoz bo'lsa, yuqori sinflarda ham fanlarni o'zlashtirishi talab darajasida bo'lmasligi aniq, ya'ni ta'limda poydevorni mustahkam qo'ymay turib, uning pirovard natijasi va sifati to'g'risida gapirishga hojat ham bo'lmasa kerak.

Ta'lim-tarbiya samaradorligi har jihatdan pedagog omili, uning kasb-mahorati, kompetensiyasiga bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limni mazmunan modernizatsiya qilish, ilg'or tajribalar asosida o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik va mediatexnologiyalarni joriy etish, bunda kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tiborni qaratgan holda boshlang'ich ta'limning sifat-samaradorligini tubdan yaxshilash xalq ta'limi tizimi faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olingan.

Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek "Xalqimizda "Ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi" degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan. Bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejiz emas¹."

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak mamlakatimiz ta'lim tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda.

Ta'lim ustuvorligi, ta'lim-mazmuni va tuzilishi o'zgarimoqda, yangi standartlar joriy etilmoqda, ta'lim sifati rivojlanishining yangi, yanada yuqori bosqichiga ko'tarilmoqda.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan Boshlang'ich va uzluksiz ta'lim pedagogikasi darsligi amaldagi o'quv dasturida ilgari surilgan talablarga muvofiq yaratildi. Darslikning maqsadi —

¹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2021y 224-bet.

boshlang'ich va uzluksiz ta'lim pedagogika fanining nazariy metodologik asoslarini ochib berish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ularning chuqur o'zlashtirilishiga erishish, talabalarda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Darslikning tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan mavzular o'z mazmuni va yo'nalishiga ko'ra "Boshlang'ich va uzluksiz ta'lim pedagogikasi va metodologiyasi", "Ta'lim tizimini tashkil etish", "Boshlang'ich ta'limda tarbiya", "Sharq pedagogikasida ta'lim-tarbiya", hamda "O'zbekiston ta'limi va horij tajribasi" kabi bo'limlar o'rin olgan. Bo'limlarda, o'z ifodasini topgan mavzularni ochib berishda g'oyalar o'rtasidagi o'zaro izchillik va mantiqiylikning ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mavzularning bayonida, Sharq mutafakkirlarining qarashlari, xalq pedagogikasi asoslaridan foydalanish orqali barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash maqsadiga erishiladi. Darslikni yaratishda mualliflar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlardan foydalandilar.

I BO‘LIM. BOSHLANG‘ICH VA UZLUKSIZ TA‘LIM PEDAGOGIKASI VA UNING METODOLOGIYASI

1-mavzu: Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy tadqiqot ob‘ekti, metodlari.

Reja:

- 1. Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy tadqiqot ob‘ekti, metodlari.**
- 2. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.**
- 3. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.**
- 4. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.**

1. Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy tadqiqot ob‘ekti, metodlari.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ta‘lim-tarbiya ishlarininig har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshirilishi, ta‘limning hamma uchun tengligining ta‘minlanishi, o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda fuqarolik tuyg‘usi, oil ava davlat oldida mas‘uliyatni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashlari va har tomonlana rivojlanishlari uchun ularga maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni yaratish ta‘lim sifatini oshirishning eng muhim omili hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta‘limning poydevori bo‘lmish boshlang‘ich ta‘limning asosiy maqsadi: bolaning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabati, bugungi kunda eng zarru bo‘lgan o‘qish savodxonligi, turli manbalar bilan ishlash, asosiy matematik tushunchalarni bilish va hayotda qo‘llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tuta bilish, kommunikativ muloqotga kirisha olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich va uzluksiz ta‘lim pedagogikasi fanining predmeti bu - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta‘lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlodni jamiyat uchun yetuk inson etib tayyorlovchi va bu sohada zarur

ta'limiy-tarbiyaviy muammolarni hal etuvchi fandır. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Pedagogika fanining nazariy asoslari inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarining asarlariga suyangan holda fidoiy insonni tarbiyalash, o'qitishning qonun-qoida va tamoyillarining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Pedagogikaning milliy asosi ta'lim-tarbiya muammolarini har bir millatning milliy merosi bilan birga umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'langan holda amalga oshirishdir. Har bir millatning o'ziga xos me'ros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyashunoslik masalalarini milliy asosda yosh avlodga yetkazish mazmuni, shakli, usul, metod va tamoyillarini milliylashtirishdir. Boshlang'ich ta'lim pedagogika fanidan berilgan bilim va malakalar maktab hayoti bilan bog'langan holda nazariy bilimni amaliyotda qo'llab o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishishdir.

Boshlang'ich va uzluksiz ta'lim pedagogika fanining maqsadi o'qituvchilarning ongli faoliyatida o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, uning o'z ustida ishlashi, intilishi izlanishi tanlagan vosita va usullarining qo'llanishi natijasini ko'ra bilish kabi tarbiyachilik san'atini o'rgatishga qaratiladi.

Boshlang'ich va uzluksiz ta'lim pedagogika fanining vazifalari shundan iboratki, pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Shuningdek bu fan maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, bunyodkorlik g'oyalari asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor saratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan otalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

2. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim- shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka –muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Bu fan o'ziga xos bir qator fanlar bilan bog'liq hisoblanadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud:

1. **Falsafa** – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. **Iqtisod** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlari anglashga xizmat qiladi.

3. **Sosiologiya** – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. **Etika**- shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda

muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

5. **Estetika** – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. **Fiziologiya**- o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ch asoslarni beradi.

7. **Gigiena** – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

8. **Psixologiya** – shaxsda ma‘naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. **Tarix** – pedagogika fani taraqqiyoti, ta‘lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarni kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

10. **Madaniyatshunoslik** – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. **Tibbiy fanlar** – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta‘minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

4. **Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.**

Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga bog‘liq. Ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq

maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi;
- 2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- 4) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;
- 5) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o‘tish;

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkchlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub’ektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi.

Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta‘minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni;
- 4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma‘lumotlarga ega bo‘lish;
- 5) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 6) olingan ma‘lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoşarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta‘minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta‘minlaydi. Intervyu respondent e‘tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar. Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejaliishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum

o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 3) maktab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkchlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkch hisoblanadi.

Boshqa davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimi ustuvor soha hisoblanadi. 2020 yil 19- mayda Qonunchilik palatasi tomonidan yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risidagi Qonun qabul qilindi. Senat tomonidan 2020 yil 7 – avgustda ma'qullandi.

I Bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlari

Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim to‘grisidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa. xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi - davlat ta‘lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta‘lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta‘lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e‘tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqsim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta‘lim muassasasi - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta‘lim standartlariga va davlat ta‘lim talablariga muvofiq ta‘lim beradigan muassasa;

davlat ta‘lim standartlari - davlat tomonidan ta‘limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta‘lim talablari - ta‘limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta‘lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

malaka - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma‘lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, kobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta‘lim tashkiloti - davlat ta‘lim standartlari, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish xukukini beradigan litsenziya asosida ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya - anik maksadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni xar tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyokarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovkatlanish ob'ektlarini o'z ichiga olgan binolar xamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi - ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baxolash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

4-modda. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat: ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doyr yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, kobilyatlilik va iste'dodning ragbatlantirilishi; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uygunligi; ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tikodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlangich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar Uzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

II Bob. Ta'lim tizimi, turlari va shakllar.

6-modda. Ta'lim tizimi

Ta'lim tizimi:

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni; ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy- pedagogik muassasalarni;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

7- Modda. Ta'lim turlari

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

professional ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta'lim.

8-modda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlangich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

9-modda. Umumiy o'rta va urta maxsus ta'lim

Umumiy urta va urta maxsus ta'lim umumta'lim o'kuv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga karatilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I-XI sinflar) boskichlari quyidagilardan iborat:

boshlangich ta'lim (I—IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar);

o'rta ta'lim (X-XI sinflar).

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda kabul qilinadi.

Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga karatilgan.

Tayanch oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofik taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy xajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-xunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi.

Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek taʼlimning keyingi turi tanlanishini xamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun xujjatlarida belgilanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi.

Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi.

Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, akliy, sensor (sezgi) yoki ruxiy nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek uzok vaqt davolanishga muhtoj boʻlgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalarida, umumiy oʻrta va oʻrta

maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruxlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

10-modda. Professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chikkan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtki ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan xolda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar xam o'rta professional va urta maxsus professional ta'lim olish xuquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish xuquqiga ega.

11 -modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlangich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlangich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi (to'kkiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish xukukiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga - bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chukurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'kish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi anik mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim soxasidagi vakolatli davlat boshkaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fukarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish xukukiga ega.

12-modda. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya kilish maksadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan xolda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan xolda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari konun xujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

13-modda. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur xajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi xamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

14-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

15- modda. Ta'lim olish shakllari

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtki, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustakil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

16- modda. Masofaviy ta'lim.

Masofaviy ta'lim o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan xamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan xolda masofadan turib olishga karatilgan.

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17- modda. Dual ta'lim.

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga karatilgan bo'lib, ularning nazariy kismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

18- modda. Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshkaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan xolda davlat ta'lim muassasasi xamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

19- modda. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy kismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat xayotida va mexnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga karatilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan koidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari takdim etilishini ta'minlovchi shaxe yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan koidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), anik maksadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxeni butun xayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq

tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

20- modda. Inklyuziv ta’lim

Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan xolda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

21- modda. Eksternat tartibidagi ta’lim

Eksternat tartibidagi ta’lim olish o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishni o‘z ichiga olib, uning yakunlari bo‘yicha ta’lim oluvchilardan davlat ta’lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o‘tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta’lim olishni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

22- modda. Mudofaa xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

23- modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; ta’lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;

ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish, nodavlat ta’lim tashkilotlariga ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda

litsenziya deb yuritiladi) berish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga apostil qo'yish tartibini belgilaydi;

pedagogik kadrlarni ta'lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi;

horijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi xududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga doir ruxsatnomalar beradi;

horijiy davlatlarda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi;

davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlar berish tartibini belgilaydi;

eksternat tartibida o'qitishga yo'l qo'yilmaydigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;

faqat davlat ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;

davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlariga qabul qilish tartibini belgilaydi;

davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta'lim tashkilotlari (davlat ulushi bo'lgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, qo'shma ta'lim muassasalari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan ta'lim muassasalari va boshkalar) rektorlarini (raxbarlarini) lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi;

ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim tashkilotidan boshqasiga ko'chirish, shuningdek ularni o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibini belgilaydi;

ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

mehnat bozori talablarini prognoz va tahlil qilish asosida ta'lim tashkilotlarida kadrlarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi;

ta'lim tashkilotlariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilaydi;

darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish tartibini, shuningdek ularni yetkazib berishga va ulardan ta’lim tashkilotlarida foydalanishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

24-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat iispeksiyasiniig ta’lim sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda Ta’lim inspeksiyasi deb yuritiladi) ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni, professor-ukituvchilar tarkibi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati ustidan nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan, ta’lim sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir.

Ta’lim inspeksiyasi:

ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, shuningdek ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazadi;

ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonining sifati monitoringini amalga oshiradi;

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashkari ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga lavozimlar va malaka toifalarini berish jarayonini nazorat qiladi hamda unda ishtirok etadi;

nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziyalar beradi;

ta’lim tashkilotlarining reytingini aniqlaydi;

aniqlangan ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishlari yuzasidan tegishli davlat boshqaruvi organlariga va ta’lim tashkilotlariga taqdimnomalar kiritadi.

Ta’lim inspeksiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

25-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining ta’lim sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun davlat ta'lim standartlarini tasdiqlaydi;

davlat ta'lim standartlariga muvofiq Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona tarzda muvofiqlashtirishni hamda unga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi, mazkur maktablarda bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish ishlarini monitoring qiladi va muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

26-modda. Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; ta'lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartlari) va davlat ta'lim talablarida kadrlarning ma'lumoti darajasiga va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo'yilgan talablarning ta'lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta'lim talablari ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni tasdiqlaydi;

ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash tartibini belgilaydi;

professional ta'limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek bilim sohalari va ta'lim sohalari ro'yhatini belgilaydi;

ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta'minlaydi;

ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga karatilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, o'quv dasturlarini takomillashtiradi;

o'quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi; o'zlashtirishni baholashga, o'quv jarayonini, ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi, shuningdek eksternat tartibida ta'lim oluvchilarning toifalarini belgilaydi;

davlat oliy ta'lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnika resurslaridan foydalanishga doir talablarni ishlab chiqadi;

ta'lim sohasidagi normativ-xuquqiy xujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

27-modda. Mahalliy davlat xokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ta'lim sohasidagi vakolati davlat boshqaruvi organlari bilan kelishilgan holda davlat ta'lim muassasalarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, bundan respublika tasarrufidagi ta'lim muassasalari mustasno;

o'z vakolatlari doirasida tegishli hududda davlat ta'lim muassasalari uchun moliyalashtirish hajmini belgilaydi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan xamkorlik kiladi;

davlat umumiy urta ta'lim muassasalariga biriktirilgan xududlarni (mikrouchastkalarini) belgilaydi;

ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ta'lim tashkilotlariga ko'maklashadi;

ta'lim oluvchilar uchun sifatli ta'limni, tarbiyani ta'minlash, ularning iste'dodini shakllantirish va namoyon etish maqsadida joylarda ularga zarur sharoitlar yaratish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqadi;

o'z vakolatlari doirasida ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantiradi va nodavlat ta'lim tashkilotlari tarmogini kengaytirishga ko'maklashadi;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari bandligini ta'minlashga ko'maklashadi.

Mahalliy davlat xokimiyati organlari konun xujjatlariga muvofik boshqa vakolatlarni xam amalga oshirishi mumkin.

28-modda. Ta'lim tashkilotini boshqarish

Ta'lim tashkilotini boshqarishni tegishincha quyidagilar amalga oshiradi:

pedagogik kengash;

kuzatuv (vasiylik) kengashi;

oliy ta'lim tashkilotining kengashi;

ta'lim tashkilotining rahbari.

Ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishda va kadrlar tayyorlashda kadrlar talabgorlari ishtirok etadi.

IV Bob. Ta'lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish

29- modda. Ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek horijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklidagi ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yhatga olingan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishga haqli.

Ta'lim tashkilotlari uz faoliyatini ustav va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlari asosida yuritadi.

Ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya va o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualariga birlashishga xaqli.

Ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalarning tashkiliy tuzilmalarini tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi.

30- modda. Ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish

Davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning oliy ma'lumotli malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek aholining oliy ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida mamlakat hududida xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari (markazlari, ta'lim kampuslari) va boshqa bo'linmalari tashkil etilishi mumkin.

Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining bo'linmalari O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi.

Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining, shuningdek xalqaro tashkilotlarning ta'lim muassasalari filiallari (markazlari, ta'lim kampuslari) va boshqa bo'linmalari faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinishi mumkin.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha davlat ta'lim muassasalari:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan institutlar va markazlar shaklida;

tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasalarining fakultetlari va kurslari shaklida tashkil etiladi.

Davlat umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari:

respublika bo'ysunuvida vazirliklar, davlat ko'mitalari va idoralari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'ysunuvida tegishincha Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda;

tumanlar va shaharlar bo'ysunuvida tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tashkil etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'grisidagi ma'lumotlar davlat statistika organlariga, Ta'lim inspeksiyasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy organlariga taqdim etiladi.

31- modda. Nodavlat ta'lim tashkilotlari

Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatadi.

Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'grisidagi hujjatlarni beradi.

Mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'grisidagi hujjatlarni beradi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ta'lim oluvchi yohud uning ota-onasi yoki boshqa konuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning

huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

32- modda. Ta'lim tashkilotining ustavi

Ta'lim tashkilotining ustavi ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Ta'lim tashkilotining ustavida, qoida tariqasida, quyidagilar ko'rsatiladi:

ta'lim turi va shakli;

ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari;

o'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish xamda mazmuni;

ta'lim tashkilotiga qabul qilish tartibi;

ta'lim tashkilotining tuzilmasi, boshqaruv organlari va jamoatchilik tuzilmalari;

ta'lim oluvchilar, pedagog kadrlar, o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha xodimlar, ma'muriy-boshqaruv xodimlarining maqomi, huquqlari va majburiyatlari;

ta'lim tashkilotining mol-mulki va vositalari;

ta'lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Ta'lim tashkilotining namunaviy ustavi:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari uchun – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan;

oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablar, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari uchun – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan;

kadrlarni kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim tashkilotlari uchun - tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ta'lim tashkilotining ustavi ta'lim tashkilotining ta'sischilari tomonidan tasdiqlanadi va hududiy tegishlilik bo'yicha Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yhatga olinadi.

33- modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

34- modda. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim talablari:

maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini;

ta'lim tuzilmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini;

ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatleri to'g'risidagi normalarni belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti qo'llaniladi.

Davlat ta'lim standartlarini va (yoki) davlat ta'lim talablarini bajarish barcha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustakil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim xamda professional ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarini belgilaydi.

Tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta'lim standartlarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta'lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

Oliy, professional, oʻrta maxsus va umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari, malaka talablari, oʻquv rejalari va oʻquv dasturlari tegishincha Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Xalq taʼlimi vazirligi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Tegishli vakolatlar berilgan boshqa vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralar davlat taʼlim standartlarini Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.

Davlat taʼlim talablari taʼlim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshkaruvi organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan shaxslarni oʻqitish maxsus oʻquv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi davlat oliy taʼlim muassasalariga mustaqil ishlab chiqilgan va tasdiqlangan oʻquv dasturlari, malaka talablari hamda oʻquv rejalari asosida taʼlim xizmatlari koʻrsatish boʻyicha vakolatlarni berishi mumkin.

35-modda. Taʼlim jarayoniga oʻquv rejalari va oʻquv dasturlarini joriy etish

Oʻquv rejalari va oʻquv dasturlari tegishli taʼlim bosqichlarining maqsad hamda vazifalari asosida ishlab chiqiladi.

Tegishli davlat taʼlim muassasalari va tashkilotlaridagi oʻquv rejalari va oʻquv dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi, Xalq taʼlimi vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Umumtaʼlim fanlarining oʻquv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, taʼlim oluvchilarda bilim, malaka, koʻnikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan boʻlishi kerak.

Kasbga oid fanlarning oʻquv dasturlari taʼlim oluvchilar tomonidan tegishli kasblar va mutaxassisliklarni egallashga qaratilgan.

Taʼlim jarayoniga oʻquv rejalari va oʻquv dasturlarini joriy etish taʼlim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llaniladi.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish chog'ida ta'lim tashkilotlari kredit-modul tizimiga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lim jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) xamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi.

Professional va oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doyr o'quv rejalarda ta'lim oluvchilar uchun amaliyot o'tash nazarda tutiladi.

Ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibi va uni tashkil etish ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Professional va oliy ta'limga doyr o'quv rejalari davlat ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlaridan, shuningdek umumkasbiy, matematika, tabiiy-ilmiy, gumanitar va qo'shimcha fanlardan shakllantiriladi.

O'quv rejalari davlat boshqaruvi organlarining topshiriklariga asosan va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa yo'l bilan qo'shimcha fanlarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

36- modda. Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat

Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi.

Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining

ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

37-modda. Ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi

Ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi ularning rasmiy veb-saytlarida Internet jahon tarmogida joylashtiriladigan ta'lim tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi ochiq axborot resurslari bilan ta'minlanadi.

Ta'lim tashkilotlari rasmiy veb-saytlarida quyidagilarni joylashtiradi:

ta'lim tashkilotining ustavi;

ta'lim berish tillari haqida ma'lumot;

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari;

ta'lim faoliyatining moddiy-texnika ta'minoti haqida ma'lumot;

litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun);

ta'lim tashkilotining reytingi;

ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun davlat akkreditatsiyam to'g'risidagi sertifikat;

ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari va natijalari, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot bazasi to'g'risidagi ma'lumot (oliy ta'lim uchun);

ta'lim oluvchilarga stipendiyalar berish tartibi, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishning mavjudligi va shartlari to'g'risidagi ma'lumot;

vaktincha yashash joylarining mavjudligi va yashash joylarining soni, shuningdek to'lov miqdori to'g'risidagi ma'lumot;

pedagoglar va ta'lim oluvchilarning soni, shuningdek pedagoglarning ilmiy salohiyati to'g'risidagi ma'lumot.

Ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan axborotning ishonchligini ta'minlash uchun ta'lim tashkilotlarining rahbarlari shaxsan javobgardir.

Ayrim ta'lim tashkilotlarining faoliyati to'grisidagi axborotdan foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda cheklanishi mumkin.

38- modda. Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), davlat akkreditatsiyasi to'grisidagi sertifikat, o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, ta'lim oluvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tashkilotlariga tanlov asosida o'qishga qabul qilish chog'ida tanlov ishtirokchilariga tanlovni o'tkazish tartibi to'grisidagi axborot taqdim etiladi.

Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tartibi ushbu ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Chet ellik fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish to'lov-shartnoma asosida (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish chogida imtiyozli kontingent uchun qo'shimcha qabul parametrlari belgilanadi.

39- modda. Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish

Davlat ta'lim muassasalariga o'kishga maqsadli qabul qilish tegishli hududlarning, sohalar va tarmoqlarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular uchun belgilangan ta'lim oluvchilarni qabul qilish parametrlari doirasida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'kishga maqsadli qabul qilish kadrlar buyurtmachilari, davlat ta'lim muassasalari va fukarolar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga maqsadli qabul qilish tartibida o'qishga kirish umumiy asoslarda tanlov natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

40- modda. Ta'lim to'g'risidagi hujjat

Akreditatsiya qilingan ta'lim tashkilotlarining davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofik ta'lim olgan bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustakil ta'lim olgan hamda akkreditatsiya qilingan davlat ta'lim muassasalarining tegishli o'quv dasturlari bo'yicha eksternat tartibida yakuniy va davlat attestatsiyasidan o'tgan shaxslarga ham beriladi.

O'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlar bo'yicha baholari yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Tegishli ilmiy darajani olish uchun dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining va xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni o'zaro tan olish amalga oshirilishi mumkin.

Uzluksiz ta'limning tegishli turini tamomlamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan beriladigan O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'g'risidagi hujjat

uzluksiz ta'limning keyingi turi (darajasi) bo'yicha o'qishni davom ettirish yoki tegishli mutaxassislik va kasb bo'yicha ishlash xuquqini beradi.

Xorijiy davlatlarning va O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ularning bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi hududida oliy ma'lumot to'grisidagi hujjat sifatida tan olinadigan ikki tomonlama diplom (Double Diploma) berilishi mumkin.

41- modda. Ta'lim tashkilotlarining reytingi

Ta'lim tashkilotlarining reytingi:

ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

ilmiy-pedagogik faoliyat darajasining o'sishini va sifatining oshishini ragbatlantirish;

pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish;

o'qitish sifatining yuqori ko'rsatkichlariga erishish;

mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash maqsadlarida belgilanadi.

Reytingni belgilash uchun ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun ta'lim tashkilotining rahbari shaxsan javobgar bo'ladi.

42- modda. Ta'lim tizimidagi monitoring

Ta'lim tizimidagi monitoring ta'limning xolatini, ta'lim natijalarining o'zgarishi sur'atlarini, ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va kuzatishni, shuningdek ta'lim oluvchilarning kontingenta to'grisidagi ma'lumotlarni va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini tahlil etishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tashkilotlarining monitoringi Ta'lim inspeksiyasi, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim holatining tahlili va uni rivojlantirish istiqbollari tugrisidagi axborot Ta'lim inspeksiyasining, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining va ular hududiy bo'linmalarining, shuningdek ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb- saytlariga joylashtiriladi.

Ta'lim tizimidagi ma'lumotlar jumlasiga rasmiy statistika ma'lumotlari, ta'lim tizimi monitoringi natijalari, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining va ular xududiy

bo'linmalarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ta'lim tashkilotlarining ma'lumotlari kiradi.

43- modda. Ta'lim sohasidagi davlat nazorati

Ta'lim sohasidagi davlat nazorati berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati davlat ta'lim standartlari ga, davlat ta'lim talablari va o'kuv dasturlariga, shuningdek ushbu Qonun talablariga muvofiqligini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlari ta'lim sifati ustidan nazoratni amalga oshirishda Ta'lim inspeksiyasiga, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga ko'maklashadi.

Ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga nomuvofiqligi aniqlangan hollarda Ta'lim inspeksiyasi nomuvofiqlikni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnoma kiritadi. Aniqlangan nomuvofiqlik bartaraf etilmagan taqdirda Ta'lim inspeksiyasi ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'grisidagi sertifikatini qonun xujjatlariga muvofik bekor qilishga xaqli.

Ta'lim sifati ustidan nazorat qilish vakolatlariga ega bo'lmagan organlar tomonidan ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatini, ta'lim jarayoni tashkil etilishini, pedagog xodimlarining mehnat faoliyatini, ta'lim oluvchilarining o'zlashtirishini tekshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining xuquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshiradi.

V Bob. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

44- modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shugullanish huquqiga ega.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shugullanishga haqli.

Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

45- modda. Pedagog xodimlarning makomi va ular faoliyatining kafolatlari

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-xukukiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z xukuk va konuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baxolashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l ko'yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o'z sha'ni, qadr-kimmati va ishchanlik obro'sini ximoya qilish;

o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chikish, shuningdek tegishli o'kuv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fukarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish xamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;

o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalanih; davlat sogliqni saklash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun);

ta'lim oluvchilarning huquqlari va konuniy manfaatlarini himoya kilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar konun xujjatlariga muvofik boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshka ishga jalb qilish taqiqlanadi.

46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari

Pedagog xodimlar:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-kimmati va ishchanlik obro'sini xurmat kilishi;

o'quv mashgulotlarini sifatli o'tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilgor xamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruxiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini xisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuksonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa konuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis xujjatlariga, ichki mehnat tartibi koidalariga rioya etishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi; tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonun xujjatlariga, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofik boshqa majburiyatlar xam bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axlok va etika normalariga zid xarakterli sodir etish takliflanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doyr talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

6 Bob. Ta'lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari.

47- modda. Ta'lim oluvchilarning huquqlari

Ta'lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va boshlangich professional ta'lim olish;

yashash joyidagi (mikroxududdagi) davlat umumiy o'rta ta'lim muassasasiga qabul qilinish;

ta'lim olish shakllarini erkin tanlash;

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofik sifatli ta'lim olish;

ta'lim olish uchun o'zining ruxiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan xolda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;

davlat ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofik, professional ta'lim va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o'zi oladigan ta'limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;

pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sogligiga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruxiy zo'ravonlikdan, shaxsi hakoratlanishidan himoyalash;

ta'lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar olish;

akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va o'qishini boshqa ta'lim tashkilotlariga, bir ta'lim shaklidan, kasbdan, ta'lim yo'nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko'chirish;

ta'lim tashkilotini boshqarishga doyr masalalarni muhokama kilishda ishtirok etish;

ta'lim olish jarayonida ta'lim tashkilotining o'quv, uslubiy, ilmiy- ishlab chikarish, madaniy, sport va maishiy ob'ektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;

ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy- texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish.

Ta'lim oluvchilar konun xujjatlariga muvofik boshqa hukuklarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarni ta'lim olish bilan bogliq bo'lmagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

48- modda. Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari

Ta'lim oluvchilar:

o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashgulotlarga qatnashishi, ularga mustakil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi;

ta'lim-tarbiya jarayonining boshka ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruxiy zo'rvonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik kilmasligi;

ustav (ta'sis xujjati) talablariga, ichki tartib-koidalarga, vaqtincha yashash joylari koidalarga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki xujjatlar talablariga rioya etishi;

axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyokarashini kengaytirishga intilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

ta'lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart.

Ta'lim oluvchilarning zimmasida qonun xujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

49- modda. Ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo'yiladigan talablar.

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim oluvchilarning ayrim toifalari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablaglari hisobidan kiyim-bosh bilan ta'minlanadi.

50- modda. Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarni vaqtincha yashash joylari bilan ta'minlash

Kunduzgi ta'lim shaklidagi ta'lim tashkilotida ta'lim oluvchilarga, shuningdek sirtqi ta'lim shaklida yakuniy va oraliq attestatsiya davrida vaqtincha yashash joylari, ular mavjud bo'lgan taqdirda beriladi.

Vaqtincha yashash joylari ta'lim oluvchilarga ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan tartibga muvofiq beriladi.

Vaqtincha yashash joylariga muhtojlar mavjud bo'lgan hollarda, ushbu joylardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Vaqtincha yashash joylaridan foydalanish uchun ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofik haq to'lanadi.

Vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun to'lov miqdori ta'lim tashkiloti tomonidan belgilanadi.

Davlat ta'lim muassasalari ayrim turdagi ta'lim oluvchilar uchun vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun to'lov qiymatini kamaytirishga yoki ularni to'lovdan to'lik ozod qilishga hakli. Yetim bolalar va ota-ona karamogidan mahrum bo'lgan bolalar, shuningdek o'kitish davrida yetim bo'lib kolgan bolalar, jismoniy, akliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuksonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) vaqtincha yashash joyidan foydalanganlik uchun haq to'lashdan ozod qilinadi.

51-modda. Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o'qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas'uldir.

Maxalliy davlat xokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim tashkilotlari voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sogligini muhofaza qilish va mustaxkamlashda, shuningdek individual kobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga hamda boshqa qonuniy vakillariga ko'maklashadi.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa konuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruxiy nuksonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek uzok vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga oilada ta'lim olish imkoniyatini berish;

oilada ta'lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan xolda uning o'qishini ta'limning xar qanday bosqichida ta'lim tashkilotida davom ettirish to'grisida qaror kabul qilish;

ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta'lim tashkilotlariga xayriya yordami ko'rsatish bo'yicha takliflar kiritish;

ta'lim tashkilotining ustavi va (yoki) boshqa ta'sis hujjati, litsenziyasi, davlat akkreditatsiyasi to'grisidagi sertifikatga, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari bilan tanishish;

ta'limning mazmuni, qo'llanilayotgan ta'lim va tarbiya usullari, ta'lim texnologiyalari bilan, shuningdek o'z bolalarining o'quv fanlarini o'zlashtirishi natijalari bilan tanishish;

ta'lim oluvchilarning huquqlari va konuniy manfaatlarini himoya qilish;

ta'lim tashkilotini boshqarishga doyr masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari:

o'z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

bolalarining umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim olishini ta'minlashi;

bolalarining o'quv mashgulotlariga qatnashishini ta'minlash va o'zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

o'z bolalarining intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o'z bolalarining ta'lim soxasidagi xukuklari va konuniy manfaatlarini himoya qilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

VII Bob. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish

52- modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar, stipendiyalar va vaqtincha yashash joylari bilan ta'minlanadi.

To'lov-shartnoma asosida ta'lim oluvchilarga imtiyozli bank kreditlari berilishi mumkin.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilishni qonun xujjatlariga, o'z ustaviga va (yoki) boshka ta'sis hujjatiga muvofik amalga oshiradi.

Davlat ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash maqsadida kam ta'minlangan oilalardagi bolalar, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun, shuningdek mazkur toifadagi ta'lim oluvchilarning kasbiy o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

53- modda. Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi belgilanadi, haq to'lanadigan har yilgi uzaytirilgan ta'til va boshqa imtiyozlar va kafolatlar taqdim etiladi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-gigienaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sogliqni saqlash kafolatlanadi.

Ta'lim tashkilotlari mehnatga hak to'lash uchun mavjud bo'lgan mablag'lar doirasida mustaqil ravishda ish xaqiga, lavozim maoshlariga tabaqalashtirilgan ustamalar belgilashga va mehnatga xaq to'lash hamda uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

54- modda. Yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillariining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va ulariing to'liq ta'minoti

Yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va

ularning to'lik ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

55- modda. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni (shaxslarii) o'qitish hamda tarbiyalash

Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi.

56-modda. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bulgan bolalarni (shaxslarni) o'qitish va tarbiyalash

Alohida sharoitlarda o'qitish va tarbiyalanishga muxtoj bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ularning ta'lim olishini, kasbiy tayyorgarligini va ijtimoiy reabilitatsiya kilinishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzida jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalarning (shaxslarning) ta'lim olishi, tarbiyalanishi va mustaqil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratiladi.

VIII Bob. Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish, ta'lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo'yish

57-modda. Nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya berish, litsenziyaning amal kilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va kayta rasmiylashtirish Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziyalar nomuayyan muddatga, ta'limning har bir turi uchun aloxida beriladi.

57-modda. Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari, shuningdek maktabdan tashkari ta'limni, oliy ta'limdan keyingi ta'limni, kadrlarni kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlari davlat ta'lim standartlariga, davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqlik jixatidan attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish besh yil muddatga amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ta'lim tashkilotlarining arizasiga ko'ra Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ariza akkreditatsiya muddati tugashidan uch oy oldin beriladi.

Attestatsiya ikki bosqichda - ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash va tashqi baholash bosqichlarida amalga oshiriladi.

Ichki baholash ta'lim tashkilotining o'zini o'zi baholashidir.

Tashqi baholash ichki baholash o'tkazilganidan keyin Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladigan baholashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenta yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida tashkil etilgan, shuningdek vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan kundan e'tiboran besh yil mobaynida akkreditatsiya qilingan hisoblanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran besh yil davomida akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu Qonunda belgilangan tartibda attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish maqsadida Ta'lim inspeksiyasi huzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlat akkreditatsiya komissiyasi tuziladi.

Davlat akkreditatsiyasi ta'lim tashkilotining attestatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlat akkreditatsiya komissiyasi ta'lim tashkilotining maqomini va uning faoliyati davlat ta'lim standartlariga, davlat ta'lim talablariga va o'quv dasturlariga muvofiqligini aniqlaydi.

Ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, unga davlat akkreditatsiyasining amal qilish muddati ko'rsatilgan holda belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.

Ta'lim tashkiloti qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan hollarda davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatning amal qilishi Ta'lim inspeksiyasining qarori bilan tugatiladi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablari yoki sertifikatda ko'rsatilgan shartlar buzilganligi aniqlangan va aniqlangan qoidabuzarliklar ta'lim tashkiloti tomonidan bartaraf etilmagan hollarda Ta'lim inspeksiyasi tomonidan davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatning amal qilishini bekor qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tgan ta'lim tashkilotlari Ta'lim tashkilotlarining reestriga kiritiladi va bu haqdagi ma'lumotlar Ta'lim inspeksiyasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

56- modda. Ta'lim tashkilotlarining faoliyatini ichki va tashqi baholashdan o'tkazish

Ta'lim tashkilotlarining faoliyati tashqi baholashdan o'tkazilishidan oldin ular Ta'lim inspeksiyasi tomonidan ishlab chiqilgan attestatsiyadan o'tkazish mezonlari va ko'rsatkichlari asosida o'z faoliyatini mustaqil ravishda ichki baholashdan o'tkazadi.

Ta'lim tashkilotlari o'z faoliyati tashqi baholashdan o'tkazilishidan ikki oy oldin ichki baholash natijalarini Ta'lim inspeksiyasiga takdim etadi.

Ta'lim inspeksiyasi ta'lim tashkilotining faoliyatini ichki baholash yakunlarini o'rganadi va ulardan ta'lim tashkilotining faoliyatini tashqi baholash jarayonida foydalanadi.

Ta'lim tashkiloti rahbari ichki baholash natijalarining ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi.

57- modda. Xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish

Xorijiy davlatda 1992 yil 1 yanvardan keyin olingan ta'lim to'g'risidagi hujjat tan olish jarayonidan o'tkazilganidan keyin O'zbekiston Respublikasining butun hududida qonuniy kuchga ega hujjat sifatida tan olinadi.

Xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish tartibi Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

58- modda. Ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish

Ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil hujjatni tasdiqlagan shaxe imzosining haqiqiyligini, shuningdek muhr yoki shtampning bosma izi haqiqiysiga muvofiqligini tasdiklash maksadida qo'yiladi.

Apostilga qo'yilgan imzo, muhr yoki shtamp qo'shimcha ravishda tasdiqlashni talab etmaydi.

Ta'lim tashkilotlari tomonidan berilgan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

XIX Bob. Ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

59- modda. Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish muassislarning, kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag'lari hamda konun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar kursatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish xukukiga ega.

Pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish davlat ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to'skinlik qilmasligi kerak.

Davlat ta'lim muassasalarida ko'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Davlat ta'lim muassasalari pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish hisobidan olingan pul mablaglarini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli.

Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning kushimcha manbalari quyidagilardan iborat:

shartnomalar asosida, shu jumladan chet ellik jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hisobidan tushgan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o'quv-uslubiy va qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni bajarish hisobidan tushgan mablag'lar;

ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni, bajarilgan ishlarni va ko'rsatilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

binolar, inshootlar va asbob-uskunalarini ijaraga berish hisobidan tushgan mablaglar;

ta'lim tashkilotlarining bo'sh turgan pul mablaglarini bank muassasalariga depozitlarga joylashtirish hisobidan olingan pul mablaglari (foizlar);

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratiladigan mablaglar; bank kreditlari va ssudalari;

jismoniy va yuridik shaxslarning hayriya mablaglari.

Maktabgacha, umumiy o'rta, urta maxsus ta'limda va boshlangich professional ta'limda ajratiladigan mablaglar summalari Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi xamda ushbu mablaglar tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarning o'qish joyidagi ta'lim tashkilotlariga yo'naltiriladi.

63-modda. Ta'limni rivojlantirish jamg'armalari

Ta'limni rivojlantirish jamgarmalari konun xujjatlarida belgilangan tartibda davlat muassasalari xamda tashkilotlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning badallari xamda ajratmalari, shuningdek konun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar xisobidan tashkil etilishi mumkin.

64- modda. Ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik

Ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sheriklarning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan,

davlat-xususiy sheriklik loyixasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorlikdir.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni prinsiplari, normalari va qoidalariga muvofik amalga oshiriladi.

65-modda. Ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb etish

Davlat ta'lim sohasini, ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek investorlarning, shu jumladan chet ellik investorlarning ushbu sohadagi xuquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan investitsiyalarni jalb etish uchun kulay ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-xuquqiy sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

66- modda. Ta'lim tashkilotlarining mol-mulki

Ta'lim tashkilotlari o'z mulkiga, xo'jalik yurituvdagi yoki operativ boshqaruvidagi mulkka ega bo'lishi kerak.

Davlat ta'lim muassasalarining operativ boshqaruvida yoki xo'jalik yurituvda bo'lgan ob'ektlarning (binolar, inshootlar, kurilayotgan binolar va inshootlarning, o'kuv, ishlab chikarish va ijtimoiy infratuzilmalarning, ta'lim oluvchilar vaqtincha turar joy binolarining, klinik bazalar va boshqa ko'chmas mulk ob'ektlarining, shu jumladan ta'lim kampuslariga kiradigan mulk ob'ektlarining) xususiylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim tashkilotlari kayta tashkil etilgan xollarda ularning mol-mulki yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotiga xukukiy vorislik asosida o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlari tugatilganda ularga tegishli mol-mulk kreditorlarning talablari qanoatlantirilgandan so'ng, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, muassislarga (ishtirokchilarga) qaytariladi.

X Bob. Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik

67- modda. Ta'lim tashkilotlarining xalqaro hamkorligi

Ta'lim tashkilotlari quyidagilar vositasida tegishli xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi:

ta'lim muammolari yuzasidan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish;

qo'shma fakultetlar, o'quv markazlari va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish;

xalqaro darajadagi birgalikdagi ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlarini tayyorlash;

hamkorlikda fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar o'tkazish;

talabalar, magistrlar, doktorantlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;

ikki tomonlama diplomlar (Double Diploma) dasturlarini joriy etish;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlar.

Ta'lim tashkilotlari qonun xujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi mumkin.

68- modda. Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik

Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari: xorijiy davlatlarning tegishli vakolatli organlari, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi;

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolarni xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga o'qish uchun yuboradi;

pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar almashinuvini amalga oshiradi;

raxbar xamda pedagog xodimlarning xorijiy davlatlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi;

o'z xodimlari hamda mutaxassislarini xalqaro konferensiyalarga va stajirovkalarga yuborish, ularning xalqaro loyihalar hamda ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha boshqa tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

69- modda. Xorijda ta'lim olish.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki yakka tartibda xorijda ta'lim olish huquqiga ega.

XI Bob. Yakunlovchi qoidalar

70- modda. Nizolarni hal etish

Ta'lim sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

71- modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjaglarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

72- modda. O'zbekistoi Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb xisoblansin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi 463-1-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, № 11-12, 295-modda);

2) O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi 464-1-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, № 9, 225-modda);

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi 465-1-sonli «O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni kuchga kirish tartibi to'g'risida»gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, № 9, 226-modda);

4) O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 9 aprelda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga o'zgartish kiritish to'g'risida»gi URQ-87-sonli Qonunining (Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007 yil, № 4, 160-modda) 1-moddasi;

5) O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 7 oktabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun xujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'RQ-355-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, № 10, 263-modda) 15 va 16-moddalari;

6) O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvarda qabul

qilingan «Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-456-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018 yil, № 1, 1-modda) 14 va 15-moddalari;

7) O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 18 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-476-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018 yil, № 4, 224-modda) 26-moddasi.

73- modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

74- modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi:

Hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiklashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

75- modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Nazorat uchun savollar:

2. Pedagogik kasbning ulug'ligi va jamiyatda tutgan o'rnini nimada?

3. Axloq kategoriyalariga nimalar kiradi?
4. Pedagogika soʻzining kelib chiqishi va mohiyati.
5. Pedagogning axloqiy sifatлари deganda nimani tushunasiz?
6. Pedagogikaning asosiy tarmoqlarini ayting.
7. Pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquqi «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonunning qaysi moddasida berilgan?
8. Pedagogik mahorat asoslarini nimalar tashkil etadi?

1 - amaliy ish

Mavzu: «Kasbim - faxrim»

Maqsad: Oʻqituvchi kasbi, uning jamiyatdagi oʻrni, zahmatli va faxrli kasb ekanligini tushuntirish, hayotiy misollar asosida tajribali mutaxassislar bilan tanishtirish, suhbat oʻtkazishni tashkil etish.

Reja:

1. Tajribali oʻqituvchi yoki mehnat faxriysi bilan uchrashuv tashkil etish.

2. Oʻqituvchi-ustoz haqida buyuk allomalarimizning fikrlarini yigʻish va tahlil qilish.

3. Oʻqituvchi-murabbiylarimiz haqida aytilgan sheʼrlardan namunalarni yod olib, ularni aytib berish va tahlil qilish.

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar.

1-topshiriq: Hadis ilmining taʼlim-tarbiyaga oid qarashlari va zamonaviy pedagogikaning uygʻunligi (Imom Buxoriyning «Al-Adab, al-Mufrad» asari misolida tahlil).

2-topshiriq: Quyidagi test savollarining toʻgʻri javoblarini toping (belgilang).

1. Ilk Oʻrta asrlarda taʼlim-tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan shuhrat qozongan allomalarni aniqlang?

A. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Muso al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad al-Fargʻoniy.

B. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshgʻariy.

C. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Abdurahmon Jomiy, Ahmad al-Fargʻoniy.

D. Abu Nasr Forobiy, Kaykovus, Imom al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Ahmad Yugnakiy.

2. Pedagogikaning bosh masalasi nima?

A. Tarbiya;

B. Taʼlim va rivojlanish;

- C. Inson kamoloti;
- D. A va B to'g'ri javob.

3. *Maxsus pedagogikaga nimalar kiradi?*

- A. Oligofrenopedagogika, surdo pedagogikasi, tiflo pedagogikasi, logpediya;
- B. Meditsina pedagogikasi, surdo pedagogikasi, oila pedagogikasi, oligofreno pedagogikasi;
- C. Yosh pedagogikasi, oila pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi, kasbiy pedagogika;
- D. Umumiy pedagogika, harbiy pedagogika, logopediya, surdo pedagogikasi.

4. *Yevropa «Uyg'onish» davrida yetishib chiqqan, pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo'shgan alloma olim Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarini qaysi yilda yozgan?*

- A. 1634-yil;
- B. 1632-yil;
- C. 1631-yil;
- D. 1636-yil.

5. *Respublikamiz Prezidenti farmoniga ko'ra «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» deb e'lon qilingan sanani belgilang.*

- A. 1-oktabr;
- B. 4-noyabr;
- C. 7-oktabr;
- D. To'g'ri javob yo'q.

7. *Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning nechanchi moddasida belgilangan?*

- A. 1-modda;
- B. 6-modda;
- C. 4-modda;
- D. 5-modda.

8. *Axloq kategoriyalarini aniqlang.*

- A. Odob, xulq, ma'naviyat, madaniyat;
- B. Odob-axloq, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat;
- C. Nazokat, odob, xulq, ma'naviyat;
- D. Axloq, odob, nazokat, ma'rifat.

3-topshiriq. “Pedagogika” tushunchasining kelib chiqishi, pedagogika fanining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalariga doir blis-so‘rov savollari

1. “Pedagogika” so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?
2. Pedagogika fani qay tarzda paydobo‘ldi?
3. Ilmiy pedagogika nechanchi asrda yuzaga keldi?
4. Pedagogika fani nimani o‘rganadi?
5. Pedagogika fanining ob‘ekti nima?
6. Pedagogika fanining ob‘ektini belgilashda xilma-xil yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. bunday yondashuvlarga sizning munosabatingiz qanday?
7. Pedagogika fanining predmetini nima tashkil etadi?
8. Pedagogika fanining maqsadi nima?
9. Pedagogikaning tahliliy funksiyasi qanday va zifalarni bajaradi?
10. Pedagogikaning prognostik funksiyalariga nimalar kiradi?
11. Pedagogikaning tashkiliy funksiyasi o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
12. Pedagogikaning metodologik funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

4-topshiriq. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini “modellashtirish” metodi asosida yoritib bering.

Mashg‘ulotda metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Talabalar mavzu mohiyatini to‘laqonli ifoda etadigan kategoriyalarni ajratadi.
- Asosiy kategoriyalar yordamida model yaratiladi.
- Har bir talaba model yordamida pedagogikaning asosiy kategoriyalari to‘g‘risida ma‘lumot beradi.
- Har bir talaba tomonidan taklif etilgan modelning maqsadga muvofiq yaratilganligi, masala mohiyatining ochib berilishi muhokama qilinadi.

2-mavzu: Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Reja:

1. **Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.**
2. **Shaxs tarbiyasiga ta‘sir etuvchi omillar.**
3. **Shaxs rivojlanishida faoliyatning o‘rni.**
4. **Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.**

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

“Individ” nima? Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. **Individ** (lotincha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, atrof-muhitni, jamiyatni bilish insonda psixik jarayonlarni rivojlanishiga bog‘liq ekanligini har bir pedagog va psixolog biladi. Atrof-muhit haqidagi tasavvurlar har xil yo‘llar orqali shakllanadi. Bola nima bilan band bo‘lmasin, uning mashg‘ulotlarida albatta bilishga bo‘lgan qiziqishlar juda ham erta rivojlanadi.

Shaxsning rivojlanishi, avvalo, uning shaxsiy xislatlarining shakllanishidan boshlanadi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylanishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, muhit va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular hamda shaxsning nasliy xususiyatlarining takomillashib borishi odamning rivojlanishi, shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishini, uning har tomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta’sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Shuningdek, bola shaxsning rivojlanishida faoliyatining o‘rni va ahamiyatini ham o‘rganishi lozim.

Psixologlarning fikricha, maktabgacha yosh davrida bolaning xotirasi qiziqarli ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan

bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Yirik psixologlarning tadqiqotlariga qaraganda sifatli tashkil etilgan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantirishni ko‘rsatadi.

Biz yuqorida «rivojlanish» tushunchasini ishlatdik. **Rivojlanish** - shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarning takomillashuvini namoyon etadigan jarayon bo‘lib, bunday xislatlar tug‘ma, ba’zilar keyinchalik erishilgan bo‘ladi. Odam biologik mavjudot sanaladi, tabiiy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo‘ysinadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo‘ysinadi.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo‘lgan layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat go‘yo «mudroq» holatda bo‘lib, uning «uyg‘onishi» - rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishini talab qiladi. Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma’naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog‘liq².

Bolalarda diqqatning rivojlanish darajasini aniqlash va uni yanada rivojlantirish uchun ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har xil o‘yin mashqlarni rejalashtirib, tashkil etishimiz mumkin. Bunday rivojnatriuvchi mashqlar natijasida bolaning diqqati qanchalik rivojlanganligini ham bilish mumkin. Kunning ertalabki soat 8 dan 11 gacha bo‘lgan davri bolalarning bilimlarni qabul qilishi uchun qulay vaqtdir. Tushlikkacha va tushlikdan keying vaqtlarda bolalarning ishlash faoliyati kamayadi., kechki soat 16 - 17 da bolalarda ishlash faoliyati yana faollashadi. Demak, kichik maktab Yoshi davr rivojlantiruvchi o‘yinlarni rejalashtirishda bolalarning yosh, individual, gigiyenik, anatomic-fiziologik xususiyatlarini ham e’tiborga olishimiz kerak.

Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fušaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan

² J.Xasanboyev, H To‘raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov. Pedagogika. Noshir. Toshkent. 2011 y.

rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanishning o'zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar

yetakchi o‘rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta’siri yuqoridir? Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo‘nalish deb nomlangan nuqtai nazar etakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan, deydilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog‘laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo‘lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg‘or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta’limotiga suyaniladi.

Muhit — bu shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi olam. Mikromuhit o‘zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo‘lib, oila, maktab, do‘stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud.

Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi. Oila muhiti - mikromuhit ham o‘ziga xos muhim tarbiyaviy ta’sirga ega. Shu bois oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Mavjud ijtimoiy muhit insonning o‘sib borayotgan ongiga ta’sir etadi. Ijtimoiy tuzim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta’siri ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ushbu ta’sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta’sirlarning barchasi bilan bog‘liq holda, shaxs rivojlanishiga ta’sir etadi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy ta’sirlarning kuchini ma’lum darajada kamaytiradi. Muhitning ta’siri stixiyali, tarbiyaning ta’siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud. Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsning kamol topishida tarbiya muhim rol o'ynaydi. Uning shakllanishi faoliyatdan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat - o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi. Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina, uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod qobiliyatlarini o'stira oladi.

3. Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga

oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonidagi faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlcha bo'ladi. Ta'lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidir.

4. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham

turli yosh davrlarida turlcha bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar. Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlcha bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan 10-sinf o‘quvchisini tenglashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Go‘daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.

2. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3. Maktabgacha bo‘lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar)–7 yoshdan 11,12 yoshgacha.

5. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) 14-15 yosh.

6. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari (o‘spirinlar) – 16-18 yosh.

Kchik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o‘shiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi. Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o‘quvchilariga emosiionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo‘ladi, his-tuyg‘ulari mazmuni o‘zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar. O‘rta maktab yoshi (o‘smirlik 12-15 yosh). O‘smirlikning murakkabligi

anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.

2. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarnig hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kchik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituviga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q. Katta maktab yoshi – lisey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga etgan davridir. Mazkur davrda jinsiy etilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta

yoshlilar ularning hali g'oir fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Nazorat uchun savollar:

- 1.«Individ», «shaxs», «individuallik» tushunchalarini sharhlang.
- 2.Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.
- 3.Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
- 4.Shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.
- 5.O'quvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
- 6.Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

2 - amaliy ish

Mavzu: Tarbiyaning tarixiy, milliy va umuminsoniy xususiyatlari

Maqsad: Sharqona tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari: milliy, ma'naviy jihatlari, tarbiyada insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarining ustunligini o'quvchi-yoshlarga bahs-munozara va amaliy tahlillar yordamida singdirib borish.

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va qoidalari.
2. Tarbiyada milliy udum va odatlar.

3. Tarbiyada insonparvarlik va insoniylik.
4. Tarbiyada milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi.

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi nazorat savollariga qisqacha javob yozing.

- 1) Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarini sharhlang.
- 2) «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
- 3) Axloqiy tarbiya nima?
- 4) Oila tarbiyasida xalq an'analari o'rnini ko'rsating.
- 5) Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari nima?
- 6) Pedagogik kategoriyalar: ta'lim, tarbiya va bilimga ta'rif bering.
- 7) O'z-o'zini tarbiyalash nima?
- 8) Pedagogik fanlar tizimini keltiring?

2-topshiriq. Quyidagi test savollariga to'g'ri javobni toping.

1. Asosiy pedagogik tushunchalarga nimalar kiradi?

- A. Tarbiya, ma'lumot, ilm, o'qitish, inson kamoloti, insonning shakllanishi;
- B. Bilim, ko'nikma, malaka, uslub, taraqqiyot;
- C. Ko'nikma, malaka, o'qitish, eksperiment, tarbiya;
- D. To'g'ri javob yo'q.

2. Ta'lim to'g'risidagi qonun nechta bo'lim va nechta moddadan iborat?

- A. 35 modda 4 bo'limdan;
- B. 34 modda 6 bo'limdan;
- C. 34 modda 5 bo'limdan;
- D. 38 modda 7 bo'limdan.

3. Sinf-dars tizimi asoschisini aniqlang?

- A. Abu Nasr Forobiy;
- B. Ibn Sino;
- C. Komenskiy;
- D. A.Avloniy.

4. Bilim nima?

- A. Kitob o'qish, berilgan materiallarni ilmiy asosda tahlil qilish;
- B. Izlanish, tadqiqot ishlarini olib borish va uni ilmiy tahlil qilish;

- C. Tabiat va jamiyat tafakkur rivojlanishining qonunlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit tizimi;
- D. To‘g‘ri javob A va B.

3-mavzu: Didaktikaning maqsad va vazifalari

Reja:

- 1. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi.**
- 2. Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.**
- 3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.**
- 4. Zamonaviy pedagogikada ta‘lim paradigma (modeli)lari.**

1. Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi.

Bir olam orzular bilan maktab ostonasini xatlagan bola, go‘yoki, yangi dunyoga qadam qo‘ygandek bo‘ladi. Tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi. Maktab talablariga va tartib qoidasiga bo‘ysunadi.

Ta‘lim mazmunini anglatuvchi didaktika maktabning asosiy mazmun va mohiyati. Bola maktabga ta‘lim olish uchun keladi. Insonning faoliyatida o‘qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Didaktika (ta‘lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» «o‘rgatuvchi», «didasko» esa — «o‘rganuvchi» m a’nosini bildiradi) ta‘limning nazariy jihatlarini o‘rganuvchi fan. Bu tushunchani buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592— 1670-yillar) «Buyuk didaktika» (1657-yil) nomli mashhur asarida tilga oladi.

Komenskiyning “Buyuk didaktika” asrida bayon etilgan fikrlar o‘sha davr ilg‘or pedagogic tajribalarini o‘rganish va o‘qitish jarayonida, o‘quvchilarni shaxsan kuzatish natijasida vujudga keladi. Komenskiy “Inson tabiatning bir bo‘lagi va u tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy va umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi” deb hisoblaydi. “Buyuk didaktika”ning V-III bobida yoshlarni bir joyga to‘plab o‘qitish, buning uchun esa maktablar ochish zarurligini asoslab berilgan. Maktab ochishning sabablariga to‘xtalib, Komenskiy bunday yozadi: “Ota onalar har xil bo‘lgani va ularning kasbi turli-tumanligi sabbali o‘z bolasini tarbiyalay olish qo‘lidan keladigan yoki ishdan so‘ng yetarli vaqt topib bola tarbiyasi bilan shug‘ullana oladigan ota-onalar juda kam topiladi.

Shuning uchun ham necha asrlardan buyon ko'pchilik oilalar o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitib kelmoqdalar. Yoshlarni tarbiyalovchi bunday kishilar odatda, ustoz, tarbiyachi, muallim, professor deb atab kelinadi. Bolalarni yig'ib birga mashg'ulot o'tkazadigan joyni esa maktab, o'quv yurti, auditoriya, kollegiya, gimnaziya, akademiya va hokozolar deb yuritiladi".

Komenskiy bu fikrni V-III bob da davom ettiradi. Bolalarni bir joyga to'plab o'qitish yaxshiroq bo'lure di., chunki, tuzukroq o'qiydigan bola boshqalarga namuna bo'ladi, natijada o'qish samarali va unumli bo'ladi. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida maktablar juda qadim zamonlarda vujudga kelganligini ta'kidlab o'tadi. Xaldeyda, shuningdek, Vavilon, Misrda "maktablar ochishni misrliklardan greklar o'rganib oldi, greklardan esa rimliklar o'rganishdi." deb yozadi. O'g'il bolalar bilan bir qatorda qizlarni o'qitish juda muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Insonning o'sish yillarini Y.A.Komenskiy to'rt davrga bo'ladi: go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik. Har bir davr olti yilni o'z ichiga oladi. Go'daklik davri uchun – ona maktabi, bolalik davri uchun – boshlang'ich maktab, o'smirlik davri uchun – gimnaziya, yetuklik davri uchun – akademiya bo'lmog'I lozim deydi.

Y.A.Komenskiy o'z asarida ta'limning maqsadini juda keng ma'noda talqin qiladi. Uning fikricha o'qitish quyidagi to'rtta talabga javob berishi lozim: a) asoslilik. b) samaradorlik v) osonlik, g) qisqalik.

O'qitishning samarali bo'lishi uchun insonga ta'lim berishni umrning bahorida, ya'ni bolalik davrida boshlamoq kerakligini ta'kidlaydi. Bolaning fikrini, nutqini xotirasini rivojlantirish kerak deb aytadi. Oson o'qitish masalalariga batafsil to'xtalinib, o'qitishni o'z vaqtida, ya'ni kishining fikri boshqa narsalarga bo'linmasdan oldin boshlash kerak, bolaning aqli o'qitish uchun yetarli darajada hozirlangan bo'lishi kerak deydi. U ta'limda umumiydan xususiyga, osondan, murakkabga tomon borish zarur deydi.

Ta'limning asosli bo'lishi uchun faqat hayotda kerak bo'ladigan bilimlarnigina puxta o'zlashtirish kerak deydi. O'rganiladigan bilimlar asosli bo'lishi va asoslarga tayanilishi kerak deydi.

O'quvchilar bilimlarni tezroq o'rganib olishlari uchun ta'limning eng qisqa va ixcham usulini qo'llashi lozimligini aytadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish lozim: bir muallim bir maktabga yoki kamida bir sinfga boshchilik qilsin, har fandan faqat bir muallifning asari

qo'llanilsin. O'qitishda izchilikka, ixchamlikka, ishonarlilikka rioya qilish lozim. Bugungi bilimlar ertangi bilimlarni mustahkamlasin.

Komenskiy asoslab bergan didaktik talab va qoidalar muhim ahamiyatga ega va o'z qadrini yo'qotmagan.

Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekti deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar. Didaktika ta'limni ijtimoiy tajriba berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi — o'quvchi, o'quvchi — o'quv materiali, o'quvchi — boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

2. Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.

Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud. Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq. Ko'pchilik olimlar ta'lim ob'ekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar. Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi - o'quv materiali, o'quvchi - boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat — ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar etakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'ekti sifatida qaraydi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limini jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;

2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar.

Didaktika uchun "umumiy va alohida", "mohiyati va hodisa", "qarama-qarshilik", "bog'liqlik" kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida "tizim", "tuzilma", "vazifa", "element" kabilar

alohida o‘rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) ta’lim - o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;

2) dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli;

3) bilim olish – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

5) o‘quv fani – ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘zida muayyan fan sohasi bo‘ycha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) ta’lim mazmuni – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘ycha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada “idrok etish”, “o‘zlashtirishi”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo‘lgan tushunchalar ham qo‘llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to‘ldirilib borilmoqda. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, ta’lim jarayoni, ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta’lim natijasi. So‘nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta’limning didaktik tizimi va ta’lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) **bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui;

2) **bilim olish** – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining

mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) **ko'nikma** – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi;

4) **malaka** – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

5) **ta'lim** – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

6) **ta'lim metodlari** – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

7) **ta'lim mazmuni** – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) **ta'lim vositalari** – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) **ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) **ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) **ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi)** – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya;

12) **ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)** – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) **ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

14) **ta'lim tizimi** – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

O'quvchilarning akademik saloyihatini o'stirishga bo'lgan say-harakatlar va maktab ta'lim standardi ko'pgina maktablarda o'quvchilarning bilim darajasi va o'rganish tajribalarini oshirgan.

O'rnatilgan qat'iy ta'lim dasturlariga qaramay o'qituvchilar har-bir o'quvchining o'zlashtirish imkoniyatini o'rganib borishi kerak.

Barcha mashhur kashfiyotchilar turli hil kashfiyotlar qilsada, dunyoni o'zgartirib yuborishmagan, balki o'zlarining o'ziga hos yo'llarini tanlab olishgan va shunga qarab harakat qilishgan. O'qituvchi talabalarga hayotda o'z yo'llarini tanlab olishlariga turtki bo'lishi kerak va har bir o'quvchi shaxsiga mos kela oladiga mashg'ulot o'ylab topishi kerak, toki dars davomida o'quvchi o'z shaxsini bir individual deb anglab yetsin.³

4. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli)lari.

Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An'anaviy – konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Rasionalistik (bixevioristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

³ Jeff Halstead . Navigating the new pedagogy. R and Education, 2011.140-b.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma muayyan ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;
- ta'limning samarali tizimi;
- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalardan mavjud:

Nazorat uchun savollar:

1. Didaktika" tushunchasini ta'riflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va ob'ekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. Didaktik konsepsiyalardan qaysilari bilan tanishsiz?
6. Rivojlantiruvchi konsepsiyaning mohiyati nimadan iborat?
7. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy tamoyillari qaysilar?
8. Muammoli ta'limning mohiyati nimadan iborat?
9. "Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari" tushunchasini siz qanday tushunasiz?
10. Zamonaviy didaktik tizimning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
11. Pedagogik paradigma nima? Ta'limning asosiy paradigmalarni aytib bering.

3 - amaliy ish

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunining mohiyati

Maqsad: Ta'lim to'g'risidagi qonunning asl maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har bir kishining bilim olish mumkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash, ta'lim tizimi, ta'lim tarmoqlari haqidagi tushunchalarni tahlil qilish.

Reja:

1. Bilim olish huquqining mohiyati.

2. Ta'lim tizimi va turlariga oid masalalar tahlili.
3. Ta'lim tizimini boshqarish.
4. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomini izohlang.

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar:

1-topshiriq:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni me'yoriy hujjatlarini aks ettiruvchi ko'rgazmali qurol (plakat) tayyorlang.
2. Ta'lim turlarini ta'riflovchi tarqatma materiallar tayyorlang.
3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini sharhlang.

2-topshiriq:

Quyidagi test savollaridan to'g'risini toping:

1. Ta'lim mazmuni deganda nimani tushunasiz?

- A. Davlat ta'lim standarti
- B. O'quv rejasi va dasturlar, darsliklar
- C. O'quv qo'llanma va tavsiyanomalar
- D. Yuqoridagilarning barchasi

2. Ta'lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?

- A. Ta'limning maqsad, vazifalari, natijasi, nazorat va baholash uslublari
- B. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi
- C. Ta'lim metodlari, shakllari, vositalari va mazmuni
- D. Yuqoridagilarning barchasi

3. Pedagogika

fanining tarkibiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?

- A. Maktabgacha yoshdagi pedagogika va maktab pedagogikasi
- B. Katta yoshdagilar pedagogikasi, kasbiy va ijtimoiy pedagogika
- C. Defektologiya
(surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika),
innovation pedagogika
- D. Yuqoridagilarning barchasi

4. O'zbekistonda uzliksiz ta'lim tizimi deganda nimani tushunasiz?

- A. Maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta ta'lim, o'rtamaxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim
- B. Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus,
kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya

C. Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus,

kasb-hunar

ta'limi, oliy ta'lim, o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya

D. Maktabgacha ta'lim-tarbiya, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi, oliy ta'lim,

oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va

qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kadrlarning malaka oshirish va ularni

qayta tayyorlash, oiladagi ta'lim, mustaqil ta'lim

5. Optimallashtirish deganda nimani tushunasiz?

A. Ta'limda fanlararo o'qitish nazariyasi

B. Ta'lim berib, o'qitish nazariyasi

C. Muammoli o'qitish

D. Ko'p sonli imkoniyatlardan eng qulayini tanlab olish

6. Ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?

A. Tushuntirish (muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda tadqiqot)

B. Og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat

C. Ta'limda qiziqishni rag'batlantirish

D. Yuqoridagilarning barchasi

7. «Didaktika» termini yunoncha

«didaktikos» degan so'zdan olingan bo'lib,

qanday ma'noda tarjima qilinadi?

A. O'qituvchi

B. Ta'lim berish va o'qitish

C. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi

D. Ta'lim oluvchi

8. «Buyuk didaktika» asarini kim yozgan?

A. Suqrot B. Arastu C. Ya.A.Komenskiy D. J.J.Russo

9. O'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitishning tamoyillari, ta'lim

mazmuni, ta'lim metodlari, o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari

pedagogikaning qaysi bo'limiga tegishli?

A. Tarbiya nazariyasi


B. Didaktika

- C. O‘qitish vazifalari
- D. Hamina javob to‘g‘ri

3-topshiriq. Ilmiy tadqiqot metodlari bo‘yicha “Tushunchalar tahlili”

№	Metodlar	Ta’rif
1	Kuzatish metodi	
2	Suhbat metodi	
3	Bolalar ijodini o‘rganish	
4	Test, so‘rovnoma metodi	
5	Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi	
6	Eksperiment tajriba sinov metodi	
7	Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish metodi	
8	Matematika va kibernetika metodi	

4-topshiriq. Quyidagi chizmaga e’tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



5-topshiriq. Kichik guruhlarga mo'ljallangan topshiriq

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati va uning me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishini o'rganish va tahlil etish.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari.

Kichik guruhlarga bo'lingan holda yuqoridagi masalalar guruh ishtirokchilari tomonidan taqdimot asosida yoritib beriladi.

6-topshiriq. "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari" mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi

Quyida keltirilgan jumlar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning kerakli ustuniga yozib qo'ying va asoslab bering.

1. Beshta bo'lim, o'ttiz to'rt moddadan iborat. –
2. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi. –
3. Shaxs.
4. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.
5. Fan.
6. Ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.
7. Bilim olish huquqi.
8. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.
9. Ishlab chiqarish.
10. Xalqaro hamkorlik.
11. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.
12. O'n bitta bob yetmish beshta moddan iborat.
13. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.
14. Uzluksiz ta'lim turlari.
- 15.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun	Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi	Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari

II BO‘LIM. TA’LIM TIZIMINI TASHKIL ETISH

4-mavzu: Ta’lim mazmuni. Ta’limning maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Ta’lim mazmuni. Ta’limning maqsad va vazifalari.

2. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

1. Ta’lim mazmuni. Ta’limning maqsad va vazifalari.

O‘quvchining o‘quv faoliyati bosqichma-bosqich, izchil rivojlanish xarakteriga ega. Inson muayyan faoliyatda samaradorlikka erishish uchun zarur tajribaga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchining o‘quv faoliyati birinchi navbatda uning o‘ziga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nafaqat bilimlarni egallashlari, balki o‘zlashtirish usullarini ham bilishlari lozim.

O‘quvchilar o‘qish, yozish, hisoblash ko‘nikmalarini egallar ekanlar ular dastlab o‘zlarini o‘zgartirishlari zarur. Shundagina ular o‘zlarini o‘rab turgan madaniy muhitni o‘quv hamda aqliy harakatlar yordamida o‘zlashtiradilar. O‘quvchi o‘zining oldingi va hozirgi qiyofasini tahliliy faoliyati natijasida qiyoslaydi. O‘quvchilarning shaxsiy o‘zgarishlari ularning yutuqlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim mazmuni o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko‘lami tushiniladi.

Ta’lim mazmuni takomillashib boradi. Uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- 1) fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 2) ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta’limning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 5) axborotlarning hajmi va ko‘lami;
- 6) o‘quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta’lim mazmunini

modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda.

Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Ta'limga ikki tomonlam aaloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi roli o'quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rinadi.

Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, Ta'lim va ta'lim jarayoni (didaktik jarayon) sinonim tushunchalar emas. Jarayon bu yaxlit pedagogik hodisa, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimining muayyan holatini o'zgartirish hisoblanadi.

Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv.

O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operatsiyalari) sanalib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi

So'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydani moqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. Kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'limdan farqli ravishda «umumta'limiy kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

O'quvchi uchun kompetensiya – olingan bilimlarning hayotda qo'llay olish ko'nikmasi. Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'limiy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Hozirgi kunda pedagogikada kompetentlik atamasi keng qo'llanilmoqda.

Kompetentlilik (lotincha “competens” – “layoqatli”) deganda shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi tushuniladi.

Bunday ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Shartli ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalarni belgilash mumkin: kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Respublikamizda ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, kasb-hunar ta'limda o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya

- Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta horijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

- O'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

- Ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

- Muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

- Turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio va boshq.)

- media vositalaridan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

- ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish.

3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi

- Shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

- Hayot davomida o'qib o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

- O'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

- O‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

4. **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.**

- Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

- O‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);

- Mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqlarni bilishi, unga rioya qilish;

- Mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;

- Kasbiy mavqeyening o‘shiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

5. **Umummadaniy kompetensiyalar.**

- Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

- Badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish; orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy meyyorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;

- Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

- O‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarni hurmat qilish;

- Xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-ahloq qoidalariga rioya qilish.

2. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

- Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

- Shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;

- Kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;

- Inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Ta’lim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta’lim mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

Ta’lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta’lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o‘quv jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko‘zda tutadi. Bu umumiy o‘rta ta’lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o‘zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog‘liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta’lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv materiali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi komponentlarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun insonparvar g‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro munosabatlari tamoyilining o‘zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo‘nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta’limni insonparvarlashtirishdagi to‘siqlarni yo‘qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o‘rnatish va fanlararo aloqalarni o‘quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim mazmunini o‘sib boruvchi yo‘nalishda rejalashtirishdan iborat bo‘lishini

anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi.

Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

ta'lim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish; ta'lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi; ta'lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi; ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi; ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

O'quvchilarning o'quv faoliyati o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. O'quvchining o'quv faoliyati tarkibidagi har bir component ikkinchisi bilan o'zaro chambarchas bog'langandir. Jumladan

- 1) o'quv topshirig'i – bu o'quvchi nimani o'zlashtirishi kerakli hamda uni egallash usullarini o'z ichiga oladi;
- 2) o'quv harakatlari – bu o'quvchi nima qilishi kerakligi, o'zlashtirilgan harakat namunasini shakllantirishi hamda ushbu namunani ifodalashi lozimligini ko'rsatadi;
- 3) nazorat harakatlari – bu jarayonda o'quvchi namunadagisi bilan o'zi o'zlashtirgan harakatlarni qiyoslaydi;
- 4) baholash harakatlari – o'quvchi erishgan natijalarni aniqlash, undagi o'zgarishlar darajasi namoyon bo'ladi.

Oquv faoliyatining mazkur tarkibi uning to'laqonli shakli hisoblanadi. O'quv faoliyatining bunday tarkibi bosqichma-bosqich shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida esa o'quv faoliyatining bunday tarkibini shakllantirish uzoq davom etadigan didaktik jarayonda amalga oshadi, ba'zi hollarda o'quvchilar o'z yutuqlarini aniq va to'g'ri baholashga intiladilar. Buning uchun u topshiriqlarni tushunishi va o'z

yutuqlarini tekshirish va baholash usullarini bilishi lozim. Bularning barchasi o'qituvchining o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini qanday tashkil etishga bog'liq. Shuningdek, o'zlashtiriladigan o'quv materiallarining aniq mazmuni va o'quvchining o'ziga xosligiga ham bog'liq. Masalan, o'quvchini matnlarni o'qishga o'rgatishda so'zlarni o'qishning asosiy usullarini o'rgatish talab etiladi.

Harflar va so'zlarni yozishga o'rgatishda nazorat qilish usullarini o'rgatishga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich ta'lim mazmuni tarkibidan o'rin olgan o'quv fanlarini o'zlashtirishda o'quv faoliyatining turli komponentlaridan foydalanish zaruriyati vujudga keladi. Barcha o'quv fanlari birgalikda o'quvchilarga o'quv faoliyati tarkibiy qismlarini o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar esa muayyan izchillikda ruhiy jihatdan o'quv faoliyatiga tayyor bo'lib boradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarininig bilimlari o'wuv jarayonida bilishning ikki yo'nalishini muvofiqlashtirish orqali amalga oshadi: 1) bilimlarni bevosita idrok etish yo'li bilan; 2) muayyan buyumlar, voqea-hodisalarni bevosita so'zlar yordamida tasvirlash yo'li bilan.

Bunday tasvirlar darslikda o'z ifodasini topishi yoki o'qituvchi tomonidan taqdim etilishi mumkin. Darsdan-darsga o'quvchining bilimlari takomillashib boradi. O'quv jarayonining dastlabki bosqichidan boshlab o'quvchilar olingan ma'lumotlarga alohida qiziqish bilan qarashlarini ta'minlashga intiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati mazmuniga nisbatan qiziqishning shkallanishi, bilimlarni o'zlashtirish mayllarininig hosil bo'lishi ularda o'z yutuqlaridan qoniqish hissining hosil bo'lishi bilan bog'liq.

O'qituvchi o'quvchilarga har bir xatti-harakatning mohiyatini tushuntirib bera olishi kerak. Birinchidan, ta'lim-tarbiyaning maqsadi – ongli intizom, ikkinchidan esa, o'quvchilarga yaxshi-yomonni naglatishdan iborat.

Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar.

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari uning tarkibiy qismiga kiradi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda

tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari quyidagilardan tashkil topadi: bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

O'quv-metodik majmua - darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanmadan iborat majmua.

Darslik - davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Mashq daftari - darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma - darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy

masg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

1. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Metod, usul va texnologiya. Ta'lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin. Ko'pchilik mualliflar ta'lim metodini o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

Shu qoidani boshlang'ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil ko'rib chiqish va uning ilmiy ta'rifiga kelishga harakat qilamiz.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Metodika - qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. "Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.

"Metodika" va "texnologiya" tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?", "Nimaga o'rgatish?" kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, "Qanday tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savolni markazga qo'yadi. Metodika o'quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e'tiborni qaratadi.

Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni. Hikoya - o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga

xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat - faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbattarzida tashkil etiladi.

Tushuntirish o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza - yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliliigi. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari - chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyektivi yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

Amaliy metod - o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar - maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.


Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ta'lim metodlari deb nimaga aytiladi?
2. «Ta'lim usuli», «pedagogik texnologiya», «metodika» tushunchalariga izoh bering.
3. Ta'lim metodlari tasnifini izohlang.
4. Ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini bayon eting.
5. Ta'lim vositalari deganda nima tushuniladi?
6. Ta'lim vositalari tasnifini izohlang.
7. Ta'limning texnik vositalariga nimalar kiradi?

4-amaliy ish Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.



Mavzu bo'yicha slaydlar

Shaxs deganda ong egasi bo'lgan, o'z hatti-harakatlariga javob beradigan, muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi

Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv - funksional faoliyatining kamol topishi, aql- zakovatining shakllanishiga aytiladi.

.Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:

- biologik omil;
- ijtimoiy muhit;
- ta'lim – tarbiya;
- shaxsning faolligi

Mustahkamlash uchun savollar

1. Shaxs deb kimga aytiladi?
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanang.
3. Rivojlanish nima?
4. Shaxning shakllanishida biologik omilning ta'sirini aytib bering.
5. Shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning qahday o'rni bor?
6. Muhit qanday turlarga bo'linadi?
7. Shaxsning kamolotga yetishida ta'lim-tarbiyaning o'rini aytib bering.
8. Shaxsning shakllanishida shaxsiy faollikning o'rni qanday?

FSMU TEXNOLOGIYASI

F- fikringizni bayon eting	Tarbiya biz uchum yo hayot -yo mamot,yo najot-yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir.
S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M- ko'rsatilgan sababga biror misol keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

“Tushunchalar tahlili”

Tushuncha nomi	Tushuncha mazmuni
Shaxs	
Rivojlanish	
Irsiyat	
Ta’lim	
Tarbiya	
Faoliyat	

1-topshiriq. Muhokama uchun savol: Shaxsni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarga 100% ballni qanday taqsimlaysiz va nima uchun? Javobingizni dalillar asosida isbotlang.

Biologik omil (Irsiyat)	Iltimoiy omil (Muhit)	Tarbiya

2-topshiriq. Tugallanmagan gaplar metodikasi

Quyida keltirilgan jummalarni o‘qing va jumlagam mos keladigan bir so‘z bilan ifodalanadigan javobni toping.

1) o‘zi istamagan holda birovga yomonlik qilib qo‘ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi – ...

2) individlar ichida bir tur – ...

3) jamiyatda o‘z o‘rniga ega, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad yo‘lida bir yoki bir nechta kishini o‘z orqasidan ergashtira oladi – ...

3-topshiriq. “Tushunchalar ierarxiyasi” metodikasi

Quyida keltirilgan atamalar ierarxiyasiga e’tibor qarating va ularning joylashish tartibiga o‘z munosabatingizni bildiring. Har bir atamaga izoh bering.

- 1) o‘shish;
- 2) rivojlanish;
- 3) shakllanish;

- 4) tarbiya;
- 5) o‘z-o‘zini tarbiyalash;
- 6) o‘z-o‘zini takomillashtirish.

4-topshiriq. Shaxsning rivojlanishiga doir yondashuvlar

Quyidagi fikrlar bilan tanishing, ularda shaxs rivoji masalasi qaysi nuqtai nazardan o‘rganilayotganligini tushuntiring.

1) inson tabiiy mavjudot bo‘lib, uning butun xatti-harakatlari tug‘ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo‘ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi;

2) inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta’siri ostida ijtimoiylashadi;

3) insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo‘nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi;

4) shaxs yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

5-topshiriq. “Shaxsni shakllantirishning yosh davrlari” mavzusidagi toifalash jadvali

Maktabgacha ta’lim yosh davri	Kichik maktab yoshi	O‘rta maktab yoshi (o‘smirlar)	Katta maktab yosh davri (o‘spirinlar)

5-mavzu. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar.

Reja:

- 1. Ta'lim vositalari va ularning vazifalari.**
- 2. Darslarda multimediali axborotlardan foydalanish samaradorligini aniqlash.**
- 3. Boshlang'ich sinflarda ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish**

1. Ta'lim vositalari va ularning vazifalari.

Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari - bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'yekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, axborot texnologiyalari tushuniladi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar)

foйда-lanilса, u holda o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ta‘limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta‘limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta‘limning faollikni nisbatan kam talab etadigan metodlari(o‘quvchilar eshitadi, ya‘ni hikoya, ma‘ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta‘limning ko‘rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta‘limning ko‘rgazmali vositalari pedagogning o‘zi tomonidan tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o‘lchov va mutanosiblikka e‘tibor berish kerak. Masalan, ko‘rgazmali vositalarning soni etarli bo‘lmasligi bilimlarning sifatiga ta‘sir ko‘rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanga engil-elpi qarashiga olib keladi. Murakkab mavzularni o‘rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Ta‘lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo‘lishi mumkin emas. Ta‘lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo‘llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi.

O‘qituvchining vazifasi - dars jarayonini faollishtirish uchun ta‘limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta‘lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub‘yektiga ko‘ra;
- faoliyat ob‘yektiga ko‘ra;
- o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra;
- o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra.

Faoliyat sub‘yekti bo‘yicha ta‘lim vositalari o‘rgatish va o‘rganishga bo‘linadi.

O‘rgatish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o‘qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo‘llaniladi.

O‘rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo‘llaniladi.

Didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo‘linadi. Birinchisiga ko‘ra, narsalar o‘qituvchi tomonidan ta‘limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo‘llanilса, ikkinchisi - bu o‘quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat

turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi.

Faoliyat ob'yektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

Ideal ta'lim vositalari - bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya - abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya - nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar - mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim-kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya - bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish)-haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) - radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish)- ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'limning texnik vositalari. TTV - bu o'zida o'quv- axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar

kiradi: o‘quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmlari; radioeshittirish; teleko‘rsatuvlar.

Ta’limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta’limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o‘quv jarayonining jadallashuvini ta’minlaydi;
- o‘quvchilarni idrok qilishga yo‘naltiradi;
- o‘quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o‘quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o‘quv ishiga nisbatan o‘quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta’minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni ta’minlaydi.

Tobora globallashtirishga yuz tutayotgan zamonda eng yuqori darajada rivojlangan kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilishning iloji yo‘q. Mediamadaniyat tushunchasida o‘qituvchining roli o‘zgarib, axborot makonida u yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajaruvchi asosiy ob’ekt hisoblanadi. Shunga muvofiq, o‘qituvchi zamonaviy bola bilan bir tilda muloqot qilishi uchun zamonaviy pedagogik metodlar va yangi ta’limiy axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilishi zarur.

Axborot jamiyat taraqqiyotining strategik resursiga aylanib borayotgan hozirgi davrda bilim nisbiy va ishonchsiz shaklga kelib qolmoqda. Chunki, axborot jamiyati doimiy yangilanishlarni talab qilayotgani bois, zamonaviy ta’lim – uzluksiz jarayon ekanligi yanada oydinlashib bormoqda.

Bunday vaziyatda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri bolaning dunyoqarashini kengaytirish, atrofidagi olam haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish, aqliy qobiliyatini faollashtirish, nutqini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi darkor.

Mamlakatimizda yangi axborot texnologiyalarini shiddatli rivojlanishi va amaliyotga tatbiq etilishi natijasida zamonaviy bola shaxsining rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Bugungi kunda an’anaviy “o‘qituvchi – o‘quvchi - darslik” sxemasiga yangi bo‘g‘in – kompyuter, maktab ta’limiga – kompyuter vositasida o‘qitish

tushunchalari kirib keldi⁴. **Ta'limni axborotlashtirishning asosiy shartlaridan biri maktabda fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanishdir. Boshlang'ich ta'limda esa bu ta'lim talablari va maqsadlarini modernizatsiyalashni talab etadi.**

Boshlang'ich sinfda ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishda, birinchi navbatda, o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga tayyorligi va keyinchalik mustaqil ta'lim olishlarida ular yordamida qo'lga kiritgan axborotlardan foydalanishga qodirligi nazarda tutiladi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilim berish amaliyotida turli xil maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi, birinchi navbatda o'quv-tarbiyaviy jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi juda muhimdir.

Darslarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'tish orqali ularni yanada qiziq va puxta tashkil qilinishiga hamda o'quvchilarning butun diqqat-e'tiborini aniq maqsadga qaratishga erishiladi. Endilikda darsga bir quchoq kitoblar, turli xil katta-kichik rasmlar, ovozli moslamalarni to'plab kirish shart emas, bularning hammasi tez fursatda tayyor bo'ladigan materiallar kichik kompakt disk yoki USB tashuvchisida jamlangan bo'ladi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari ta'lim jarayoni taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Mohir pedagog K.D.Ushinskiy **“Bola tabiati ko'rgazmalilikni talab etadi”**, - deya ta'kidlagan edi. Ayniqsa, 1-4-sinf o'quvchilari ko'rgazmali-obrazli tasavvurga muhtoj bo'ladi⁵. Shuning uchun ta'lim berishda imkon boricha ko'proq sifatli illyustrativ materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularga yangi bilim berish jarayonida nafaqat ko'z orqali ko'rish mumkin bo'lgan, balki eshitish, hissiyot, tasavvur qilishga yordam beradigan vositalardan keng foydalanish lozim. Demak, bunday vaziyatda kompyuter slaydlari va animatsiyalarning yorqin va jozibadorli bo'lishi qo'l keladi.

Boshlang'ich sinfda o'qitiladigan turli xil darslarda ham axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'limning tushuntirish - illyustratsiya turidan chinakam harakatga aylangan faol turiga

⁴ Вачкова С.Н. Использование информационных ресурсов на уроках. «Начальная школа». № 3 2010г.

⁵ Петрова Н.И. Проблема формирования ИКТ - компетентности педагогов в процессе информатизации начального образования. <http://conf.narod.ru/Petrova.htm>

osonlikcha o‘tiladi. Bunda bola o‘quv faoliyatining aktiv sub‘ektiga aylanib, bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtira boshlaydi.

Multimedia – bu ob‘ekt va jarayonlarni an‘anaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, animatsiya, ovoz yordamida namoyish qilishdir⁶.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirish;
- o‘zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta‘minlash;
- o‘z-o‘zini nazorat ko‘nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- o‘quvchilarni o‘quv material ustida mustaqil ish olib borishlarida o‘quv-metodik yordam ko‘rsatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda ham ta‘sirchan va emotsional bo‘ladi. Ular narsa va hodisalarni bevosita emotsional munosabatlar ta‘siri asosida qabul qiladilar. O‘quv ma‘lumotini qabul qilishda o‘quvchilarning qanchalik ko‘p his-tuyg‘ulari qatnashsa, shunchalik o‘zlashtirishi tezlashadi. Bu imkoniyatni multimediali ko‘rgazmali ta‘lim amalga oshiradi. Boshlang‘ich sinf darslarida interaktiv ta‘limdan foydalanish nafaqat ko‘rgazmalilik tamoyilini amalga oshirish, balki o‘quvchilarning ko‘proq faol, mustaqil va tashabbuskor bo‘lishlariga imkoniyat yaratadi. Interaktiv moslamalar oddiy sinf doskasini axborotlar namoyon bo‘luvchi lazerli ekranlarga o‘zgartirishni taqozo etadi. Bu esa bilim olishga qiziqishni oshirib, darslarni ko‘rgazmali, samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Multimediali axborotni ta‘lim jarayoniga tatbiq qilish orqali pedagog o‘quvchilar uchun quyidagi faoliyat shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- darsni multimedia vositasida tashkil etish, ya‘ni o‘qituvchining oldindan tayyorlab qo‘ygan bayonoti, yangi mavzuni tushuntirishdagi taqdimotlar, ertak yoki hikoyani hamohang so‘zlab berish;
- o‘quvchining muayyan mavzu bo‘yicha tayyorlagan nutqi, ya‘ni nutq so‘zlashga tayyorgarlik, axborot izlash orqali uy vazifasini bajarishi, matn ustida ishlashi, multimediali insho yozishi.

Bunday shaklda ishlarni tashkil etish bolaga individual yondashuvning yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

⁶ В. Волков. Современные мультимедии // Компьютер-ИНФО, 2011. С. 21-27.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv ko'nikmalarining shakllanishi quyidagi jarayonlarda sodir bo'ladi: o'yin, kompyuter bilan ishlash, ma'lumotlarni birgalikda izlash va tahlil qilish.

Mashg'ulotlarni qanday olib borish bo'yicha ushbu fikrlarni yodda tutish muhim:

1. Darslar o'qituvchining quruq monologi, an'anaviy tushuntirish va savollardan iborat bo'lishi kerak emas.

2. Dars doimo suhbat asosida yangi tushunchalarni muhokama qilish, ma'lumotlarni o'quvchilar bilan birgalikda izlash va tahlil qilishlar, ba'zida bahs yoki o'yin tarziga o'tuvchi mashg'ulotdir.

2. Darslarda multimediali axborotlardan foydalanish samaradorligini aniqlash.

1. *O'qish fani darslarida o'quvchilarning o'rganish faoliyatining faolligi.* Darsda berilgan savollar muhokamasida 15-20 % emas, balki 85% o'quvchi qatnashib, kompyuter sinflarida juftlikda ishlagan holda bir-birlari bilan topgan axborotlarini o'rtoqlashadilar va hamkorlikda tuzgan savollarini tayyorlaydilar hamda o'z fikr-mulohazalarini bimalol bildirishga cho'chimaydilar. Fikrlashga undovchi va amaliy o'quv-o'rganish jarayoni qanchalik faol tarzda olib borilsa, shunchalik fanlar bo'yicha natijalar mahsuldor bo'ladi.

2. *O'quvchilarning o'zlashtirishi va bilim sifatining tahlili.*

O'quvchilarning bilimi sifatining ijobiy dinamikasi kuzatiladi. 1-2-sinflarda o'zlashtirish 90%, bilim sifati oshib 100 %ni tashkil qiladi. O'rtacha baho 4,2 dan 4,8 ga oshadi.

O'quvni to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan dars shunisi bilan foydaliki, u bolani o'ylashga o'rgatadi. U o'quvchilarni tabiiy qiziqishi va e'tiborini qo'zg'ata olsagina, foyda keltiradi. Shuningdek, ularni mavzuga doir bahsga kirishishga majbur qiladi. Bunday dars nafaqat jonli va qiziqarli o'tadi, balki o'quvchilarni tafakkur yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa

ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim, malaka va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bevosita umumta'lim maktablarining moddiy-texnika va zamonaviy axborot texnologiyalari bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlarini yaratish, elektron kutubxonalar tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchilarga zamonaviy bilimlar sari keng yul ochish, ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari o'quvchilarni kelajakdagi o'zlarini qiziqish sohasiga, kasbiga va turli xil faoliyatiga tayyorlashga ko'mak beradi. Bundan tashqari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarda bilimdonlik, til o'rganish, huquqiy savodxonlik va madaniyatni shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirishda yangi yondashuvlarni qo'llash, yangi fikr va g'oyalarni ro'yobga chiqarish, yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning bandligini ta'minlash, axloqiy, aqliy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshirishda butunjahon Internet tarmog'idan kerakli ma'lumotlarni tanlash va ulardan maqsadli ravishda foydalanish muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Internetda o'quvchilarni qiziqtirgan barcha sohalar bo'yicha kerakli ma'lumotlarni olish mumkin.

Boshlang'ich sinflarning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni Internet va boshqa manbalardan olingan axborotlarga o'zining shaxsiy munosabatini bildirish, ularni mustaqil tahlil qilish, ularga xolis fikr bildirib borish bugungi kunda juda muhimdir. Zero, ta'lim jarayonida juda katta miqdordagi axborotlarni to'plash, o'zlashtirish, qayta ishlash, o'z o'rnida qo'llay olish va uzatish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun unda an'anaviy usullar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuterlardan foydalanish zaruriyati paydo bo'ladi. Shu jumladan, kompyuterdan foydalanib o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual yondashish hamda axborot texnologiyalari vositalari orqali juda ko'p miqdordagi ma'lumotlarni olish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim sohasida multimedia vositalaridan foydalanish va ular yordamida o'quvchilarga bilim berish multimedia texnologiyalarini ta'lim sohasining turli xil pedagogik faoliyatlarida qo'llanilishining asosiy jihatlarini ajratib beradi. O'quv jarayonida darslarni ko'rgazmali va tushunarli tarzda tashkil qilish uchun tartibli ravishda multimediali namoyish va slaydlarni ko'rsatish o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzularni chuqurroq va kengroq qabul qilish, ularni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini kengaytirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'z samarasini beradi. Chunki namoyishlar katta ekranda multimedia proektori yordamida ko'rsatilishi bilan birga ular, o'z navbatida, matnlar, tovushlar, chizmalar, harakatlar, tasvirlar va boshqa animatsion elementlar orqali to'ldirilgan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarni bilim doirasi va tasavvurini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari talabchan, intiluvchan, turli narsalarga qiziquvchan, televidenie, matbuot, kompyuter va axborot texnologiyalari orqali ko'proq va qiziqroq ma'lumotlarga ega bo'lishni istashadi. Shu bilan birga olingan ma'lumotlarni mazmun mohiyatini tushunishga va ularni har tomonlama tahlil va idrok qilish hamda mustaqil fikr bildirishga qiziqishadi. Buning uchun esa doimiy ravishda tashqi muhit bilan ulanish, axborotlar almashinuvini amalga oshirish uchun, eng avvalo, umumta'lim maktablaridagi kompyuterlar Internet tarmog'iga ulangan bo'lishi va o'zlarining web-saytlariga ega bo'lishlari lozim. Boshqacha aytganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-texnologiyalari orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy e'tibor, eng avvalo, o'qituvchiga va o'quvchiga zarur bo'lgan sharoitni yaratish va axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonlarida samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

3. Boshlang'ich sinflarda ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlari yangi turlarining paydo bo'lishidir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, idrok va tasavvur qilish faolligini saqlab qolish va o'quvchini bilim olish maqsadida ta'lim jarayoniga kirib borishi uchun yetarli va kerakli sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning ana shu barcha xususiyatlarini shakllantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining o'z o'rnini bor.

Hozirgi vaqtda yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish va ular yordamida o'quvchilarni har tomonlama bilimni oshirish, jamiyat uchun yetuk insonlar qilib tarbiyalash eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish, turli usul va yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim tizimigacha yoshlarga bilim berish, tarbiyalash, ularning ijtimoiy, huquqiy savodxonligi va madaniyatini shakllantirishda yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiyalash imkonini yaratadi. Internet texnologiyalarining kirib

kelishi o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish natijasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish va o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni multimedia texnologiyalari asosida o'qitish katta samara beradi. Buning uchun esa mashg'ulotlarning har bir mavzusi bo'yicha dars ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy materiallarning elektron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproektorlar orqali o'quvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Taqdimotda adabiyotlardagi rasmlarni, aniq jarayonlarni aks ettiruvchi tasvirlar, tarmoqdagi ma'lumotlardan katta elektron ekranda ko'rsatib tushunchalar berilsa, axborot ta'lim resurs portallaridan foydalanilsa, o'quvchilarning bilim va malakalari yanada shakllanadi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali, balki ovozli, animatsiyali bo'lishi o'quvchilar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kayfiyati, qiziqishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy va kasbiy ko'nikmalarini namoyon qiladi. Internet texnologiyalari vositalari yordamida tajriba almashish, o'qish, butun dunyoda ro'y berayotgan voqea va hodisalardan, yangiliklardan xabardor bo'lish, lozim bo'lib qolganda, ularga nisbatan o'z dunyoqarashi va fikrini bayon etish, o'z axborot-ta'lim muhitini kengaytirish, kasbiy rivojlanish va mustaqil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratish, jamiyat axborot resurslaridan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish, tarmoqning turli tadbirlarida ishtirok etish va hokazo imkoniyatlarni beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim vositalari haqida tushunchangizni bayon eting.
2. Ta'lim vositalari vazifalarini sanab bering

3. Ta'lim vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni haqida gapiring.

4. Ta'lim vositalarining o'quvchi bilimlarni o'zlashtirishidagi ahamiyati qanday?

5-amaliy ish

1. Ta'lim tizimi deb nimaga aytiladi?


- ✓ ijtimoiy,iqtisodiy rivojlanishda hosil bo'ladigan ta'lim- tarbiya muassasalari;
- ✓ ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi barcha turdagi,ta'lim – tarbiya muassasalarining tartibga solingan yig'indisi;
- ✓ ma'lum bir mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi,belgili qonun- qoidalar asosida tuzilgan ta'lim – tarbiya muassasalar majmui;
- ✓ oily o'quv yurtlari,bog'cha,maktab,maktabdan tashqari muassasalar,diniy maktablar yig'indisi.

“MOYCHECHAK” TEXNOLOGIYASI

Bu metodda moychechak markaziga muammo qo'yiladi. O'quvchilar muammoni yechimini ma'lum bir fikrlarni alohida - alohida keltirib ularni umumlashtirish asnosida hal qiladilar. Metod orqali talabalarda mustaqil fikrlash ortadi. Shuningdek mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini gul shaklida ifodalashga undaydi.

Usulni o'tkazish tartibi:

- O'quvchilar tayyor matnlar bilan tanishib, ularni o'rganib chiqadilar;
- so'ng har bir guruhga moychechak yaproqlari tarqatiladi;
- doskada tayyor moychechak g'unchalari rasmlari ilingan bo'ladi;
- matn asosida har bir guruh o'quvchilari moychechak yaproqlariga tegishli fikrlarni yozib boradilar;
- fikrlar yozilgan yaproqlar orqli har bir guruh o'z gulini o'stiradi, bunda fikrlar moychechak markazidagi muammoni qay darajada ochib berishini hisobga olinadi.



Savollar.

1. Ta'lim tizimi haqida tushuncha.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuniga ko'ra ta'lim tizimining qurilish prinsiplari.
3. O'zbekistonda ta'lim tizimi tuzilishining asosiy tarmoqlari va ularning ta'rifi.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuniga ko'ra umumiy o'rta, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limining asoslanishi.
5. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 21- moddasi nima haqida


4- Mavzu: Didaktikaning maqsad va vazifalari.



Mavzu yuzasidan savollar.

1. Ta'lim jarayonining ikki tamonlama xususiyati nimalardan iborat?
2. O'qituvchining bilishi nimalardan iborat?
3. O'quvchining bilishi nimalardan iborat?
4. Dunyoni bilish yo'llari.
5. In'ikos nazariyasi.

B/B/B JADVALI



“BBB” - texnologiyasi

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni istayman

6-mavzu: Ta'limni tashkil etish shakllari.

Reja:

1. Ta'limni tashkil etishning shakllari.
2. Dars - ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.

1. Ta'limni tashkil etishning shakllari.

Bola tarbiyasi, uni o'qishga qiziqtirish masalalari azaldan olimlar, pedagoglar, mutafakkirlar diqqat markazida bo'lgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlar, keyinchalik Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, XX asr boshlarida esa jadidchi-ma'rifatparvarlar kabi ko'plab yurtdoshlarimizning pedagogik merosida bolani kichikligidan tarbiyalash, qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab o'qitish, ta'lim-tarbiyada turli usullarni qo'llash g'oyalari ilgari suriladi. **“Har bir kishini uning borlig'i va qobiliyatiga ko'ra o'qitish kerak. Aks holda ta'lim-tarbiya ko'zlangan natijani bermaydi”** (Ibn Sino). **“Har kimki ilm-hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, xiyonat, makr-hiyaldan uzoq bo'lsin”** (Abu Nasr Forobiy).

Kichik maktab yoshi davomida bolalarning o'qishga munosabatida muayyan dinamika kuzatiladi. Dastlab ular o'qishga umumiy holda ijtimoiy faoliyat sifatida intilishadi. Keyin esa ularni o'quv ishining alohida usullari jalb etadi. Nihoyat, bola o'quv faoliyatining ichki mazmuniga qiziqib, o'quv-nazariy vazifalarni aniq-amaliy vazifalarga mustaqil o'zgartiradi.

O'quv jarayoni va o'quv fanlariga qiziqish o'quvchilarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur kabi ruhiy jarayonlariga bog'liq. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va harakat usullarining o'zgarishi, murakablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar, ya'ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar (o'qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabat), 2) faoliyatining psixologik tuzilish xususiyatlari (motiv, maqsad, obyekt) va 3) anglash mexanizmining rivojlanish darajasi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilar unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyati natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'layotganlarini his qiladi.

Buning natijasida bolaning oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi.

Kichik maktab yoshida, pedagogika fani nazariyotchilarining fikricha, bolaning ta'lim-tarbiya olishi, rivojlanishi va o'zini anglashida o'qituvchi muhim o'rin tutadi. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash istagini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va qoidalarga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa, o'z-o'zidan, oilasidagi munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

Ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularning amaliy ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to'plami, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning malum darajasi bilan belgilanadi. Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qisimlaridan biri bo'lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanaladi.

Ta'lim mazmuni deganda shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar to'plami, ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunadilar. Demak, shaxsga yo'naltirilgan yondashishga muvofiq

ta'lim mazmuni mohiyatini anjqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odanining o'zi hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsning ta'lim olish, ma'naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishi ta'lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.

Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari - Muahammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga inatematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar. Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradilar, sxolastik o'qitish va qat'iy intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o'qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg'otishi kerak.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yohud axloq» nomli asarida «... bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir. Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi» deb yozadi.

Maktab ta'limi mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta'lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda iamivat. fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili.

2. Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili.

3. Ta'lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili.

5. Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi.

6. Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili.

7. Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili.

8. Ta'lim mazmunining o'quvchilar yoshlari imkonivatlariga mosligi tamoyili.

Bu tamoyillar olimi To'xtaxodjayeveaning pedagogikaga oid adabiyotlarida keltirib o'tilgan.

Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ta'limni tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliv-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topgan:

- ta'limning izchilligi, tizimlilik, ketma-ketligi;
- ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta'limda k o'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarlilik;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oq ilon a talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

2. Dars - ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, olingan bilimlarni hayotda qo'llashlari uchun layoqatga egalik ko'nikmalari shakllantiriladi, hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur o'quvchilariga ko'ra zamonaviy dars o'quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat'i nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim: ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi, tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo'nalishiga egaligi, tizimlilik, bilimlarni

ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi, amaliy axa-miyatga egaligi va h.k.⁷

Darsning turlari. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.
- Interfaol darslar.
- Loyihali darslar va boshq.

Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi maqsadlarga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, kompetensiyalarni shakllantirish. Darsga qo'yiladigan talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari,

⁷<https://en.wikipedia.org/wiki/Lesson>

qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

O'quvchilarda tarkib topishi lozim bo'lgan kompetensiyalar dars mavzusidan kelib chiqib zarur elementlari shakllantiriladi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to'rtta bosqich ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish. Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi. Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish. Loyihalashtirish va rejalashtirish o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari. Ta'limning noan'anaviy yordamchi shakllari: to'garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va

qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi..

Ta’limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo‘yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun o‘qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob’ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to‘la rejani ishlab chiqishi, o‘quvchilarni bo‘lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O‘quv rejasi turli fakultativ va tanlov bo‘yicha kurslarni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Ular o‘quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog‘liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro‘yxatini aniqlashda faqat o‘quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo‘yicha mashg‘ulotlar majburiy va umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tkazilishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Hozirgi vaqtda ta’limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
2. Ta’limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Ma’ruza-seminar tizimining o‘ziga xosligini izohlang.
5. Dars deb nimaga aytiladi?
6. Darsning qanday turlari mavjud?
7. Darsga qo‘yiladigan talablarni tushuntirib bering.
8. O‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rishi qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
9. Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllariga nimalar kiradi?

6-amaliy ish

1-topshiriq. Ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida doir tushunchalar tahlili metodini bajarish

TUSHUNCHALAR TAHLILI			
Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlari	Mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o‘rni	Qo‘shimcha fikrlar
Maqsad			

Ta'lim			
Bilim			
Malaka			
Ko'nikma			
Ta'lim jarayoni			
Mazmun			
O'quvchi faoliyati			
Tashkil etish			
Shakl			
Metod			
Vosita			
Natija			

2-topshiriq. Ta'lim jarayoni tushunchalarini o'zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish testi.

-O'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.	Qonuniyat
-Qonunlarning aniq sharoitlaridagi harakat ifodasidir	Tamoyil
-Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik	Qonun
-Ta'limiy hodisalarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi bilan shartlanadigan ichki mavjud aloqalar tushuniladi	Didaktik tamoyillar.
-Ta'limiy hodisalarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi bilan shartlanadigan ichki mavjud aloqalar tushuniladi	Qoida
-Biror- bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashirilgan talab	Ta'lim qonuniyatlari
-Ta'lim tamoyillarini amalga oshirish texnologiyasi	

3-topshiriq. Ta'limning qonuniyatlarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar.

1) Ta'limning umumiy qonuniyatlariga doir topshiriqlar.

1.1. Quyidagilar orasidan ta'lim maqsadini belgilovchi qonuniyatlarni aniqlang.

1) jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; 2) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; 3) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 4) jamiyatning talablari va imkoniyatlari; 5) o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari; 6) pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari

1.2. Quyidagi qonuniyatlarni ta'lim jarayonining qaysi tarkibiy qismiga tegishli deb hisoblaysiz?

1) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; 2) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; 4) o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

1.3. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagi qaysi qonuniyatlarni hisobga olish bilan bog'liq?

1) ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiyaga; 2) ta'limning ichki rag'batlariga; 3) ta'lim maqsadiga; 4) o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; 5) ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga.

1.4. Quyidagi qonuniyatlaridan qaysilari ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi?

1) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 2) ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi; 3) ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; 4) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar.

1.5. Ta'lim mazmunin ibelgilashda qaysi qonununiyatlarga amal qilish lozim?

1) ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; 2) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; 4) o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari; 4) ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiya; 5) ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi.

2) Ta'limning xususiy qonuniyatlariga doir topshiriq.

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularni ta'limning qaysi xususiy (tashkiliy, sosiologik, psixologik, kibernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

I. Ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va

ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

II. Ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq.

III. Ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq.

IV. Individning rivojlanishi ubevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan indvidlarning rivojlanishiga; ta'lim samaradorligi "intellektual muhit"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq.

V. Ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

4-topshiriq. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar

Quyida keltirilgan ta'limning tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko'ra ikki tur (mazmunli va tashkiliy-metodik)ga ajrating.

1. Insonparvarlik.
2. Tabiat bilan uyg'unlik.
3. Ko'rgazmalilik.
4. Onglilik, faollik, ijodiylik.
5. Madaniyat bilan uyg'unlik.
6. Tushunarlilik.
7. Ilmiylik.
8. Ta'limning amaliyot bilan uyg'unligi.
9. Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik.
10. Tarbiyalovchi ta'lim.
11. O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

12. Oqilona talabchanlik bilan ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

<i>Ta'limning mazmunli tamoyillari</i>	<i>Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari</i>

7-mavzu: Ta'limni tashxislash.

Reja:

- 1. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi.**
- 2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari.**
- 3. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.**
- 4. Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.**
- 5. Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari.**

1. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirish, o'qish, tinglash, mantiqiy izchillikda fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda yozma va og'zaki muloqot madaniyatini tarkib toptirishdan iborat.

O'qituvchining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchilarning qobiliyatlari, iqtidorlari, qiziqishlari bilan birgalikda bilim darajalarni aniqlab, ularni intellectual rivojlantirib boorish eng muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni umumta'lim fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning bilimlarini adolatli va xolis baholash orqali sog'lom raqobat muhitining shakllantirilishiga bog'liq. Mazkur jarayon esa ta'lim sifatini baholash orqali amalga oshiriladi

Dunyoning rivojlangan davlatlari asosiy e'tiborni ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini qiyosiy taqqoslash, o'quvchilar bilimining rivojlanish dinamikasi hamda ta'lim sifatini muntazam tahlil qilib borishga qaratishmoqda. Shu bilan birgalikda, ta'lim sifati monitoringini

amalga oshirish bo'yicha xalqaro baholash tadqiqotlari ham takomillashib bormoqda.

Mazkur tadqiqotlarga matematika va tabiiy fanlar sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot TIMSS (Third International Mathematics Science Study) yoki 15 yoshli bolalarning hayotiy ko'nikmalarini egallaganligini o'rganishga qaratilgan PISA (Programme for International Student Assessment) va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga yangi islohotlarni kiritish, ta'lim-tarbiya sifati va o'qitish samaradorligini oshirish bilan birgalikda ta'lim sifatini baholash, monitoring mexanizmini takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda asosiy e'tibor o'quv-tarbiya jarayonining natijasi sifatida o'quvchilarda jamiyat, shaxs va zamon talablaridan kelib chiqqan holda zarur bilimlar, hayotiy ko'nikmalarni shakllanganligini o'rganishga yo'naltirilgan.

Ta'lim sifatini baholashni bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta mexanizm asosida amalga oshiriladi. Birinchi mexanizm o'quvchilar bilimini sinf va maktab miqyosida baholash.

1-sinf o'quvchilarining bilimlari o'quv yilining birinchi yarmida baholanmaydi. Bu davrda faqatgina rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi. Baholashning 3 ta bir-biriga bog'liq bo'lgan funksiyasi shu yerda aks etadi. Baholashning birinchi funksiyasi kuzatish va o'rganishdan iborat. Ya'ni har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalarining rivojlanish dinamikasi o'rganiladi. Baholashning ikkinchi funksiyasi tahlil qilish, atqqoslashdan iborat. O'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasi tahlil qilinadi hamda Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablari bilan taqqoslanadi. Baholashning uchinchi funksiyasi o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish ishlari amalga oshirishdan iborat. Yuqoridagi uchta baholashning bosqichlari amalga oshirilsa, sinf va maktab miqyosida boshlang'ich va yuqori sinflarda ta'lim sifati oshadi.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

2.Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari.

Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi birinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bo'g'ini *har* bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo'g'ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bo'g'ini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni ham oladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va xokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan **nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

3. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. Xolislik (obyektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona

munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko‘rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo‘yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o‘tkazgan o‘qituvchidan qat’iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida - bilimlarni boshlang‘ich idrok etishdan to amalda qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta’lim oluvchilar o‘quv muassasida bo‘lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta’lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo‘lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta’lim nazoratini tez-tez o‘tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o‘tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o‘zaro bog‘liqlikda va birlikda qo‘llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo‘l qo‘ymaydi.

Ko‘rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta’lim oluvchilar-ni aynan bir xil mezonlar bo‘yicha ochiq sinovdan o‘tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o‘quvchi reytingi ko‘rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e’lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo‘ljali (orientir) bo‘lib, ta’lim oluvchilar unga muvofiq o‘zlariga qo‘yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e’lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilishning qo‘yidagi *turlaridan* foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning har bir o‘quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o‘rganilgan mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini tekshirishni o‘z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo‘yicha kundalik ballar qo‘yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o‘qituvchini har bir o‘quvchining o‘quv faoliyati bo‘yicha tezkor ma’lumotlar bilan ta’minlaydi, o‘qitish

jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat - bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat - choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **beshtakli** mavjud:

nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik

mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliytop shiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

4. Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.

Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning

o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

4. Bilim, ko'nikma, malakalarni va kompetensiyalarini baholash mezonlari. O' quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» **baho** qo'yiladi, agar: a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» **baho** qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

«3» **baho** yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» **baho** qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

5. Ta'lim sifati monitoring. "Monitoring" atamasi ilk maratoba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokgolm konferensiyasini tashkil etish arafasida "nazorat" atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

"Monitoring - inglizcha atama bo'lib, "uzluksiz kuzatish" degan ma'nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil bo'lim sifatida qaraladi

hamda ta'lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sofati monitoring tizimi samarali yo'lga qo'yilgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat - ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat-jamoatchilik nazorati - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash - Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi

5. Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat- jamoatchilik nazorati; milliy va xalqaro darajada baholash.

O'qituvchilar yoki maktab ma'muriyati, o'quvchilarning o'zlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o'quvchilarning bilimlarini o'quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo'nalish o'ziga xos bir qator afzalliklarga ega bo'lib, baholash bevosita o'quvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq, bunda o'qituvchi turli uslublardan (masalan og'zaki so'rov o'tkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, o'quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo'yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o'quv choragi va o'quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o'qituvchilar, maktab monitoring guruhi o'quvchilarning o'zlashtirishi sifati, o'quv yutuqlariga asosiy me'yor bo'lgan davlat ta'lim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy o'qitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, o'quvchilar bilimidagi

bo'shliqlar va ularning kelib chiqish omillarini aniqlanadi, boshqa maktablar hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta'lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida monitoring - yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Baholashning keyingi uchinchi turi - davlat attestatsiyasi va ta'lim muassasalarining akkreditatsiyasi hisoblanadi. Ular davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi. Ularda qatnashish huquqiga muayyan talablarga javob beradigan barcha o'quvchilar ega. Mazkur baholash muayyan ta'lim bosqichi yoki turi tugaganidan so'ng amalga oshiriladi. Ularning asosiy va ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta'lim muassasalarining davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarini bajarish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Umummilliy baholash - barcha o'quvchilarni yoki ma'lum bir guruhdagi o'quvchilarni tanlab olish yo'li bilan muntazam ravishda o'quvchilar o'quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligi baholash hisoblanadi. Mazkur turdagi baholash o'quv dasturlari asosida olinib, imtixonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingan o'quvchilarning bilim va malakasi darajasi emas, balki tizimning ishlash natijalari o'lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasining "rentgen surati" sifatida foydalaniladi va milliy standartlarning ko'p muddatda monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo'li bilan o'tkazilgan umummilliy baholash qisqa muddatlarda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o'tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari ma'lum o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar o'quv yutuqlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin.

Xalqaro baholashni yaqin 15-20 yilda tashkil etish yo'lga qo'yilib, ularda bir necha mamlakatlar o'quvchilarining o'quv yutuqlari tanlov yo'li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingan muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir necha o'quv fanlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o'tkazib

kelinayotgan - TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study - Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o'rganishdagi tendensiyalari)ni keltirish mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (11- va 12-sinf o'quvchilari) qamrab olingan. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o'quvchilari qatnashganlar.

Yana bir xalqaro o'quvchilar ta'limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi - PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000 yilda o'tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o'quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e'tibor o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan **bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot - PIRLS da turli mamlakatlar boshlang'ich maktablari bitiruvchilarining matnni o'qish va uni tushunish darajasi baholanadi.**

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi - o'quvchilar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslash bo'lib, uning natijalariga ko'ra ta'lim siyosati masalalari hamda o'quvchilar o'zlashtirishidagi tafovutlarni yaxshiroq anglab etishga qaratilgan xalqaro muloqot olib boriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashtirish jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislariga qo'yilgan talablarni kengayib borayotganligidan darak beradi.

Brunerning sinfxonaga daxldor asosiy bir munozarasi shuki, o'quvchining o'zlashtirishi ishonchsizdek tuyulsa, o'qituvchilar o'sha o'quvchining xulqidagi kamchiliklarni qidirish o'rniga o'zlarining shaxsiy tajriba uslubi va qarashlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Bundan tashqari ular o'quvchilarning qanday qilib tajriba olishi va o'zlashtirishi haqidagi o'zlarining o'rganuvchi sifatidagi tushuncha va qarashlarini taqdim etishlari kerak. Buning yo'lga qo'yishning yana bir yo'li – Blok va Villiam o'zlarining ta'lim olishni baholash qaydnomasida bahslashganidek o'quv mashg'ulotlarini ifodalashga izoh sifatida o'zlarining o'quvchilari bilan bo'lgan pedagogik jarayondan yig'ib olingan ma'lumotdan foydalanishda qo'shimcha ravishda o'qituvchilar

bunday ma'lumotdan o'zlarining shaxsiy o'qitish uslubini ifodalash va baholashda foydalanishi mumkin.

Aslini olganda ular Fieldingning shaxsiy tadqiqot pedagogikasini rivlantirish uchun o'quvchilar bilan birga tadqiqotchi va amaliyotchi sifatida ishlash nazariyasini amalga oshirishlari mumkin⁸

Ta'lim sifati monitoringini olib borishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarish dinamikasini tizimli kuzatish, ta'lim sifatiga ta'sir etgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizining faoliyatini baholab, rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni belgilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Didaktik tashxis deganda nima tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytiladi? Tekshirishning qanday bo'g'inlari mavjud?
6. Baholash deb nimaga aytiladi? Baho deb nimaga aytiladi?
7. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.
8. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
9. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.
10. Ta'lim sifati monitoring qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

7-amaliy ish

1-topshiriq. Ta'lim mazmuni va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni aniqlashtirishga doir blits-so'rov savollari

1. Ta'lim mazmuni deganda nima tushuniladi?
2. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarga nimalar kiradi?
3. Tayanch o'quv rejasi kim tomonidan tasdiqlanadi?
4. Namunaviy o'quv rejalari nima asosida tuziladi?

⁸Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr, 2012. 23-25 betlar.

5. O'quv rejaları nima asosida tuziladi?
6. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar qanday talablarga javob berishi kerak?
7. Darsliklar qanday vazifalarni bajaradi?
8. Darslikning motivatsion vazifasi nimalardan iborat ?
9. Darslikning axborot vazifasi nimalardan iborat?
10. Darslikning nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi nimalardan iborat?
11. Darslikning muvofiqlashtirish vazifasi nimalardan iborat?
12. Darslikning rivojlantiruvchi –tarbiyalovchi vazifasi nimalardan iborat?
13. Darslikning o'qitish vazifasi nimalardan iborat?

2-topshiriq. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalarni o'zlashtirishga

1. Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi-A.
Standartlashtirish
ning ustuvor o'rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o'z yo'llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko'zda tutadi.
2. O'quv dasturidagi soatlarga qo'shim-v.
Amaliylashtirish
chalar kiritish, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish.
3. bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar vaS.
Insonparvarlashtirish
mavzularni qo'shib o'qitish, fanlar sonini kamaytirish va ixchamlashtirish.
4. Egallanishi lozim bo'lgan bilim,D.
Tabaqalashtirish
ko'nikma va malakalarning minimal

darajasini aniq belgilash.

5. Nazariy bilimlarni puxta o'zlash-
Individuallashtirish
tirgan holda ularni amaliyotda faol
qo'llay olishga tayyorlash J.

6. O'quvchilarning alohida o'ziga xos-
Integrasiyalash
liklarini hisobga olgan holda
o'qitish mazmunini belgilash. Ye.

3-topshiriq. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlarni o'rganishga doir amaliy topshiriqlar

3.1-topshiriq. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tarmoq standartini quyidagi chizma asosida tahlil eting.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari TStlarining tuzilishi	Mazmuni
1. Qo'llanilish sohasi. 2. Me'yoriy hujjatlar. 3. Standartning maqsad va vazifalari 4. Ta'riflar 5. Kasbiy tavsifnoma 6. Kasb-hunar tayyorgarligining majburiy minumimi	

3.2-topshiriq. Quyidagi sxema asosida o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari o'quv rejasini tahlil eting.

1. O'quv jarayoni jadvali bo'yicha:

O'quv jarayonining tuzilishi	Haftalar soni
Nazariy va amaliy ta'lim	
Malakaviy amaliyotlar	
Bitiruv malakaviy ishi	

Joriy va davlat attestasiyalari	
Ta'tillar	
Jami:	

III BO'LIM. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA

8-mavzu: Tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati.

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.
2. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.

1. Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya va bola bir-biridan ajralmas hodisadir. Bolaning voyaga yetishida aynan ta'lim-tarbiya asosiy o'rinni egallaydi. Tarbiya pedagogik shart-sharoit, mazmun va uslublar asosida amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, davrlar o'zgarishi va zamonlar o'tishi bilan u sayqallanib, rivojlanib, o'zining boy tarixiga ega bo'lib boradi. Tarbiya – bu o'quvchini umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida har tomonlama rivojlangan shaxsni kamolga yetkazishga yo'naltiruvchi jarayondir. Har bir o'quvchi kamoloti uning tarbiyasi go'zalligi, jamiyatdagi tutgan munosib o'rni, erishgan muvaffaqiyati, hayotiy ko'nikmalari bilan belgilanadi.

Respublikamizda ta'lim sohasidagi islohotlar kelajagimiz bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi kelajak avlodning kim bo'lib yetishishi, ularning bilim saviyasi, madaniyati va tarbiyasiga bog'liq.

Har bir renessansning bosh g'oyasi tarbiya bo'lganidek, uchinchi renessansda ham tarbiya muhim rol o'ynaydi. Barkamol avlod tarbiyasi tarixdan bizgacha, bizning davrimizda ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Tarbiya sohasidagi islohotlarning eng muhim jihati shundaki, endilikda necha o'n yillar davomida yashab kelgan pand-nasihatlar

asosidagi tarbiyadan amaliy faoliyatga, chinakam ma'naviyat tarbiyasiga o'tildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan umumta'lim maktablariga joriy etilgan Tarbiya fani kelajak avlodni ajdodlarga munosib farzand bo'lib yetishishga, buyuk allomalar izdoshlari bo'lib kamol topishiga, vatan ravnaqi uchun bunyodkor avlod bo'lib tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Diniy ulamolarimizning ham jamoatchilikka ma'rifat, bag'rikenglik, odob va ahloq ilmlarini o'rgatishi maqsadga muvofiq. Shu sababli biz birinchi marta umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini joriy etdik. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy Guliston yohud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz "Tarbiya" fanining nazariy va metodolik asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur.⁹

Prezident Sh.Mirziyoyev yuqoridagi fikrlarni bildirar ekan tarbiya fani boshlang'ich ta'limdanoq zarur ekanligi, uning uzluksizligini ta'minlash muhim hodisa ekanligini bot-bot ta'kidlagan: "Ijtimoiy fanlar sohasida odob-ahloq qoidalarini va ma'naviyatning oddiy tushunchalari va sodda talablarini boshlang'ich sinflardan o'rgata boshlashi zarurligi ayni haqiqat."¹⁰

Shunday ekan tarbiya fanining boshlang'ich ta'limdanoq joriy etilishi, poydevorning yanada mustahkam bo'lishi, kelajak avlodning ajdodlar ruhi ila tarbiya topishi, vatanga sadoqat ruhida o'sishi va boshqa muhim vazifalarni ado etish bilan bog'liqdir.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy o'z asarlarida tarbiyaga, ahloqqa katta ahamiyat beradi. Bola tarbiyasida yashab turgan sharoit, atrof-muhit va kattalarning roli salmoqli ekanini ko'rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. U oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddur va aksincha, oilada tegishli, tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yishni ta'kidlaydi.

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar otanalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan holi bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul

Yangi O'zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021 y. 285-bet.

Yangi O'zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021 y..

qiladi, qayoqqa bukilsa egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat xalok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi."

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

➤ jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

➤ jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;

➤ Smadaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

➤ ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmi va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlar tomonidan yaratilgan nodir asarlar yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishiga undagan. Jumladan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Hikoyati dilpisand", "Odob as-solihin", "Tirkiy Guliston yohud axloq" singari asarlar.

Tarbiyaga e'tiborsizlik va uning oqibati haqida Abdulla Avloniy kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va

nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalalrdir", deb yozib qoldiradi¹¹.

To'g'rilik

Bir kampirning uyinda bir tup balx tuti bor edi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtda qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortiuq qilub, pul olub, butun avqotini tut sotub o'tkarur edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo'lub, ustun oxtarganda kampirning tuti to'g'ri keldi. Podshoh tutni ming oltunga sotub oldi. Bechora kampir boy xotun bo'lub qoldi. Bir kun tutni ko'rgali bordi. ko'rdiki, tuti Jannat kabi bir ayvon o'rtasinda turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

Ey tutim, to'g'rilig'ing qildi bizi davlatg'a yor,
Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor,
To'g'rilar jannatning ayvonindadur
O'g'rilar ranju alam konindadur.¹²

Aqli bola

Bir bola qo'shnining uyiga o'ralmish tabaqda taom olib borur edi. Bir kishi uchrab:

-Ey o'g'lum, tabaqda nima olub borursan?- dedi.

Aqli bola javob berib:

-Ey otajon, tabaq ichindagi narsani(ng) kishiga aytmq ko'rsatmoq mumkin bo'lsa edi. Usti o'ralmagan, ochiq bo'lur edi., - dedi.¹³

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat- hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'iq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-ahloqini qabul qiladilar", deydi.¹⁴

Alixonto'ra Sog'unuy tarbiya xususida shunday yozadi: "Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish buyon tursin, suhbat o'zi ham, suhbatdoshlarga o't

¹¹ Yangi O'zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021 y.

¹² Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma'naviyat. 2006 y.

¹³ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma'naviyat. 2006 y.

¹⁴ Yangi O'zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021 y.

bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi"¹⁵.

Xalqimizning orzu-intilishlari Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Ikkinchi uyg'onish davrining buyuk siymolarini uyg'otdi, ularning asarlari va faoliyatida o'z talqinini topgan odil podshoh adolatli jamiyat, komil inson g'oyalarida namoyon bo'ldi.¹⁶

Tarbiya mamlakat hayotida ustuvor vazifa sifatida kasb etadi. Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakatning kelajagi taraqqiy topmaydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish lozim. Buning uchun yosh avlod ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ma'naviy boyliklarni ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantirishda jamiyat samarali tarbiya tizimiga ega bo'lishi muhimligini bilamiz.

Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. E'tirof etib o'tish kerakki, biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning "Rob" ismi bilan bitta o'zakdan olingan ekan. Bu esa tarbiyachilar mas'uliyatini oshiradi. Tarbiya – faqat ta'sir emas, balki u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani. Agar murabbiy yoki ota-ona farzandiga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, tarbiyada oqsoqlik vujudga keladi. Rasuli akram sallolohu alayhi vassalam har bir tug'iladigan bolaning fitratda tug'ilishini, shuningdek har bir chaqaloq pokiza bo'lishini aytadilar.

Tarbiya bolaning otasi, onasini tanlashdan boshlanadi, chunki Rasuli akram alayhissalom aytganlar: munosib kelin yoki kuyov tanlanglarki, irq o'tuvchidir. Ya'ni ota onaning fe'li bolaga o'tadi, shuning uchun bola yaxshi tarbiyali bo'lishi uchun otasi tarbiyali bo'lishi kerak. Onasi nasl nasabli, pokiza, din diyonatli bo'lsa, otasi ham shunday bo'lsa, albatta bola nasl-nasabiga tortadi, undan qochib ketolmaydi. Munosib kelin va kuyov tanlanganidan keyin, ular farzandli bo'lib, ota bolaga halol luqma yedirsam, u hech qachon noqobil bo'lmaydi.

¹⁵ Yangi O'zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021 y.

¹⁶ Yangi O'zbekiston strategiyasi. Mirziyoyev Sh. Toshkent 2021 y.

Ota ona farzandini namozlarida qiladigan duolari bilan ulg'aytiradi. Ota-onaning duosi bilan bolaning taqdiri yaxshilanadi. Ota-onaning duoibad qilishi esa farzandning la'natga uchrashiga sabab bo'ladi. Ota-onalar farzandiga yomon duodan saqlanadilar. Shuning uchun farzand ota onasining eng yaxshi duosini olishga chaqiriladi.

Ta'limni tarbiyadan tarbiyani ta'limdan ayirib bo'lmaganidek, ta'lim shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda tarbiya ta'limning asosida turishi shart. Ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qalaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi – kelajagi porloq, vatan va el yurt xizmatida turadigan avlodlarni tarbiyalash bo'lar ekan, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o'qituvchisi o'zi ta'lim berayotgan o'quvchisiga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qalaversa jonkuyar tarbiyachi bo'lishi shart.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go'zal va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ustoz-muallimlarning sa'y-harakatiga ham bevosita bog'liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish shartlarini bilish ham muhimdir.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib, bolani ulug'laydi. Shu jumladan, ta'limni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo'rlab berilgan ta'lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan va adabdan boshlanadi.

Beruniy ijodiga nazar tashlasak, uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana», «al Qonuni al-Mas'udiy», «Giodeziya» va boshqa asarlarida axloqiy tarbiyaning muhimligini ta'kidlaydi. U axloqiylikni yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi deydi. Insonning yaxshi niyatga yetishida to'sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi. Insonning kamolotga yetishishida uch narsani muhim deb hisoblaydi. Irsiyat, muhit, tarbiya insonning jamiyatda tutgan o'rnini belgilab beruvchi muhim omillar ekanini ta'kidlaydi.

Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalashda, birga o‘qitilishi va tarbiyalanishni lozim degan xulosaga kelgan, shuningdek u yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Uning foydali tomonini quyidagicha ifodalagan: Agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqishi yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bolalar birga to‘planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do‘stlashadilar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Alisher Navoiy axloqni o‘z asarlarida muhim mezon deb hisoblaydi. U go‘zal xulqni atrofdagi odamlar orasida hurmat qozonish uchun vosita sifatida aytadi. «Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi, - deydi adib. - Adab, kichiklarni mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko‘zga ulug‘ ko‘rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug‘vor biladi. O‘ziga qarshi xalq tomonidan bo‘ladigan hurmatsizlik eshigini bog‘laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo‘liga soladi va odam mizojiga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo‘lgach, kattalarga allaqachon bo‘lishini ko‘rarsan. Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi, adab tarkidan do‘stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu do‘stlik ko‘zgisini yarqiratadi, ikki tomondan yorug‘lik yetkazadi. Tavozuli va adablilarga ta‘zim va hurmat yetadi va u urug‘ni ekan bu qimmatbaho hosilni to‘plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang‘ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o‘rnashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo‘lsa, adabi va tavozu evaziga ta‘zim paydo bo‘ladi».

2. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va ta‘lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni **o‘ziga xos xususiyatlarga** ega:

- ❖ maqsadga yo‘naltirilganligi;
- ❖ ko‘p qirrali jarayon;
- ❖ uzoq muddat davom etishi;
- ❖ uzluksizligi;

- ❖ yaxlitligi;
- ❖ variativligi;
- ❖ natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ❖ ikki tomonlamalilik;

Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi **qonuniyatlari** mavjud:

- + ijtimoiy muhitning ob‘ektiv va sub‘ektiv omillariga bog‘liqligi;
- + tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- + faoliyat va munosabatni e‘tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli azilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- + tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari amda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;
- + tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;
- + tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensivligi;
- + tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari - bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi **tamoyillar** asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

Tarbiya turlari haqida gap ketganda tarbiyaning bir necha sifatlarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Tarbiya aqliy, iqtisodiy,

fuqarolik, nafosat, mehnat, jismoniy, ahloqiy va boshqa bir qancha turlarga bo‘linadi.

Aqliy tarbiya bola uchun eng muhim tarbiya turlaridan biri hisoblanadi. Uning aqliy rivojlanishi, intellectual, ma‘nan boy ekanligi jamiyatda obro‘li kishilardan bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Aql - kishining o‘z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o‘z faoliyatida ma‘naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilish imkonini beruvchi ne‘matdir. Aql – bu insonning tafakkuridir. Insonning qanchalik tafakkuri boy bo‘lsa aqlining ham boy ekanligini ko‘rsatadi.

Aqliy tarbiya - tabiatan berilgan aqliy kuch. Aqliy tarbiya shaxs intellektual salohiyatini yuksaltirishning asosiy negizini iashkil etadi. Yuqoridagi ma‘lumotlarni e‘tiborga olib aqliy tarbiyaning maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin. Talabalar aqliy tarbiyasidan asosiy maqsad inson shaxsining ma‘naviy va intellektual salohiyati negizida ularning dunyoqarashini yuksaltirish, e‘tiqodini mustahkamlash va ezgulik hamda aqliy go‘zallik kabi ko‘nikmalarini shaxs sifatiga aylantirishdan iboratdir.

Iqtisodiy tarbiya - ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o‘rni, insonning tabiat ne‘matlariga ongli munosabatda bo‘lishi, ehtiyotlash, tejash kabi fazilatlarning tarkib topishi. Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o‘g‘itlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi. Demak, talabayo‘shlarga iqtisodiy tarbiya berishning samarali yo‘llaridan biri - bu iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o‘g‘it va hikmatlardan foydalanishdan iborat bo‘lib, dars mashg‘ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilib, talabalarning iqtisodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

«Ekologik ta‘lim-tarbiya – tevarak atrof haqidagi bilimlarni, ekologik bilimlarni berish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini hosil qildirish». Yoshlarga ekologik ta‘lim-tarbiya berishda ularga tegishli tushuncha va

atamalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish ushbu sohadagi samaradorlikni oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ekologik madaniyatni shakllantirish eng avvalo, oiladan boshlanadi.

Avestoda ham ekologik madaniyat va tarbiya bo'yicha ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Avestoda yer, suv, zamin, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda qabristonlarda tozalikka rioya qilish kerakligi ta'kidlanadi. Axuramazda o't-o'lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suv ravon bo'lgan yer eng yaxshi yer, ayol va farzandlari sarson va sargardon yuradigan yer eng yomon yer deb atalgan. Avestoda inson tozalikka, sog'lomlikka da'vat qilinib, ularga badantarbiya bilan shug'ullanish, yuvinib yurish tavsiya etiladi. Insonning meyyorida ovqatlanib doimo to'q yurishiga ham alohida to'xtab o'tiladi. Yana bunda uqtirilishicha chorvachilikka alohida e'tibor berilib, chorvaning ko'payishiga, yaylovlarning gullab-yashnashiga, dehqonchilikka e'tibor qratiladi.

Tarbiya turlaridan fuqarolik tarbiyasi jamiyat manfaatlari uchun mas'uliyatli fuqaroni tarbiyalash demakdir. Yosh avlodga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib boorish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Davlat ramzlariga hurmat ruhini singdirish. Tarixning bou merosi va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat va muhabbatni uyg'otish va boshqa ko'nikmalarni singdirish.

Aхлоqiy tarbiya xususida ko'plab gapirish mumkin bo'ladi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi. «Axloq» tushunchasi omma fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'naviyat qullangan xulq-odob normalari majmuyidir. Ma'naviy-axloqiy

tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni. avvalo, talabalarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Islom ta'limotida sabr axloqiy fazilat, musulmon kishining ruhiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Sabr musulmonlar qalbiga sukunat va xotirjamlik baxsh etadi, alam berayotgan dardiga malham bo'ladi. Sabrsizlik insonni qayg'udan ketkiza olmaydi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni bu o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Shuningdek insonning jamiyatda o'zini qanday tutishi uning tarbiyalanganlik darajasini bildiradi. Axloqni biz tug'ma deb qaraydigan bo'lsak, bola oilasida olgan tarbiyasiga qarab uni odobga aylantirishi mumkin bo'ladi. Oilada yetarlicha tarbiyalangan bo'lsa demak, ahloqi yuqori darajada, yoki o'rta, past darajalarni ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oilasi, o'qituvchilari va do'stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy bilim, asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, manbalar va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Forobiyning ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyada nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida allomaning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan. Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rnini borligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o'rnini ta'kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob

as-Saydana», «al Qonuni al-Mas'udiy», «Giodeziya» va boshqa asarlarida ko'ramiz. Beruniy fikricha, axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi, deydi u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezondir. Insonning axloqiy kamolga etishi muammosi ta'lim-tarbiyada markaziy masala bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka etishga to'sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju quyish va ta'magirlik, g'azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi. Mutafakkir jamiyatda adolat o'rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolath hukmdor bo'lishi kerak, deydi. Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e'tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini uyg'un, go'zal eta oladi. Uyg'unlik, go'zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi - ozodlik, tarbiyalilik bo'lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi, deydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko'rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishi talab etiladi. Bunga inson kiyadigan kiyimidan kundalik turmushdagi yurish-turushi, so'zi, qalbi, qilgan ishi - hammasining go'zal bo'lishi ta'kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanhkning tarkib topishi turmushning go'zal bo'lishiga ohb keladi. Olimning inson turmushiga xos hulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin. U ozodlikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur, deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir etuk inson uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo'lishi zarur, deydi. «Minerologiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: «Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlari maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir» Beruniy insonni kamolotga

etaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko'rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda ohm insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi. Eng muhimi, m utafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlar ni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli - olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og'ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ulaming mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g'amho'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronhgingining tayanchi, deb ta'kidlaydi.

Mehnat tarbiyasi va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va m a'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o 4z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirish! mumkin. Pedagogika fanida yosh avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasi juda katta rol o'ynashini rus pedagogi K.D.Ushinskiy bunday deb yozgan edi: «Tarbiyaning o'zi, agar u kishining baxtiyor boTishini istar ekan, uni baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehrtatiga tayyorlashi lozim». Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi. Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e 'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqida m a'lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil et va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy

mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi. Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlik zarur. Bunda:

- mehnatning inson faoliyatidagi ahamiyatini anglash;
- mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish rag‘batini qaror toptirish;
- mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlikni qaror toptirish;
- mehnatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- mehnatning kishilik taraqqiyoti bosqichlaridagi roli va o‘rnini

anglash

Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari Mehnat ta‘limi va tarbiyasining maqsadi o‘quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat ta‘limi va tarbiyasini tashkil etishning vazifalari quyidagicha:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;

2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o‘rgatish;

3. Mehnat qilishga nisbatan rag‘batni, shuningdek, muhabbatni uyg‘otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish;

4. O‘quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo‘lish;

8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

9. O‘quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o‘z mehnati samarasidan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish;

10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o‘zlashtirishga erishish va boshqalar. Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo‘nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o‘yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o‘zlashtirishga erishiladi;

Beruniy bolalami mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasida o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni E.To'raqulov va S.Rahimov «Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida» nomli risolalarida juda yaxshi bayon etganlar. Beruniyning «Mineralogiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmat fikrlar azyup etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham am aliy jih atd an ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlaming malakali usta bo'hb etishishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham o'sha davrda Xuroson va Movarounnahr metallurgiya, konchilik, to'quvchilik, zeb-ziynat buyumlari yasash, qog'oz, oyna ishlab chiqarish va boshqa sohalarida dunyo bozorida nom chiqargan. Hunarmandchilikning bunday yakka holda o'rgatish malakali kasb egalarining etishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo'llaganki, bu insonning kamolga etishiga muhim pog'ona bo'lgan. Zero, qadimdan har bir etuk inson u shohmi, oddiy fuqaromi hunaming bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga ko'ra, buyuk shohlar ham, beklar ham, katta mol-mulk egalari bo'lgan boylar ham, oddiy fuqaro ham o'z farzandini bilimli bo'hsh bilan birga, hunarli bo'lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo'lgandan kishilar o'z mehnati, hunari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan va bu hayot taqozosi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga, mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak, deydi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir. Muayyan bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari - buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sino kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga etishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rin tutadi, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi, deydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida, inson kamolga etishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'hsh va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid,

ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Olim axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, olijanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go'zallikka intilish kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros qoldirdi.

Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati Har bir ota-onada pedagogik ichki hissiyot mavjud. Ulardan har kim har xil yo'ldan foydalanib farzandlarini tarbiyalaydilar. Bu borada estetik tarbiya eng samarali yo'llardan biridir. Oilada ham, mahallada ham, tanishlar orasida ham estetik tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, el e'zozidagi va xalq e'tiboridagi shaxslarni ibratnamuna qilib ko'rsatish tarbiya samaradorligini oshirishga muhim g'oyaviy asosdir, Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning ma'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyligini ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- gozallik - bu kishining qalbi go'zalligi;
- gozallik ~ bu kishining istarasi issiqligi;
- go'zallik - bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi;
- go'zallik - bu bamisoli daraxt, yaprogi - axloq, ildizi - ichki dunyo, mevasi -yaxshi fazilat.

Xullas, odam bolasidagi go'zallik - tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulqatvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat (Mirzakalon Ismoilii).

Demak, estetik tarbiya nafosat tarbiyasi ham, odamiylik tarbiyasi ham, tola-to'kis ahamiyatga ega bo'lgan go'zallik tarbiyasidir. Shu sababli talaba-yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash g'oyat murakkab, kofcp qirrali dinamik jarayon bo'lib, uning yordamida barkamol shaxs tarbiyasi jarayonini olib borishning optimal variantlarini qo'lga kiritish

mumkin. «Estetik tarbiya - o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi. 236 turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir».

«Estetik rivojlantirish - bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga keiishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalarga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakliar yordamida amalga oshiriladi. U jamiyat estetik madaniyatini turli ma'naviy va moddiy ko'rinishlarda tushunib olishni ta'minlaydi».

Talaba-yoshlar estetik tarbiyasining mazmuni asosan:

- estetikaga qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;
- estetik jihatdan bilimdonlik;
- estetik ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;
- estetik his-tuyg'uning mukammaliigi;
- o'z mehnatidan zavq ola bilish va nafijani baholay olish qobiliyatlarining, hissiyot va qobiliyatlarining mavjudligi;
- go'zallikka intilish va didlami tarbiyalashga erisha olishlik kabi insoniy xislatlar majmualaridan iboratdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi talaba-yoshlarda ma'naviy jihatdan go'zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san'at asarlarini sevishni shakllantirish, tarix va ma'moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg'otish, jonajon tabiatimizga ongli munosabatda bo'lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyluklarini qadrlay bilish ko'nikma va malakalarini hosil qilish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda shuni qayd etish mumkinki, uning yordamida yosh avlodni Vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavqlangan holdagi ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga erishish lozim bo'ladi. Estetik tarbiya yosh avlodning, ya'ni talaba-yoshlarning badiiyijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan bo'ladi. Estetik tarbiyaning vazifalari uning asosiy maqsadini amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Bunda mustaqil respublikamizdagi ta'lim-tarbiyani isloh qilish borasidagi sa'y-harakatlar ham e'tiborga olinmog'i lozim. Estetik tarbiyani oliy o'quv yurtlarida quyidagi yo'nalishlarda olib borgan ma'qul va bu har bir yo'nalish estetik tarbiyaning asosiy maqsadini hal qilishdagi vazifalardan iboratdir:

Estetik tarbiya vositalari - talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san'at estetikasi va yoshlarning badiiy ijodi namunalari hamda yuqorida qayd etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san'at asarlari va turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo'shiq, boshqa musiqaviy harakatlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagog-o'qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, oila nafaqat tarbiyaning dastlabki o'chog'i balki go'zallikning dastlabki maktabi hamdir. Bunda oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi go'zal va mazmunli muloqot, uy jihozlarning tartibli, mazmuni chiroyli qilib joylashtirilishi, oiladagi saranjom- sarishtalik va uying barcha narsalarining estetik did bilan joylashtirilishi estetik tarbiyalashga asosiy vositalari hamdir.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi - insonni har tomonlama jismoniy jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qat'iyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli shaxsni tarkib toptirishdir. Bunda kishining ijodiy imkoniyatlari doirasini kengaytiriladi va ularning 242 mehnat tarbiyasiga hamda ijtimoiy-foydali mehnatga yo'naltirilishiga e'tibor kuchaytiriladi. Bular bolalardagi harakat ko'nikmalarining ortib borishi, jismoniy sifatlarning takomillashuvi va sog'lig'ining mustahkamlanishiga har tomonlama yordam beradi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham ma'nan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga muhim hissa qo'shib va ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr-bardoshlilik ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iboratdir (bosh vazifa);
- sog'liqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy takomillashuvga asos yaratish;
- yoshlar ongida harakat turlari to'g'risida tasavvur hosil qilish va ularning kishi sog'lom turmush tarzidagi ahamiyati haqidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- kishining harakatlanish jarayoniga tegishli faoliyatini takomillashuviga yordam berish;
- yoshlarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi mexanizmlarini (texnologiyalarini) ishlab chiqish;
- jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va onglilik sohasidagi ma'lumotlarni bayon qilishda axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutish;

- yoshlarning sport bilan qiziqish va unga bo'lgan maylligini hosil qilish yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan muntazam ravishda shug'ullanish uchun odatlanishiga yordam berish (ijobiy ta'sir ko'rsatish);

- yoshlar turmush tarzida jismoniy tarbiyaga ongli munosabatda bo'lishni o'rgatish, ya'ni o'z sog'lig'iga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali ularni gigiyena qoidalariga amal qilishni va ertalabki gimnastika qilishga odatlantirish hamda doimiy ravishda sport mashg'ulotlariga qatnashishini tarkib toptirish.

Jismoniy tarbiyaning eng muhim tomonlaridan biri - yoshlarni ongli harakat qilishga o'rgatishdir. Bu borada kichik yoshdagi bolalarning asab tizimi nihoyatda sezuvchan va ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli ham ularda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borish samarali kechadi. Ana shunda ularning fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda harakat qilishga o'rgatish izchil ravishdagi pedagogik va metodik talablar asosida tashkil etilsa, u holda yoshlardagi jismoniy tarbiya samarali bo'ladi. Jismoniy tarbiya darslarida yoshlarni turli maqsadli (rejalashtirilgan) harakatlarga o'rgatish uchun bir necha bosqichli mashq qildirish metodidan foydalanish lozim bo'ladi. Bunda asosiy maqsad rejalashtirilayotgan va bajarilayotgan harakatlar yoshlarning qaddi-qomatni tog'ri tutishga o'rgatishga yoki ularning harakatidagi nuqsonlarini to'g'rilashdan iborat bo'lishi kerak. Bu yoshlardagi jismoniy kamolot asoslari bo'lmish quyidagi jihatlarning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi:

- yoshlarni o'z qomatlarining to'g'riligini kuzatib borishiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi

- yoshlarning qomatining risoladagidek bo'lishiga va go'zalligiga intilishni uyg'otadi;

- qomatni to'g'rilash uchun zaiflashib qolgan muskullarni chiniqtirishga bo'lgan zaruratni uyg'otadi;

- ularning harakat sifatlari ichidagi chaqqonlikka qiziqishlari kuchayadi. Jismoniy madaniyat Jismoniy madaniyat tushunchasi - bu ancha keng tushuncha bo'ladi, u jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanish hamda ma'naviy takomillashuvlarning uyg'unlashgan ko'rinishidir. Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlashda yettita narsaga e'tibor berishni tavsiya etadi:

- fel-atvorni yaxshilash;
- narsalarni tanlab yeb-ichish;
- gavnani chiqindidan tozalash;

- badanning to'g'ri tuzilishini saqlash;
- toza havodan nafas olish;
- mos kiyim tanlash;
- jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadil qilish.

Jismoniy tarbiya vositalari ma'lumki, insonning hayoti va faoliyati hamda turmush tarzi turlituman jabhalardan iboratdir. Bu jabhalar ichida eng muhimi ularning sog'lom turmush tarzidir, Bugungi kun taraqqiyoti saviyasi uzluksiz ta'lim tizimi oldiga yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, intellektual salohiyatli shaxs qilib yetishtirishdek muhim taiablarni qo'ymoqda. Bu taiablarni bajarish uchun jismoniy ma'naviyat va madaniyatni og'ishmay amalga oshirish hamda ularga mos jismoniy tarbiya vositalarini jamul-jam qilmoq lozim. Zero yetuklik va komillik o'z mazmunmohiyatiga ko'ra mustaqil ong va faoliyat zamirida shakllanadi, shuningdek, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar sohi intilish jismonan sog'lom, aqlan teran, ruhan tetik bo'lish yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishga zamin yaratadi. Demak, insonning har tomonlama kamol topishi uchun jismoniy tarbiya zarur va bunda jismoniy tarbiya vositalaridan to'g'ri foydalanishning ahamiyati beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya vositalari quyidagicha:

- sanitariya-gigiyena omillari;
- tabiatdagi sog'lomlashtiruvchi kuchlar;
- jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar tizimi.

Endi har bir yo'nalish bo'yicha qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz. Birinchi yo'nalish, asosan, jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning kundalik rejimi asosida harakatlar majmuyini tashkil etadi. Qat'iy rejim har qanday yoshni sog'lig'ini muntazam ravishda ta'minlash bilan birga ularni algoritmik tarzda tartrb-intizomga ham o'rgatadi va bu faoliyat shartli refleksga aylanib bo'ladi. Shuningdek, yoshlarning kundalik rejimni muntazam ravishda bajarib borishi, ular organizmining ritm bilan ishlashiga odatlantiradi va domiy hayotiy ehtiyojga aylanadi. Rejimga rioya qilmaslik, ya'ni o'z vaqtida ovqatlanmaslik, me'yorida uxlamaslik, aqliy va jismoniy mehnatlarning tartibsiz bajarilishi quyidagi salbiy oqibatlarining paydo bo'lishiga olib keladi:

- kishi organizmini tashqi muhitga chidamliligi susayadi, ya'ni organizm bo'shshib ketadi;
- organizm hujayralarining me'yoriy harakatlari faoliyati buziladi;
- kishi bosh miyasining faoliyati buziladi

Kundalik rejim tuzishda kishilar yoshi, o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar muddati, ovqatlanish vaqti, ochiq havoda dam olish vaqti, yilning fasllari va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning almashinuvi kabi jihatlari e'tiborga olinsa, kundalik rejim tuzishning optimal variantlarini kafolatlashga erishiladi. Ikkinchi yo'nalish. Kishi jismoniy sog'lomligini ta'minlashda tabiatdagi sog'lomlashtiruvchi kuchlardan foydalanish yoshlarning sog'lig'ini mustahkamlash, organizmni chiniqtirish va ularning muntazam jismonan rivojlanish darajasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy vositalar quyosh, havo va suvdan iborat bo'ladi, ya'ni tabiat kuchlari jismoniy mashg'ulotlar o'tkazish va mustaqil shug'ullanish uchun eng asosiy vositalar sifatida foydalaniladi. Uchinchi yo'nalish. Jismoniy tarbiyada foydalaniladigan jismoniy tarbiya vositalari orasida eng ko'p qo'llaniladigan jismoniy mashqlar tizimidir. Ular orqali quyidagi samaralarga erishiladi:

- gavda muskullarining m e'yorida o'sishi ta'minlanadi;
- organizm jismonan mustahkamlanadi;
- yurak qon-tomir tizimi faoliyati yaxshilanadi;
- nafas olish tizimining ishlashi yaxshilanadi;
- bosh miya qobig'ida harakatlantiruvchi sohalarning faoliyatini yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi jismoniy tarbiya vositalari tizimida gimnastika, harakatli o'yinlar va sport mashg'ulotlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Gimnastikaning quyidagi turlari mavjud:

- asosiy gimnastika, ya'ni gigiyenik gimnastika;
- sport gimnastikasi va uning ba'zi turlari (akrobatika, badiiy gimnastika va shu kabilar);
- yordamchi, jumladan davolovchi gimnastika.

Sport. Jismoniy tarbiya tizimida sport musobaqalarini tashkil etilishi va uyushtirilishi jismoniy tarbiyani og'ishmav amalga oshirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bundagi xatti-harakatlar ko'proq musobaqaviy tarzda amalga oshirilib, ularda eng yuqori yutuqlarga intilish, ya'ni g'oliblikni qo'lga kiritish, muntazam ravishda mashq qilish, sport musobaqalarga qatnashish, sport razryadlari olish, «sport ustasi» maqomiga sazovor bo'lish va hokazo ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

Tarbiyani tashkil etish shakllari haqida gapirar ekanmiz uning maqsad va vazifalarini amamlga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhimdir.

Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillar asosida tashkil etiladi. Sub‘ektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob‘ektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi.

Tarbiya natijalari tez sur‘atda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi, shaxs ongi, dubyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yonaltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta‘lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o‘rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta‘sir o‘tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma‘lum muddatgina maktab, o‘qituvchining tarbiyaviy ta‘siri ostida bo‘lib, qolgan vaqtning asosiy qismini oilada, ko‘chada jamoat orasida o‘tkazadilar. Demak maktabda bolalrni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta‘siri va nazoratidan uzoqlashadilar. Shu o‘rinda bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarinnig ahamiyati kuchli.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Keng va tor ma‘nodagi tarbiya tushunchalariga izoh bering.
2. Tarbiya mazmuni deganda nima tushiniladi?
3. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalarini bayon eting.
4. Tarbiya jarayoni qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
5. Tarbiya qonuniyatlarini shrhlab bering.
6. Tarbiya tamoyillarini izohlang.
7. Tarbiya turlarining umumiy tavsifini bayon eting.

8-amaliy ish

1-topshiriq. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga doirblis-so‘rov savollari

1. Tarbiya deganda nima tushuniladi?
2. Tarbiyaning tor va keng ma'nalardagi ifodasini izohlang.
3. Tarbiya jarayoni deb nimaga aytiladi?
4. Tarbiyadan ko'zlangan maqsad nima?
5. Tarbiyaning umumiy vazifalariga nimalar kiradi?
6. Tarbiya mazmuni deganda nimani tushunasiz?
7. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2-topshiriq. “Tugallanmagan gaplar metodikasi” asosida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlaridagi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga doir fikrlarni o‘zlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlaridan keltirilgan quyidagi fikrlarni tugallang:


1. Tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini... (Karimov I.A.vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O‘zbekiston, 1996. –b.34.)

2. Inson uni Inson darajasiga ko‘taradigan asoslarning asosini o‘z aqli bilan tom ma’noda qamray olmaydi. Inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina ... (Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. –b.81.)

3. Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. –b. 19-20).

4.Vijdoni uyg‘oq odam yon-atrofida bo‘layotgan voqealarga ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. –b.27-28).

“Moychechak” texnologiyasi



Mavzu yuzasidan savollar.

1. Tarbiya metodiga ta'rif.
2. Tarbiya metodini qo'llashda nima uchun o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida do'stona munosabat bo'lishi kerak?
3. Tarbiya uslubiga misollar keltiring.
4. Tarbiya shakllariga nimalar kiradi?
5. Tarbiya vositalarini nimalar tashkil qiladi?
6. Tarbiya metodining turlarini ayting.

9-mavzu: Jamoaning shaxs rivojlanishidagi o'rni.

Reja:

1. **Jamoa haqida tushuncha.**
2. **O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlari.**

1. Jamoa haqida tushuncha.

Jamoa bir necha a'zoldan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvdan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.

Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, Davlat

konstitutsiyasi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo‘lmasligi zarur.

Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a‘zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat Umumiy tashkil eitilishi kerak. Jamoa a‘zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

Jamoa a‘zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g‘am-qayg‘ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

Jamoda demokratik munosabatlar o‘rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro‘li a‘zolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o‘ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o‘ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a‘zolari orasidagi munosabatlarda ko‘rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o‘qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o‘ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O‘quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko‘zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo‘yilgan organiga ega bo‘lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a‘zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhidir.

2. Jamoani shakllantirish bosqichlari. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir. Buning uchun bir nechta bosqichlar mavjudki, birunchi bosqichda talab faqat o‘qituvchilar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan talablarning qo‘yilishiga e‘tiborsiz qaraydilar. Jamoa a‘zolarining

uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribaga ega emasliklari bois so'z yuritilayotgan bosqichda o'qituvchining asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faoliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr

mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti- harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

2. O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlari.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonida quyidagi **shart-sharoitlarni** hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq- atvor qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

• qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;

- talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
- jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim;
- o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida

munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati va mehnat faoliyatini o'z ichiga oladi.

Bayram an'alariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Jamo» va «o'quvchilar jamoasi» tushunchalariga izoh bering.
2. O'quvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini sanab bering.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.
4. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalariga doir ma'lumotlarni topib o'qing.
5. O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlriga tavsif yozing.

9-amaliy ish

1-topshiriq. "Har qanday guruh jamoa bo'la oladimi?" mavzusida munozarani o'tkazishga doir ko'rsatmalar

1. O'qituvchi munozara uchun savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.

3. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

2-topshiriq. Jamoa va uning o'ziga xos belgilarini o'zlashtirilishiga doir blis-so'rov savollari

1. Jamoa deganda nima tushuniladi?
2. Jamoaning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsad deganda nima tushuniladi?
4. Jamoaning birgalikdagi umumiy faoliyati nimalarda aks etadi?
5. O'quvchilar jamoasining majburiy mas'uliyatli munosabatini yo'lga qo'yish nima uchun zarur?

6. Jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishidagi farqlar nimada namoyon bo‘ladi?

3-topshiriq. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirishga doir toifalash jadvali

O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari	O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari mazmuni	O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari	O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari mazmuni

4-topshiriq. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllariga doir amaliy topshiriqlar

4.1-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va ularni mazmunan guruh rahbarining qaysi funksiyasini ifoda etishini aniqlang.

1) hududiy, mikromuhit, ta’lim muassasasi, o‘quvchilarning o‘zlarini rivojlantirish bilan bog‘liq ulardagi ijobiy tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash;

2) o‘quvchilar tarbiyasidagi mavjud holat va doimiy o‘zgarishlarni aniqlab borish, tarbiyalanuvchi shaxsi hamda individual rivojlanishini tadqiq va tahlil etish, samarali natijalarga erishilmayotganligining sabablarini izlash;

3) o‘quvchilar bilan birgalikda tarbiyaviy faoliyatga doir maqsadlarni aniqlashtirish, guruh rahbarining burchi o‘quvchilarning yoshi va guruh jamoasining shakllanganlik darajasini hisobga olish;

4) o‘z-o‘zining va guruh jamoasi faoliyatini oqilona tashkil etishga yordam berish, pedagogik faoliyatning ketma-ketligini belgilash, pedagogik jarayonning ketma-ketligi, izchilligi, tizimligini ta’minlash;

5) tarbiyalanuvchilarning jismoniy, aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishi uchun shart-sharoityaratish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga muvafaqqiyatli moslashuvini ta’minlash.

4.2-topshiriq. Quyida keltirilgan muammoli pedagogik masalalar bilan tanishing va ularning yechimini toping.

1-masala.guruhni bir necha yil davomida saylangan qat'iy faollar boshqarib,boshqa a'zolar ularga bo'ysunib kelishdi. Keyinchalik esa, ular bu holatga qarshi chiqa boshlashdi.yangi guruh rahbari avvalgi o'qituvchining xatosini to'g'rilash maqsadida qat'iy chora ko'rdi.Guruhda qat'iy saylov o'tkazilib, avvalgi faollar o'rniga o'quvchilar orasidan yangi faollar saylandi. Lekin oradan bir oz vaqt o'tib, saylov o'zini oqlamaganligini ko'rsatdi.yangi saylangan faollarning bir qismi o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortishsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qilishdi.Guruhda yangi norasmiy guruhlar tashkil topib,befarq, mas'uliyatsiz o'quvchilar soni ikki barobar ortdi.

Sinf rahbari qanday xatoga yo'l qo'ydi? Mazkur vaziyatda qanday yo'l tutish kerak edi? Qanday yo'l bilan faolning jamoani jiplashtirishiga erishish mumkin?

2-masala.guruh rahbari sosiometriya metodini qo'llash orqali guruhdagi kamsuqum Aziza guruh sardori Dildoradan ko'ra katta obro'ga ega ekanligini aniqladi.

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra Didora guruh sardori sifatida noto'g'ri saylangan, uni Aziza bilan almashtirish kerak, degan xulosaga kelish mumkinmi? Guruh rahbari mazkur vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?

3-masala. Yosh o'qituvchini IX sinfga rahbar etib tayinlashdi. Bu sinf ancha murakkab bo'lgan va yaqinda qayta tuzilgan edi. Ana shu sababli sinf jamoa bo'lib uyushmagan, o'quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakat qildi.Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi. Bu o'qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfda o'tkazilgan har bir tadbir o'zaro sog'lom munosabatni o'rnatishga, yuqori sinf o'quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o'quvchilaridan biri o'z inshosida shunday yozadi: "Men sinfga faqat o'qish uchun bormayman. Bu yerda mening diomo yordamga tayyor do'stlarim bor. Ilgari mening faqat ko'chada do'stlarim bor edi. Ular bilan juda mazmunsiz hayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go'zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehrini qozonishga, o'z xatti-harakatlarim uchun javob berishga o'rgandim. Men sinfimga biror zarar yetkazishdan xavotirlanaman".

Yosh sinf rahbari faoliyatini tahlil eting. Ancha jiddiy e'tiborni talab etadigan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb hisoblaysiz?

4.3-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni o'qing va ularni ikki –guruh rahbarining huquqlari va majburiyatlari tarzida turkumlang.

1. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixik rivojlanishi haqida ma'lumotlar olish.

2. Murakkab muammolarni hal etishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.

3. Har bir o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish.

4. O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini nazorat qilish.

5. O'quvchilarning shaxsiy salohiyatining rivojlanishi uchun sinfda maqbul ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

6. Mazkur guruhda dars beradigan o'qituvchilar ishini muvofiqlashtirish.

7. Maktab jamoasidan zarar pedagogik yordam olish.

8. Ota-onalar bilan aloqa o'rnatish va ularga tarbiyaviy ishda yordam berish.

9. Bolalar bilan indiviudal ishlash tartibini aniqlashtirish.

10. "Kichik pedkengash", pedagogik konsilium, mavzuli va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali guruh o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Guruh rahbarining huquqlari	Guruh rahbarining majburiyatlari

10-mavzu. Oilada tarbiya asoslari.

Reja:

1. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi.

2. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.

3. **Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari.**
4. **O'quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati.**
5. **Vatanparvarlik va baynalmillik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.**
6. **Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.**

1. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi.

Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsional belgilariga bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Herbert Spencer - ingliz olimi "Tarbiya - bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning amaliy jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak" - deb yozadi, va "bolaning yashash sharoitlari uning shaxs sifatida ulg'ayishiga bog'liqligi, ta'sirini misollar orqali keltiradi. O'zining "Butun shaxsni rivojlantirish" kitobida tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy turlarini ko'rsatib o'tib, ulardan eng asosiysi axloqiy tarbiyadir deb ta'kidlaydi.¹⁷(The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.)

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Axloq va ma'naviyat tushunchasi. Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga

¹⁷The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.

erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq - ijtimoiy ong va tarbiyaviy ta'sir etish shakli sifatida. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi.

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar **axloqiy kategoriya** deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi **axloqiy tamoyillar** deb ataladi.

Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu **axloqiy ideal** deb ataladi.

Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) - birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi.

Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi ideallarni esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin.

Me'yor - bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq- atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

Qadriyatlar - ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlar. Qadriyatlar xilma-xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiy tarzda mutlaq va nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar, ya'ni umumahamiyatli (ob'ektiv) tavsifga ega bo'lib, ular o'zida shubhasiz asoslangan, istalgan nuqtai nazardan, turlicha munosabatlar va barcha sub'ekt uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir sub'ektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, talabalar tomonidan ularning faoliyatida yorqin namoyon bo'lgandagina, rivojlangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda

xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab etishdan iboratdir.

2. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash; 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash; 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish; o'quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning

tizimliliği va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; oila, ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; o'quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida sub'yekt-sub'yekt munosabatlarining o'rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixik jarayonlarga (motivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta'sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o'quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o'git, ko'rsatma, namuna va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokozolar.

Ma'naviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: rag'batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.

3. Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi **hikoya** - axloqiy mazmundagi voqea-hodisalarni yorqin emosional bayon etilishidir. Hikoya tarbiyalanuvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularga axloqiy me'yor va qoidalarni tushunish hamda o'zlashtirishga yordam beradi. Yaxshi bayon tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalarning mohiyatini ochib berishgagina xizmat qilib qolmay, balki tarbiyalanuvchilarda madaniy xulq-atvor qoidalariga ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy mazmundagi hikoya bir nechta vazifani bajaradi: bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi, tarbiyalanuvchining xulq-atvor tajribasini kattalarniki asosida boyitadi.

Ushbu metodning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) tarbiyalanuvchilarda ijobiy axloqiy hislarni uyg'ota olish, hikoya qahramonlariga hamdardlik bildirish - yutug'idan quvonib, muvafaqqiyatsizligiga birgalishib achinish;

2) tarbiyalanuvchilarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

3) ma'naviy-axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, tarbiyalanuvchilarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

1. Hikoya tarbiyalanuvning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun hikoyaning qisqa, emosional, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.

3. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

4. Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

Tushuntirish metodi esa, tarbiyalanuvchilarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslaniladi. Masalan, ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar orqali tarbiyalanuvchilar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida tarbiyalanuvchilarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida tarbiyalanuvchilar o'z fikrlarini erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari asosida bajarishga urinadilar.

Izohlash - tarbiyalanuvchilarga og‘zaki-emosional ta’sir ko‘rsatish metodi. Milliy tarbiyamizda mazkur metod “ta’birlamoq” tarzida ham ishlatiladi. Ta’birlamoq - tarbiyalanuvchida, tarbiyalanuvchilar guruhida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifat-lamoqdir. Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda izohlashning muhim jihati biror yosh guruhi yoki alohida tarbiyalanuvchiga ta’sir etishga yo‘nalganligidadir. Mazkur metodni qo‘llashda maktabgacha yosh guruhi va tarbiyalanuvchilar guruhining shaxsiy sifatlariga asoslaniladi. Maktabgacha yosh guruhida sodda izohlash ko‘rinishidan foydalaniladi: «Mana bunday qilish kerak», «hamma shunday qiladi» va boshqalar. Izohlash metodi yangi axloqiy sifatlar yoki xulq-atvor shakllarini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarda ma’lum bir xatti-harakatlarga to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyalanuvchilarni axloqiy tarbiyalashda nasihat qilish muhim o‘rin tutadi.

Nasihati - sokin, xayrixoh vaziyatda tarbiyalanuvchini yaxshi yo‘lga solish, ta’lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur yosh guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali tarbiyalanuvchi psixikasiga tizimli ta’sir ko‘rsatilib, unda ma’lum bir faoliyat motivlari va ustanovkalar hosil qilinadi.

Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning axloqiy ongini shakllantirishda ko‘rsatma berishdan ham foydalaniladi. Ko‘rsatmoq

- tarbiyalanuvchiga, tarbiyalanuvchilarga o‘rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e’tiborlarini jalb qilishdir.

Ishontirish - tarbiyalanuvchilarni axloqiy tarbiyalashda katta yordam beradi («Kasal bo‘lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo‘lni yuvish kerak», «O‘rtog‘ini urish yomon»). Ishontirish o‘z navbatida namuna ko‘rsatishni talab etadi. Namuna tarbiyalanuvchining birinchi signal tizimiga faol ta’sir ko‘rsatib, harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o‘z navbatida tarbiyalanuvchida axloqiy ong, his-tuyg‘u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari. Mashq - ma’naviy-axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta’sirli metodidir. Unga qoidalarni mashq qildirish - foydal odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o‘rgatilgan tajribani yangilash, nazorat - o‘rgatilgan odatning to‘g‘ri va samarali ekanligini tekshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, tarbiyalanuvchini faollashtiruvchi shaxsiy gigiena qoidalari,

ovqatlanish madaniyati, ko'chada, shaxsda xulq- atvor madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi. Mashq qildirish natijasida tarbiyalanuvchida malaka va odatlar tarkib topadi.

Mashq metodining samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olishni talab qiladi:

- 1) mashqlar tizimi;
- 2) ularning mazmuni;
- 3) mashqning tushunarli bo'lishi;
- 4) hajmi;
- 5) takrorlash tezligi;
- 6) nazorat va tuzatish;
- 7) tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari;
- 8) mashqni bajarish joyi va vaqti;
- 9) individual, guruhli va jamoaviy mashq shakllarini uyg'unlashtirish;
- 10) motivasiya hosil qilish va rag'batlantirish. Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur'ati hamda kutiladigan natija o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko'p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

Talab - tarbiyalash maqsadida tarbiyalanuvchidan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatini rag'batlaydi yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taqdim etish shakliga ko'ra bevosita va bilvosita talab farqlanadi. Bevosita talab uchun qat'iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo'lishi xos bo'lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg'unligi aks etadi.

Bilvosita talab (maslahat berish, yalinish, ta'kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda tarbiyalanuvchida qayg'urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi. Maslahat berish orqali tarbiyalanuvchida ma'lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Tarbiyalanuvchi qachonki bildirilayotgan fikrni o'zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi. Yalinish - agarda boshqa talab qilish ko'rinishi kor qilmasligiga ko'zi etsa, tarbiyalanuvchi qalbida mehrni yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror narsaga ko'ndirish uchun iltimos qilish, o'tinib so'rashdir. Ta'kidlash - tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlashdir. Qaytarish - tarbiyalanuvchi jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni

ko'rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo'ya tishdan, xatti-harakatdan o'zini tutishga undash, tiyish.

O'rgatish - tarbiyalanuvchiga biror ish-harakat (masalan, turli joy va vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo'l-yo'rug'ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish. Mazkur metodni to'g'ri qo'llash qoidalariga quyidagilar kiradi:

1. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tarbiya maqsadini aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa, tarbiyalanuvchi o'rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib etmasa, tarbiyachining harakati zoe ketadi.

2. Ish-harakatni bajarishga o'rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: «Qo'shnilar bilan salomlashib yursang, ular seni yaxshi ko'rishadi», «Seni chiroyli kuladi deyishlari uchun tishlaringni yuvib yurishing kerak» va boshqalar.

3. Tarbiyalanuvchilarga o'rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma'lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab tarbiyalanuvchini harakatlarni to'g'ri bajarishi haqidagi qayg'urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur.

4. Tarbiyalanuvchiga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko'rsatib berish lozim. Masalan, toza va iflos poyabzal, silliq va g'ijimlangan kiyimni taqqoslab ko'rsatish orqali tarbiyalanuvchini bunday holatlarni bartaraf etishga o'rgatib borish mumkin.

5. O'rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko'ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida bo'lmasligi hamda o'z-o'zini nazorat qilish bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

6. O'rgatish o'yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O'yinda tarbiyalanuvchi belgilangan qoidalarni boshqalarning majburlashisiz ham o'z xohishiga ko'ra bajaradi.

Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni tarbiyalanuvchida faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, masalan birorta hikoya ma'lum bir erida to'xtatiladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Tarbiyalanuvchilarning javoblari muhokama

etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Keyinchalik tarbiyalanuvchilarga real muammoli vaziyat taklif etiladi: futbol o'yini ketyapti. Bir jamoaning sardori yaxshi o'yinchi, uning jamoasi har doim yutib chiqadi. Mana shunday voqea sodir bo'ldi: u jamoadagi bir o'yinchi koptokni noto'g'ri tepgani uchun uni qattiq uradi. Undan o'yinchi bilan qo'pol munosabatda bo'lgani uchun o'yinchidan kechirim so'rash talab etiladi. U kechirim so'rashdan bosh tortadi, demak, uni o'yindan chetlashtirish kerak. Tarbiyalanuvchilariga avval tarbiyachining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

Ma'naviy-axloqiy motivasiyani hosil qiluvchi metodlar. Bu guruh metodlaridan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, tarbiyalanuvchi xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalaniladi. Bunda koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, tahsinlash, tergash, uyaltirish, shavqlantirish kabi metodlardan foydalaniladi.

Koyish - jazo berishning yengil turi. Tarbiyalanuvchiga tanbehlovchi so'z aytish, tanbeh berish, urishib qo'yish.

Maqtash - tarbiyalanuvchini uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirish, yaxshi qilib ko'rsatish.

Taqdirlash - tarbiyalanuvchini qadrlash, munosib baholash, tarbiyalanuvchiga uning qadri bor ekanligini sezdirish.

Ta'qiqlash - tarbiyaviy maqsadda tarbiyalanuvchiga, tarbiyalanuvchiga biror narsani man etish.

Tahsinlash - tarbiyalanuvchini «ofarin», «balli» kabi so'zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash.

Tergash - vaqti-vaqti bilan tarbiyalanuvchiga etarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya xatti-harakatlari uchun koyib, «yo'li»dan qaytarib turish.

Uyaltirish - noma'qul qilig'i uchun tarbiyalanuvchiga o'ta noqulaylik tug'dirish, xijolot qildirish.

Shavqlantirish - tarbiyalanuvchining xulqi, muvafaqqiyatlari, kelajagiga g'oyat mamnunlik hissi bilan qiziqish, ruhiy ko'tarinkilik bilan zavqlanish, zavqlantirish, qanoatlantirish.

Estetik tarbiya va uning vazifalari - tarbiyalanuvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish jarayoni. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan

voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiyaning **maqsadi**: tarbiyalanuvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

- 1) tarbiyalanuvchilarni san'atdagi, atrofi-mizdagi go'zallikni his qila olishga o'rgatish;
- 2) voqelikka estetik munosabatni qaror toptirish;
- 3) estetik didni, go'zallikni baholash qobiliyatini tarbiyalash.

Estetik madaniyatni shakllantirish - bu faqatgina badiiiy

dunyoqarashni o'stirish, o'qilgan kitoblar, ko'rilgan kinofilmlar, tinglangan musiqiy asarlar sonini ko'paytirishgina emas. Aksincha, bu insonning hissiyotiga ta'sir ko'rsatish, shaxs ma'naviyatini boyitish, xulq-atvorini boshqarish va tuzatishdir. Agar befarqlik, loqaydlik namoyon bo'lsa, inson o'zining antiestetikligini namoyon etadi. Agar o'quvchi go'zallikni his qilishning ijobiy odatlari, she'riyat, ijodiy mehnatini o'zlashtirgan bo'lsa, u holda uning estetik madaniyatining yuqori darajada ekanligi haqida bemalol gapirish mumkin. Shunday odamlar borki, romanlar, she'rlar o'qishadi, ko'rgazma va konsertlarda ishtirok etadi, biroq ijtimoiy axloq me'yorlarini buzishadi. Bunday odamlar estetik madaniyatdan uzoq, chunki estetik qarashlar va estetik lazzatlanish ularning ichki dunyosiga kirib bormagan. Buning uchun shaxs estetik madaniyatini shakllantirishning muhim tarkibiy qismlari - estetik qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik ong, estetik mulohaza, estetik did, estetik idealni tarkib toptirish, ularning psixologik-pedagogik jihatlarini asoslash lozim.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari:

Shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omillar estetik ehtiyoj deb ataladi.

Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishishi estetik qiziqish deb ataladi.

Ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida - nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyat estetik ong deb ataladi.

Shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakati estetik mulohaza deb ataladi.

Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadigan va shaxsning narsa-buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa estetik did deb ataladi.

Shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi estetik ideal deb ataladi.

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari Estetik tarbiya vositalari deb ataladi.

Estetik tarbiya vositalariga tabiat, mehnat va san'at kiradi.

Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnikalashib borgani sari, ularning ko'ngilli va ijodiy tabiati ortib boradi. Shu tariqa mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida har qanday mehnat turi shaxsga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir shaxs o'z mehnatidan ko'proq moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili - bu tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai. U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o'zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida san'at muhim o'rin egallaydi. San'at voqelikka estetik munosabatning eng muhim shaklidir. Jamiyat estetik madaniyatining darajasi ko'p jihatdan san'at rivojining darajasi, uning ijtimoiy hayotda qanchalik ko'p ahamiyat kasb etishiga bog'liq.

San'at estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga mo'ljallanganligi bilan, dunyoga keng va ochiq ko'z bilan qarash tuyg'usini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etish, yuksak orzu-umidlar yo'lida ijodkorlik qobiliyatini vujudga keltirishi bilan izohlanadi.

4. O‘quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati.

Davlat ramzlari muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuidir.

Muayyan davlatning bayrog‘i, gerbi (tamg‘asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi.

Davlat ramzlari o‘zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni ifoda etadi. Davlat ramzlari (bayroq, gerb)da tasvirlangan ranglar, tasvirlar muayyan xalq, millat o‘tmishi, qadim an‘analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, hayotiy intilishlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi g‘oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlatning mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilar sanaladi. Ramzlar – bu shartli belgilar bo‘lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma‘lum shart-sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi. Bular:

1) o‘quv yurtida tashkil etilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

2) fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining saviyasiga bog‘liq;

3) tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo‘lishiga erishish;

4) oila, maktab va mahalla o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta‘minlaydi;

5) o‘quvchilarning axloqiy va huquqiy me‘yorlar, umumiy tartibga qat‘iy rioya etishga o‘rgatish, zimmasidagi burchni to‘laqonli ado etishlariga e‘tiborni qaratish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma‘ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi.

Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashhis qo‘yish), statistik va qiyosiy tahlil tahlilni olib borish lozim.

Ijtimoiy fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o‘zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burchini bajara olish (o'z Vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi majburiyatni his eta olish) qobiliyatiga egalik;
- milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;
- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik;
- ijtimoiy huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;
- mamlakat milliy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish haqida qayg'urish;
- davlat tili, milliy madaniyat va an'analarga sodiq, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;
- demokratik tamoyillarga amal qilish;
- tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatda bo'lish;
- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish;
- to'g'ri so'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lmish;
- o'z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;
- baynalminallik, o'zga mamlakatlarning xalqlariga nisbatan hurmatda bo'lish va boshqalar.

5. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, va-zifalari va metodlari.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin, fuqaro muayyan davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur.

«Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi, Vatan tushunchasi ken va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jumuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir.

Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma’nodagi tushunchadir»¹¹.

Vatanparvarlik shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixidan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo‘ladi:

1. Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
2. O‘zi mansub bo‘lgan millat o‘tmishi, urf-odatlari, an‘analari va qadriyatlariga sodiqlik.
3. Vatan va millat tarixidan g‘ururlanish.
4. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarini asrash, ularni ko‘paytirish borasida g‘amxurlik qilish.
5. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilish.
6. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
7. Vatan va millat obro‘i, sha’ni, or-nomusini himoya qilish.
8. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo‘lishi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o‘rtasida, aro, «natio» – xalq) o‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an‘analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

O‘quvchilar o‘rtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbat, matbuot konferantsiyasi, viktorina, uchrashuv, ko‘rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmunini birgalikda o‘rganish, kinofilmlar tomosha qilish ham o‘zining ijobiy natijasini beradi.

¹¹ Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuy\usi. – Toshkent, O‘zbekiston, 1996. – 139-bet.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1) o‘quvchilarga fuqaro mudofaasi hamda harbiy bilim asoslarini bo‘yicha dastlabki nazariy bilimlarni berish va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish;

2) o‘quvchilarni milliy mustaqillik, O‘zbekiston Respublikasining davlat qurilishi hamda konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;

3) o‘quvchilarda g‘oyaviy onglilikni tarbiyalash asosida, ularda terrorizm va diniy ekstremistik g‘oyalarga qarshi nafrat tuyg‘usini tarbiyalash;

4) o‘quvchilarning vatan himoyasini ta‘minlash borasidagi harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

5) o‘quvchilarda favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko‘ra olish, shuningdek, qurolli hurujlardan himoyalaniish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

6) ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda ta‘lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘rtasida bht (boshlang‘ich harbiy ta‘lim o‘quv fani) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni namoyish etish imkonini beruvchi musobaqaning tashkil etilishi bu borada ijobiy natija bera oladi. o‘qituvchi rahbarligida «shon-shuhrat» muzeylariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar ham o‘quvchilarda harbiy–vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs

huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;

- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

- o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- keng ko'lamlı ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;

- shaxs huquqiy ongini shakllantirish;

- shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik jarayonda huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:

- o'quvchilar tomonidan "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" kabi o'quv fanlarining o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

- ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktab va boshqa o'quv yurtlari ichki tartib-qoidalari, shuningdek, o'quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni

buzish hollarining kamayganligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari – huquqiy ongning muayyan darajasi;

- ijtimoiy-huquqiy faolliklari (o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) – amaliy-huquqiy faoliyat ko‘lami.

O‘quvchilardagi qiziqishni inobatga olgan holda huquqiy mazmundagi, xususan, "Biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari", "Maishiy xizmat turlaridan foydalanishning huquqiy mohiyati", "Oldi-sotdi munosabatlarining huquqiy-axloqiy negizlari", "Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari", "XXI asrga narkotiklarsiz qadam tashla!", "Sening huquq va burchlaring", "Yoshlar ijtimoiy mehnatini tashkil etish shartlari", "Nikoh-muqaddas bitim", "Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari", "Terrorizm – mudhish jinoyat", "Qonuniy harakat va harakatsizlik nima?" kabi mavzularda ma’ruza va seminarlar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish maqsadida ularni huquqiy adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish, jinoiy xatti-harakatlar va ularning oqibatlari xususida davra suhbatlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va konferentsiyalar o‘tkazish, shuningdek, huquqiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish g‘oyat muhim.

Shaxsda huquqiy sifatlarni qaror topishi uning ijtimoiy – huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog‘liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g‘oyalari o‘quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o‘quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o‘z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o‘z faoliyatlarini real baholashga o‘rgatib borish talab etiladi.

Shaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;

- 1) huquqiy ong;
- 2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotning ma’lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, aholining keskin sur’atda tabaqqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo‘lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo‘llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog‘ida ko‘zga tashlanadi.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy faoliyat huquqiy me’yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat’iy va og‘ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e’tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy xatti–harakatlar majmui.

Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas’ullik, huquqiy e’tiqod, huquqiy salohiyat.

1. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

ularda mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;

o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

2. Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi.

2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi.

3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'ldan kela olishi.

4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vij doniyliigi.

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib borish.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. **O'z-o'ziga xizmat** o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga em-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat

- o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllari: mehnat bayrami, o'quvchilar yasagan buyumlar ko'rgazmasi; hasharlar uyushtirish; qarovchisi yo'q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko'rsatiluvchi insonparvarlik yordami; ko'kalamzorlashtirish; ta'mirlash (maktab binosini); «Mohir qo'llar» to'garagi faoliyati.

3. Jismoniy tarbiyaning vazifalari. Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o‘zlashtirib olish tushuniladi.

Jismoniy tarbiya - tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari xilma-xil bo‘lib, pedagogikada qator tasniflar yaratilgan. Jumladan, V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatishadi:

1) bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishiga yordam berish - organizmning morfologik va funksional rivojlanishini ta‘minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini mustahkamlash;

2) asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish - bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatligi uning barcha jismoniy sifatlari - kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va epcillikni yuksak uyg‘unlikda rivojlanishini ta‘minlaydi;

3) hayotiy muhim harakatga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish - bolada maxsus harakatga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

4) jismoniy madaniyatning tizimli mashg‘ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash. Sog‘lom turmush tarzning asosida bolaning doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish va bolalarning jismoniy mashg‘ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiena sohalariga oid minimum nazariy bilimlarni egallash zarurligi. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiena haqida, jismoniy madaniyat va sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati aniq tasavvurlarga ega bo‘lishi zarur.

B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatadi:

1) rivojlantiruvchi - bolalarning jismoniy kuchini va nerv tizimini takomillashtirish, o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvini ta‘

minlash;

2) tarbiyaviy - bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarkibiy topishiga erishish. Boshqacha aytganda, «Sog'lom tanda - sog' aql»;

3) ta'limiy - bolalarning jismoniy madaniyatning nazariy asoslari bilan tanishtirish, uning inson hayotidagi ahamiyatini tushunib etish;

4) sog'lomlashtiruvchi - bolalarda harakatga doir sifatlarni tarkib toptirish, ularning baquvvat va tetiklashuviga ko'maklashish;

5) umummadaniy - bo'sh vaqtni mazmunli va foydali o'tkazish.

I.P.Podlasiy tomonidan taklif etilgan jismoniy tarbiyaning vazifalari V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar tasnifiga mos kelib, shu bilan birga jismoniy tarbiyaning yana ikkita funksiyasi alohida ajratib ko'rsatilgan:

1) tarbiyalanuvchilarda estetik sifatlarni tarbiyalash;

2) tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

4. Jismoniy tarbiya vositalari. Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari xilma-xil bo'lib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jismoniy mashqlar.

Tabiiy omillar tabiat in'omlari (suv, havo, quyosh)ning sog'liqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat «bola organizmini chiniqtirish» atamasi bilan tavsiflanadi. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish, hayotiy sharoitlarning o'zgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

Gigienik shart-sharoitlar. Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigienik shart-sharoitlar - uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur.

Bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi muhim vazifa nerv tizimi gigienasidir. Bu vazifani hal etishda uyqu katta ahamiyatga ega. Uyqu miya yarim sharlarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv tizimining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to'y masa nerv tizimining buzilganidan dalolat beradi. Nerv tizimi qo'zg'aluvchan bolalar aksariyat yomon uxlashadi. Bunday bolalarning uyqu tormozlanishi chuqur normal uyquni ta'minlay olmaydi.

Kiyinish ham gigienik omil sifatida bolaning jismoniy rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Kiyim har doim bolani o‘rab turgan havo temperaturasiga mos kelishi kerak. U engil materialdan tayyorlanib, havoni, issiqlikni yaxshi o‘tkazadigan bo‘lishi, oson yuviladigan, yaxshi ho‘llanadigan, namni shimadigan, elastik va badanni bevvovta qilmaydigan bo‘lishi lozim.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o‘tishi kerak. Bola stol atrofida yaxshi ishtaha bilan o‘tirsam, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo‘lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil qiladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigienik malakalarni, stol atrofida o‘zini to‘g‘ri tutib o‘tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhimi - bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyatga egadir.

Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir.

Jismoniy mashqlar deganda, jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog‘liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig‘indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida gimnastika, o‘yin, sayr kabilarni qamrab oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan gimnastika organizmga nafis ta’sir etish yoki uning alohida tizim va funktsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Gimnastikaning asosiy, gigienik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud.

O‘yin bolaning jismoniy kuchini, qo‘llarining qattiqligini, qaddi-qomatining tikligini, ishonchli ko‘zlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda o‘tkir zehn, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yinning tarbiyaviy ahamiyati katta bo‘lib, bolalarda g‘amxo‘rlik, o‘z jamoasi uchun qayg‘urish, birgalikdagi harakatlanishdan quvonish, do‘stlik va o‘rtoqlik hissini kuchaytiradi.

Sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o‘tkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo‘lib, ularning sog‘ligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

6. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi

sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) tuygʻusini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratiladi. Binobarin, fuqaro muayyan davlatning aʼzosi sifatida uning shaʼni, obroʻ-eʼtiborini taʼminlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur.

«Vatan atamasi aslida arabcha soʻz boʻlib, ona yurt maʼnosini bildiradi, Vatan tushunchasi ken va tor maʼnoda qoʻllaniladi. Bir xalq vakillari jumuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng maʼnodagi tushunchadir. Kishi tugʻilib oʻsgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor maʼnodagi tushunchadir»¹¹.

Vatanparvarlik shaxsning oʻzi mansub boʻlgan millat, tugʻilib oʻsgan vatani tarixidan gʻururlanishi, buguni toʻgʻrisida qaygʻurishi hamda uning porloq istiqboliga boʻlgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon boʻladi:

9. Vatanga boʻlgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.

10. Oʻzi mansub boʻlgan millat oʻtmishi, urf-odatlarini, anʼanalari va qadriyatlariga sodiqlik.

11. Vatan va millat tarixidan gʻururlanish.

12. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan maʼnaviy boyliklarini asrash, ularni koʻpaytirish borasida gʻamxurlik qilish.

13. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yoʻlida mehnat qilish.

14. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.

15. Vatan va millat obroʻi, shaʼni, or-nomusini himoya qilish.

16. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega boʻlishi.

Baynalminallik («inter» – orasida, oʻrtasida, aro, «natio» – xalq) oʻzga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, anʼanalari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos maʼnaviy-axloqiy fazilatlaridan biridir.

Oʻquvchilar oʻrtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbatini, matbuot konferantsiyasi,

¹¹ Ibrohimov A., Sultonov X., Joʻraev N. Vatan tuygʻusi. – Toshkent, Oʻzbekiston, 1996. – 139-bet.

viktorina, uchrashuv, ko'rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmunini birgalikda o'rganish, kinofilmlar tomosha qilish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

7) o'quvchilarga fuqaro mudofaasi hamda harbiy bilim asoslarini bo'yicha dastlabki nazariy bilimlarni berish va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;

8) o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi hamda konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;

9) o'quvchilarda g'oyaviy onglilikni tarbiyalash asosida, ularda terrorizm va diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash;

10) o'quvchilarning vatan himoyasini ta'minlash borasidagi harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

11) o'quvchilarda favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, shuningdek, qurolli hurujlardan himoyalani sh ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

12) ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan boshlang'ich harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'rtasida bht (boshlang'ich harbiy ta'lim o'quv fani) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni namoyish etish imkonini beruvchi musobaqaning tashkil etilishi bu borada ijobiy natija bera oladi. o'qituvchi rahbarligida «shon-shuhrat» muzeylariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar ham o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

4. Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;

- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongini qaror toptirishga erishish;

- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

- o'quvchilarning huquqiy madaniyatini (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi muvofiqsiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- keng ko'lamlil ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;

- shaxs huquqiy ongini shakllantirish;

- shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik jarayonda huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:

-o'quvchilar tomonidan "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" kabi o'quv fanlarining o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

- ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktab va boshqa o'quv yurtlari ichki tartib-qoidalari, shuningdek, o'quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni buzish hollarining kamayganligi, o'z-o'zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari – huquqiy ongning muayyan darajasi;

- ijtimoiy-huquqiy faolliklari (o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) – amaliy-huquqiy faoliyat ko'lamini.

O'quvchilardagi qiziqishni inobatga olgan holda huquqiy mazmundagi, xususan, "Biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari", "Maishiy xizmat turlaridan foydalanishning huquqiy mohiyati", "Oldi-sotdi munosabatlarining huquqiy-axloqiy negizlari", "Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari", "XXI asrga narkotiklarsiz qadam tashla!", "Sening huquq va burchlaring", "Yoshlar ijtimoiy mehnatini tashkil etish shartlari", "Nikoh-muqaddas bitim", "Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari", "Terrorizm – mudhish jinoyat", "Qonuniy harakat va harakatsizlik nima?" kabi mavzularda ma'ruza va seminarlar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida ularni huquqiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, jinoiy xatti-harakatlar va ularning oqibatlari xususida davra suhbatlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va konferentsiyalar o'tkazish, shuningdek, huquqiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish g'oyat muhim.

Shaxsda huquqiy sifatlarni qaror topishi uning ijtimoiy – huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog'liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g'oyalari o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy

yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.

Shaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;

- 1) huquqiy ong;
- 2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotning ma'lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo'lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy faoliyat huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti–harakatlar majmui.

Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Fuqaro deb kimga aytiladi?
2. Fuqarolik tushunchasining mazmunini sharhlang.
3. Fuqarolik tarbiyasini tashkil qilishdan ko'zlangan maqsadni shaxsiy mulohazalaringiz asosida bayon eting.
4. Davlat ramzlarini bilish va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
5. Vatanparvarlik nima va shaxsda vatanparvarlik xislati qanday shakllantiriladi?
6. Baynalminallik tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
7. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy mohiyatini ochib bering.

8. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
9. Mehnat faoliyatini tashkil etish shakllarini izohlang.
10. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?
11. Jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
12. Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?
13. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini izohlang.
14. Estetik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlariga tavsif bering.
15. Estetik madaniyatni shakllantirish vositalarini bayon eting.

10-amaliy ish

1-topshiriq. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarining o'zlashtirilishiga doir blits-so'rov savollari

1. Iqtisodiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'quvchilarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. O'quvchilarga iqtisodiy bilim berishda qanday tarbiya metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq?
5. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda qanday tarbiya shakllaridan foydalaniladi?
6. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda qanday tarbiya vositalaridan foydalaniladi?

2-topshiriq. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar

2.1-topshiriq. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarigadoir jodiy test topshirig'i.

1. *Gapni tugallang.*
"Ekologiya" tushunchasi ilk bo'ri nemiszoologi
2. *Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.*
O'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.. ataladi.
3. *Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.*

...O‘quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta‘limiy jarayondir.

4. *Gapni tugallang.*

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ...

5. *Gapni davom ettiring.*

Ekologik faoliyat ...

6. *Gapni tugallang.*

Ekologik madaniyat o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini ...

7. *Gapni davom ettiring.*

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur

8. *Gapni davom ettiring.*

Ekskursiya, ekologik kechalar, ekologiya haftaligi, shoirlar va olimlar bilan uchrashuvlar, sahna ko‘rinishlari ...

9. *Gapni tugallang.*

Bashorat qilish, ikki yoqlama obrazlar, o‘xshatish, o‘yin kabilar ...

10. *Gapni davom ettiring.*

Hadislar, rivoyat va hikoyatlar, pandu nasihatlar, maqol va matallar, topishmoqlar, rebus, videoroliklar ...

2.2-topshiriq. Ekologik tarbiyani amalga oshirish yo‘llarini o‘zlashtirishga doir muammoli vaziyat

Quyidagimuammolivaziyatbilantanishingvaunihaleting.

Yosh o‘qituvchi 5-sinf o‘quvchilarini maktab bog‘ida daraxt ildizlarini qazib olish uchun olib bordi. O‘quvchilarga ushbu ish jarayoni qanday amalga oshirilishi tushuntirildi va ular chaqqonlik bilan ishga kirishishdi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining oldiga borib, ularni o‘llab-quvvatlab turdi. Oradan biroz vaqt o‘tar-o‘tmas, ish jarayoni to‘xtab qoldi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi belkuraklarga tayangan xolda turaredi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan asabiylashgan xolda ularni koyir, dangasalikda ayblab ishlashga jalb etaredi. O‘quvchilar tezda ishni amalga oshirishga kirisharedi yu, ammo jarayon hech oldinga siljimas edi. Nizoli vaziyatlar kelib chiqish ehtimoli ortdi. Ayting-chi, nega bunday bo‘ldi?

Fuqarolik tarbiyasi

1-topshiriq. “Fuqarolik insonga nima uchun kerak?” mavzusidagi munozarani o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

1. O‘qituvchi savolni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashlaydi va o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo‘lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.
3. Hamma o‘z fikrini bildirib bo‘lgach, o‘qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to‘g‘ri javoblar ajratib olinadi.

2-topshiriq. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalariga doir blits-so‘rov savollari

1. Fuqaro deganda nima tushuniladi?
2. “Fuqaro”, “fuqaroligi bo‘lmagan shaxs” va “chet el fuqarosi” tushunchalariga izoh bering.
3. Fuqarolik nima?
4. Kimlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘la oladi?
5. Fuqarolarning burchlariga nimalar kiradi?
6. Fuqarolarning majburiyatlari nimalardan iborat?
7. Fuqarolarning ma’suliyati nimalardan iborat?
8. Fuqarolik tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
9. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nima?
10. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat?

3-topshiriq. Vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyasining ijtimoiy ahamiyatiga oid topshiriqlar

3.1-topshiriq. “Vatanparvarlik, baynalmilallik va harbiy vatanparvarlik” mavzusida sayohat metodini tashkil etish va o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

1. Talabalar uch guruhga bo‘linadilar hamda ularga “vatanparvarlik”, “bayanalmilallik” va “harbiy vatanparvarlik” mavzusiga doir ijodiy ish tayyorlash vazifasi topshiriladi;
2. Guruhlarda ishlash uchun vatman qog‘ozi, marker va skoch kabi jihozlar taqdim etiladi.

3. Guruhlarda ishlash tartibini o‘qituvchi boshqarib borishi va talabalarning har birining ishtirokini ta’minlashi zarur.

4. Talabalar ularga berilgan mavzu bo‘yicha ijodiy ishni tayyorlab bo‘lganlaridan so‘ng, uning taqdimotini amalga oshirishadi.

3.1-topshiriq. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasini aniqlashda “Chaynvord” metodi

Mazmuni	Tushuncha
Vatanga bo‘lgan, unga sadoqat	
O‘zlari, an‘analari, millat va haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, turmush tarzi, til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish	
O‘zi mansub bo‘lgan millat o‘tmishi, urf-odatlari, an‘analari, sodiqlik	
Vatan va millat tarixidan	
Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma‘naviy boyliklarini asrash, ularni borasida g‘amxo‘rlik qilish	
O‘zga millat va elatlarning tarixi, bugungi taraqqiyoti, umuminsoniyat madaniyatiga qo‘shgan hissasi, jahon tutgan o‘rni, vijdon erkinligiga oid ma‘lumotlarni berish	
Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo‘lida faoliyatini tashkil etish	
O‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, turmush tarzi, til xususiyatlari, vijdon erkinligiga hurmat, milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi shakllantirish	
O‘zga millat va elatlarning vakillari bilan o‘zaro aloqalarini o‘rnatishga amaliy jihatdan tayyorlash	
.....ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi. kurashish	
Vatan va millat obro‘yi,, or-nomusini himoya qilish	
Yurt ravnaqi va millat ishonish	

4-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir topshiriqlar

4.1-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir ijodiy test topshirig'i

1. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.

... o'quvchilarga huquqiy mehyorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.

... muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va ehtiқodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

3. Gapni tugallang.

Huquqiy mehyorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qathiy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida ehtiқof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui ...

4. Gapni davom ettiring.

...xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi.

5. Gapni davom ettiring.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi: ...

6. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.

... – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

4.2-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir tushunchalar tahlili metodini bajarish

TUSHUNCHALAR TAHLILI		
Tushunchalar	mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o‘rni
Huquqiy ta’lim		
Huquqiy ong		
Huquqiy madaniyat		
Huquqiy tarbiya		
Huquqiy faoliyat		
Milliy g‘urur		

Ma’naviy-axloqiy tarbiya

1-topshiriq. “Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishish nima uchun zarur?” mavzusida erkin yozish va muhokama qilish.

Topshiriq: “Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishish nima uchun zarur?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi mahlum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

2-topshiriq. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir blits-so‘rov savollari

1. “Axloq”, “axloqiylik”, “etika” tushunchalariga tahrif bering.
2. Mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farq nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Sizningcha, mazkur tushunchalar bizning jamiyatimizda qay tarzda namoyon bo‘lmoqda?
4. Mazkur tushunchalar sizning hayotingizda qanday ahamiyatga ega?
5. Axloqiy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Maktab, kollej va oliy ta’limdagi o‘qituvchilar sizning tarbiyangizga qanday tahsir ko‘rsatishgan (ko‘rsatishmoqda)?

7. Siz kelajakda o'z o'quvchilaringizni qanday tarbiyalashni tasavvur qila olasizmi?
8. Siz kelajakda o'z farzandlaringizni qanday tarbiyalashni xohlaysiz?
9. O'zingizni tarbiyali inson deb ayta olasizmi?
10. O'zingizni axloqli inson deb hisoblay olasizmi?
11. Sizda o'zingiz tuzatishni xohlaydigan axloqiy kamchiliklar mavjudmi?
12. O'zingizda qanday sifatlarni rivojlantirishni xohlaysiz?
13. Qanday inson axloqiy yetuk hisoblanadi?
14. Sizningcha, axloqiy yetuklik bugungi kunda qanday tarzda namoyon bo'lishi muhim sanaladi?
15. Bugungi kunda tengdoshlaringizni axloqiy yetuk insonlar deb ayta olasizmi?
16. Kursdoshlaringizning axloqiy rivojlanishidagi asosiy muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni sanab bering.

3-topshiriq. O'ylang / juftliklarda fikr almashing.

Quyida keltirilgan Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir qarashlari bilan tanishing va ularni muhokama qiling.

1. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi (Abu Nasr Forobiy).

2. Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun xar bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim (Abu Rayxon Beruniy).

3. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi... Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo'ladi:

1. Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnlilikdan iborat.
2. Xulqiy fazilat – intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir (Abu Nasr Forobiy).

4. Yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishida hukumat ahllarining ta'siri ham zo'r bo'ladi (Abu Ali ibn Sino).

5. Kishi ikki narsa bilan xayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z (Yusuf Xos Xojib).

6. Ey farzand, yaxshilik qil va qilg'on yaxshilikdan hargiz pushaymon bo'lmagil. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetadi, sening ko'nglingga ham undan ziyodroq shodlik va yozish xuramlik yetishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgusidur. Yaxshilikning yaxshilik bilan qaytishi ayni haqiqatdir (Kaykovus).

7. Insonda ikki narsa bo'lsa unga muruvvat yo'li yopiladi: biri bexuda so'zlarni ko'p gapirsa, ikkinchisi, uning so'zlari yolg'on bo'lsa (Ahmad Yugnakiy).

8. Ulug'likka yetsang, unutmang o'zing

Agar atlas kiysang, unutmang bo'zing (Ahmad Yugnakiy).

9. Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi (Amir Temur).

4-topshiriq. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. "Kerakli so'zlarni topib qo'yning" treningini o'tkazish.

Treningning maqsadi: talabalarda guruhdoshlariga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish.

Treningning borishi:

I. O'qituvchi talabalarga bir varaq qog'oz olib, doskaga yozilgan quyidagi gaplardagi tushirib qoldirilgan so'zlarni topib yozishni so'raydi.

1. Men ko'proq insonlardagi ... qadrlayman.
2. Men o'z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilaman.
3. Men o'z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilmayman.
4. Men o'zimda ko'proq ... fazilatlarni aks ettirishni xohlayman.

5. Mening hayotdagi eng asosiy maqsadim – bu ...

6. Men istalgan qarorni chiqarishda ... asoslanaman.

II. Talabalar individual tarzda gaplardagi kerakli so'zlarni yozib bo'lishgandan so'ng, dastlab juftliklarda va so'ngra guruhlarda o'z fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashdilar.

III. Guruhlarda muhokama qilish uchun ajratilgan vaqt tugagach, o'qituvchi doskaga quyida ko'rsatilganidek, "Toifalash jadvali"ni chizadi va uni guruhlarda to'ldirishni so'raydi.

Biz qadrlaymiz.....	Biz hurmat qilamiz...	Biz hurmat qilmaymiz....	Biz erishishni istagan fazilatlar....	Bizning maqsadimiz...	Biz tayanadigan asoslar...

IV. Har bir guruh o‘z toifalash jadvallarini to‘ldirib bo‘lishgach, alohida-alohida taqdimot qiladilar.

2-topshiriq. Muammoli savollar.

Quyida keltirilgan muammoli savollar bilan tanishing va ularni hal eting.

1. Uchinchi sinf o‘quvchilari shuhratparastlik va manmanlik tushunchalarining mazmuni bir xil yoki boshqacha ekanligi to‘g‘risida bahslashib qoldilar. Nima uchun bolalar bu masalani tushunib olishlari qiyin? Ularga qanday qilib yordam berish mumkin?

2. “Uning vijdoni toza emas”, “Bu – vijdonsiz kishi”, “Bu ishni qilishga mening vijdonim yo‘l qo‘ymaydi” degan gaplarni siz qanday tushunasiz? Vijdonning kishi axloqiy tarbiyasiga qandaydir aloqasi bormi? Bu qanday aloqa?

3. Televidenie orqali namoyish etilayotgan chet el seriallarining yoshlar tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta’siri bor deb o‘ylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildirishda ota-onalar qanday yo‘l tutishlari lozim, deb hisoblaysiz?

4. Siz insonlarda qadrlaydigan, ulug‘laydigan axloqiy fazilatlar qaysilar va siz “axloqsizlik” deb qaraydigan sifatlar nimalar?

O‘quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi


1-topshiriq. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir blits-so‘rov savollari

1. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?
2. “Jismoniy kafolat” tushunchasi o‘zida nimani ifoda etadi?
3. Jismoniy tarbiyaning maqsadi nima?
4. V.A.Slastenin, I.F.Isaev, Ye.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning qanday vazifalarini ajratib ko‘rsatishadi?

5. B.T.Lixachev tasnifi bo'yicha jismoniy tarbiyaning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, sog'lomlashtiruvchi va umummadaniy vazifalariga izoh bering.

6. Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?

2-topshiriq. Jismoniy va estetik tarbiya:tushunchalar mazmunini ifodalang va qiyosiy taqqoslang.



3-topshiriq. Muzeysga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanma tayyorlash.

Ekskursiya ishlanmasini tayyorlashga doir ko'rsatmalar:

1) ekskursiya ishlanmasi o'zaro bir-biri bilan bog'langan quyidagi aniq *tarkibiy tuzilishga* ega bo'lishi lozim: tayyorlov bosqichi, ekskursiyaning borishi va ekskursiyadan keyin amalga oshiriladigan ish;

2) *tayyorlov bosqichida* ekskursiya mavzusi, uning mazmun-mohiyati, o'tkazilish muddati belgilab beriladi. Shuningdek, ekskursiya uyushtiriladigan ob'ektning joylashgan o'rni va marshruti aniqlanadi. Ekskursiya davomida beriladigan namunaviy savollar tuziladi;

3) *ekskursiyani amalga oshirish* jarayoni rejalashtirilishi lozim. turli xil savollardan foydalaniladi: 1) dalillar keltirishni talab etuvchi savollar (qanday nomlanadi, qanday qismlardan iborat, qanday xususiyatlar va o'ziga xosliklarga ega); 2) fikrlashni faollashtiruvchi, qiyoslash, taqqoslash, farqini ajratish, umumlashtirishni talab etuvchi savollar (munosabat, aloqadorliklarni hosil qilish uchun); 3) anglash faolligini rag'batlovchi, ijodiy fikrlash, xulosalar chiqarishga undovchi savollar;

4) *ekskursiyadan so'ng amalga oshiriladigan ish* (alg'bom tayyorlash).

11-mavzu. Tarbiyaning umumiy metodlari.

Reja:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Muammoli pedagogik vaziyatlar.
2. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Muammoli pedagogik vaziyatlar.

To'rtinchi sinfda har xil buyumlar: qalam, ruchka, rezinka va boshqalar narsalar yo'qola boshladi. Bir kuni sinfdagi qizchaning bosh kiyimi yo'qoldi. O'qituvchi topilmalar byurosining faoliyati haqida gapirib berdi. Bolalar topib olingan narsalar qaytarib berilishi to'g'risidagi kattalardan eshitgan misollarni aytishdi.

O'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'llagan? Bu metodning samaradorligi nimalarga bog'liq? Har doim ham ushbu metod samara beradimi?

O'qituvchi quyidagicha hikoya qiladi: O'g'lim (8 yosh) qorong'idan va balandlikdan qo'rqadi. Men imkon boricha uni ko'proq ana shu qo'rquvni yenga oladigan sharoitga qo'yaman: Goho ob-havo qandayligini bilib kelish uchun xovliga, goho go'yo esidan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong'u xonaga yuboraman.

O'yin paytida ayrim paytlari chuqurlikka sakraymanda, "Daraxtning anavi novdasini menga olib ber. Uni emas, narigi, yuqoridagisini" deyman.

O'qituvchi to'g'ri qiladimi? Bu qanday tarbiya metodi? U nima uchun samarali?

Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi yerda g'ijimlangan qog'oz parchasi yotganini ko'rib, bir o'quvchiga "qog'ozni ol", deb murojat qildi. O'sha o'quvchi sekin partadan turib "men tashlamaganman, nega olarkanman" deb, yana joyiga o'tirdi.

O'qituvchi nima qilishi kerak? Sinfning ta'sirlanishi qanday bo'ladi va bu nimaga bog'liq?

Ko'p bolali oilaning otasi mamnun bo'lib hikoya qiladi: yer ag'darish biz uchun hech gap emas. 1-2 kg konfet, pechene sotib olib kelamanda, qani bolalar bu sizlarga, lekin oldin yerni chopib beringlar, deyman.

-Bolalar konfetsiz yer ag‘darishmaydimi, - so‘radik biz.

-Uncha tirishib ishlashmaydi-da, - tushuntirdi ota.

Ota qo‘llagan rag‘batlantirish usuliga qanday baho berasiz?

4-sinf o‘quvchisining onasi hikoya qiladi: Avvalari o‘g‘limning hamma ishi joyida edi. Men ishlamasdim, unga ko‘p vaqt ajratdim. Ishga kirganimdan so‘ng ”ikki baholar” ola boshladi. Kechqurun darsini tekshirsam, topshiriqlarning bir qismi bajarilmagan, bajarilgani esa iflos, tushunarsiz bo‘lgani uchun uni qayta ko‘chirish kerak. Lekin qachon ulguradi. Uxlash vaqti bo‘lib qolardi.

Ota-onaning xatosi nimada. Siz qanday yo‘l tutardingiz?

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» - yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Tarbiya amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar - bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari yig‘indisidir.

Tarbiya usullari - umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar - bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar - metodlarga aylanishi mumkin.

Tarbiya usullari - umumiy metodning bir qismi, alohida harakati

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullara deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita - bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat - tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish - bu usullar. So‘z (keng ma’noda) - tarbiya vositasi, biroq replika, taqqoslash - usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

Tarbiya vositalari - bu usul ham emas, metod ham emas, usullar yig‘indisi.

2. Tarbiya metodlari tasnifi. Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Mariyenkning tasnifida tarbiya metodlari guruhlari quyidagicha nomlanadi: tushuntirishli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Skinner nazariyasi o'qitish va ta'lim olish jarayonida o'qituvchilarning o'zlarini hulq-atvorlari muhim bo'lmagan rolda ekani uchun tanqid qilinadi, bu mavzuda gap ketganida unga e'tibor berishga chegara qo'yilgan, bu o'rinda jazo tayinlash va mukofotlashdan ko'ra ko'proq, deydi, o'qituvchilar o'zlari (Men termini 5-bo'limda to'laroq yoritilgan) namuna bo'lishlari zarur. Bu "ahloq o'ynini o'ynash"ni istamayotgan o'quvchilar – mehribonlik ko'rsatilmagan yoki, ular ta'limda omadga erishmagan, yo ular o'qituvchi tomonidan maqtab, yo koyilmagan – bilan yuzaga kelgan muammoni hal qilishishart bo'lgan o'qituvchilarga kichik yordam taklif qiladi.¹⁸

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

- Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Hozirgi vaqtda o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko'proq ob'yektiv va qulay metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

- Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar.

- Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari.

- Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantirish metodlari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida

¹⁸Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 5 bet.

ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna.

Bu guruhga mansub metodlarning mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim.

Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida hamda Internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini

qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni, tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ular ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy,

estetik va huquqiy mavzularda o'tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish (mashq) metodlari: mashq, pedagogik talab, ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat.

Mashq va o'rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, tjobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatleri boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar, mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Faoliyatni rag‘batlash va motivatsiyalash metodlari: rag‘batlantirish, tanbeh berish, uyaltirish.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglash olishi zarur.

Tanbeh berish - eng muhim jazo chorasi. O‘qituvchi o‘quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.

Uyaltirish - o‘quvchining ma‘lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun mas‘ul bo‘lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm- hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg‘ularni ehtiyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

2. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma‘lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq:

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Yosh bu oddiygina qara yashaganligi

son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda hai shakllantirish mumkin. Biroq ha8 bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari hai o'zgarmasdan qiyoiayoayo. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari.

Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qurollar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchidan ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo'ladi.

Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tarbiya metodi, usuki va vositasi tushunchalariga ta'rif bering.
2. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.
3. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
5. Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlarini qo'shimcha manbalardan o'qib to'ldiring.

11-amaliy ish


1-Topshiriq. "Bizga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ota-onalarimiz va o'qituvchilarimiz qanday yo'llardan foydalanishgan?" mavzusida erkin yozish topshirig'i

Topshiriq: "Bizga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ota-onalarimiz va o'qituvchilarimiz qanday yo'llardan foydalanishgan?" mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.
2. besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma'lum qilinadi. biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

2-topshiriq. Tarbiyaning umumiy metodlarini aniqlashga doir nostandart topshiriq



Munozara, 6.

- 2.
- 3.

1. Musobaqa. 2. Rag'batlantirish. 8. Izohlash 9.Hikoya. 10. Mashqlantirish. 11. Namuna. 12.Izohlash. 13.Namuna. 14. Ishontirish. 15. O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish. 16.Yo'riqnoma. 17. Topshiriq. 18.Ma'ruza. 19. Tushuntirish. 20. Odatlantirish. 21. Etik suhbat 22 Munozara.. 23.Pedagogik talablar. 24. Tarbiyalovchi vaziyat

3-topshiriq. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlay olishga o'rgatish hamda tarbiya metodlarini o'zlashtirishga oid interfaol metodlar. 1-topshiriq. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari hamda tarbiya metodlari tasnifiga doir Assisment metodi

<p>Test Tarbiya metodlariga berilgan ta'rifni tanlang. A. Turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. V.Shaxsga tarbiyaviy ta'sir etish, uning hayoti va faoliyatini uyushtirish asosida unda ma'naviy-</p>	<p>Muammoli vaziyat Sinf o'quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.</p>
---	---

axloqiy tushuncha, e'tiqod va fazilatlarni tarkib toptirish usullari. S. Tarbiyalash, pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatga ega xatti-harakatlar majmui.	
Simptom Tarbiyaning umumiy metodlari: Tarbiya vositalari:	Amaliy ko'nikma Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari qo'llaniladi?

4-topshiriq. Shaxs ongini shakllantirish metodlariga oid amaliy topshiriqlar

Quyidagi jadvalni to'ldiring. Shaxs ongi va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari uchun tegishli bo'lgan talablarni belgilang.

Talablar	ijtimoiy ongini shakllantirish metodlari	ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari
odatlantirish		
etik suhbat		
hikoya		
mashqlantirish		
pedagogik talablar		
ma'ruza		
izohlash		

tushuntirish		
jamoat fikri		
tarbiyalovchi vaziyatlar		
nasihat		
munozara		
ishontirish		
yo‘riqnoma		
namuna		

5-topshiriq. Shaxs ongi shakllantirishga xizmat qiluvchi metodida “Kollaj interfaol metodi” orqali qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1-guruh. Sharq mutafakkirlari va davlat arboblari fikrlarini shaxs ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod usullarini aniqlang.



Абуали Сино - Avicenna


Hayo – insonning abadiy go‘zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o‘xshaydi.



Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.



Adab va tavoze' do'stluq
ko'zgisiga jilo Bo'lur, ikki
jonibdin yorug'lik yetkarur.



Shafqatsiz kishi azobga
loyiqdir



Insoniyat to'plagan bilim —
bebaho xazina. Dinlar, ta'limotlar,
falsafiy maktablar tarixi, ularning
ma'rifiy mag'zi, mohiyatini bilish
bugungi avlod uchun juda zarur.
Chunki «kuch-bilim va ma'rifatda»



Tarbiya biz uchun yo hayot – yo
mamot, yo najot – yo halokat, yo
saodat –yo falokat masalasidir

IV BO‘LIM. TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISH

12-mavzu. O‘zbekistonda ta’lim tizimini boshqarish

Reja:

- 1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.**
- 2. Maktabda rahbarlar faoliyati.**

Tayanch tushunchalar: O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, uzluksiz ta’lim, ta’lim, ta’lim bosqichlari, ta’lim jarayoni tamoyillari, zamonaviy talablar, o‘qitish qonunlari, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’limni tashkil etish shakllari, tarbiya nazariyasi, tarbiya, shaxs, rivojlanish, qonun, qoida, talab, pedagogika, davlat ta’lim standartlari, intellektual, ma’naviy-axloqiy tarbiya, barkamol shaxs, shart-sharoitlar, islohatlar, yangiliklar, mehnat, texnologiya, mustaqil fikrlash, metodlar, ta’lim xususiyatlari, omillar.

1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari


Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etildi. Respublikaning «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida uzluksiz ta’lim tizimining mohiyati, yo‘nalishlari, ta’lim mazmuni, ta’limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan.

Ta’lim va tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida uning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya’ni ta’lim-tarbiya

jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirish ta'lim mazmunining ochiqqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek, tarbiya jarayonining demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Tamoyil mazmuniga ko'ra o'quvchilarning xohishlariga ko'ra dars jadvaliga qo'shimcha fanlar kiritiladi, yuqori sinflarda muayyan fanlar chuqurlashtirilib o'rgatiladi, fakultativ mashg'ulot va to'garaklar tashkil etiladi, darslarning yakka va guruhli shaklda bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Ta'lim O'zR ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e'tirof qilindi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ta'lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi. Davlat ta'limiy siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar:



4-shakl. Davlat ta'limiy siyosatining asosiy tamoyillari.

Ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va

qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirish ta'lim mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek, tarbiya jarayonining demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Tamoyil mazmuniga ko'ra o'quvchilarning xohishlariga ko'ra dars jadvaliga qo'shimcha fanlar kiritiladi, yuqori sinflarda muayyan fanlar chuqurlashtirilib o'rgatiladi, fakultativ mashg'ulot va to'garaklar tashkil etiladi, darslarning yakka va guruhli shaklda bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Ta'limning uzluksizligi va izchilligi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik asosida yo'lga qo'yilishini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning, o'z navbatida ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiylik o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi yangi turdagi o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishining o'quvchi tomonidan ixtiyoriy tanlanishi mumkinligini anglatadi.

Akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta'lim olishni o'quvchilar o'z iqtidorlari va xohish-istaklariga ko'ra tanlaydilar.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yutuqlariga bog'liq holda rivojlanib borishini anglatadi.

O'zRning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (5-modda)da Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanganligi aytiladi. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu holatni yoritishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil, shuningdek, chet ellik fuqarolarning respublika hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq

bilim olish huquqiga egaliklarini ham ifodalaydi. O‘zRda istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda respublika fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo‘ladilar.

Ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O‘zRning «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (34-modda)da o‘z ifodasini topgan. Davlat ta’lim standartlari (DTS) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda oliy ta’lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgib beradi. Davlat ta’lim standartlarini va (yoki) davlat ta’lim talablarini bajarish barcha ta’lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Shuningdek, ta’lim muassasalari DTS asosida o‘quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin.

Bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, ta’limning barcha bosqichlarida bu tamoyilga to‘la amal qilinadi. Ta’lim oluvchilarning iste’dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilib boriladi.

1993-yil 5-fevralda O‘zR Prezidentining «O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni rag‘batlantirish choralari to‘g‘risida»gi Farmoni, 1993-yil 25-martda «O‘zbekiston o‘quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi respublika Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra ilmiy salohiyat, iqtidorga ega talabalar va aspirantlar uchun O‘zR Prezidentining Davlat stipendiyalari ta’sis etildi. Stipendiya iqtidorli talabalarga har yili o‘n bir ta’lim yo‘nalishi – texnika va informatika, tibbiyot, fizika-matematika, iqtisodiyot, jurnalistika, gumanitar, huquq va xalqaro munosabatlar, pedagogika, madaniyat va san’at, chet tillar, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlov yakunlariga ko‘ra beriladi. Iqtidorli talabalar uchun, shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino va Imom al-Buxoriy nomidagi stipendiyalar joriy etilgan.

Bundan tashqari iste’dodli yoshlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, chet elda ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida «Umid», «Iste’dod», «Respublika bolalar fondi», «Sog‘lom avlod uchun», «Ulug‘bek» va boshqa jamg‘armalar tashkil etilgan.

Ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg‘unlashtirish ta’limni tashkil etish, sifatini oshirish, bunda davlat va jamiyatning hamkorlikka erishishni nazarda tutadi.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Har bir rivojlangan mamlakat o'z ta'lim tizimiga ega.

Ta'lim tizimining shakllanishi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq.

Uzluksiz ta'lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yuritadigan barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi DTSga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, tadqiqot ishlarini boshqaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari hamda ularga qarashli korxonalar, muassasa, tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim bir nechta **ta'lim turlarini** o'z ichiga oladi. Ya'ni: "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida "Ta'lim turlari" quyidagicha berilgan:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat, xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar ishtirok etadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi.

Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek taʼlimning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi.

Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi.

Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj boʻlgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalarida, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda taʼlim oladi.

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) taʼlim oluvchilar soni oʻttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

2. Maktabda rahbarlar faoliyati.

Maktabda rahbarga mansab vazifalarini bajarishda hokimlik zarur bo'ladi. Ta'sir etish vositasi sifatida hokimlik to'rt xil bo'ladi:

1. Qo'rqitish orqali ta'sir etishga asoslangan hokimlik. Ishni yo'qotish, xizmat mansabidan tushirish, mukofotni yo'qotish va h.k. lar bilan qo'rqitish.

2. Mukofotlashga asoslangan hokimlik qo'l ostidagilar ehtiyojlarini qoniqtirish orqali ta'sir qilish.

3. Ekspert hokimlik. Bajaruvchilarni rahbarga ishonishlari orqali amalga oshiriladi. Bajaruvchilar o'z rahbarlariga so'zsiz ishonadilar, u eng optimal qarorni qabul qiladi, muammoni hal qiladi. Shifokor bilan bemor o'rtasida, o'qituvchi bilan talaba o'rtasida shunday hokimlik mavjuddir.

4. Etalon hokimlik (o'rnak ko'rsatish) – rahbarning shaxsiy xususiyatlariga asoslangan ta'sirdir. Xodimlar rahbarlariga o'xshashga harakat qiladilar. Bunday rahbar bo'lish uchun quyidagi maslahatlarga amal qiling:

1. Sizni barcha jamoa a'zolari diqqat bilan kuzatib turganliklarini esdan chiqarmang.

2. O'zingizda yo'l boshchilik sifatlarini rivojlantiring.

3. Nutqingizni kuzatib boring.

4. O'z qarorlaringizda muhim bo'ling, ketma-ketlikka rioya qiling.

5. Tashqi ko'rinishingizni tartibga soling.

6. Qo'l ostingizdagilarni o'zingizga qiziqting.

7. Qo'l ostingizdagilar fikri bilan hisoblashing.

8. Qonuniy hokimiyat (an'anaviy hokimiyat) rahbariyatga bo'ysunish an'anasiga asoslangan. Bu tarixiy shakllangan munosabatlar usulidir. Bu usulda bajaruvchi xodim rahbar xodimga emas, balki ma'lum mansabga bo'ysunadi. Bu rahbarni o'z qo'l ostidagilarga ta'sir ko'rsatishning eng qulay usulidir. Ammo o'zgarishlar vaqtida bu usul samara bermaydi.

Hozirgi bosqichda ta'lim va tarbiyada novatorlik yondashuvi jadal rivojlanayotganligi ta'lim muassasasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Yangicha sharoitlarda «ta'lim» tushunchasi mazmunini tubdan qayta idrok etish zarur. Bu uzluksiz ta'limning o'xshash tizimi yordamida ijtimoiy va kasbiy moslashgan yaxlit shaxs mazmunining

maqsadi, vazifalari, metodlari va vositalarini shakllantirishni qayta idrok etishni bildiradi.

Shu munosabat bilan bilimlar va hayotga «ta'lim» tushunchasini shaxs tashabbusining ahamiyatini ta'kidlaydigan tarzda yondashuv sifatida tushunish lozim. Shu bois «ta'lim» tushunchasi bu tez o'zgaruvchan dunyoda yashash uchun zarur bo'lgan yangi metodologik usullar, ko'nikmalar, ko'rsatmalar va qadriyatlarni o'z ichiga olishi kerak. Boshqacha aytganda, ta'lim shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga ega yangi vaziyatlarni muvaffaqiyatli uddalay olishi uchun harakatlanuvchi jamiyat tomonidan prognoz qilingan zarur ijtimoiy-axloqiy jarayondir.

An'anaviy tarzda vujudga kelgan ta'lim tizimi strategik jihatdan yo'l qo'yib bo'lmaydigan «qo'llab-quvvatlovchi» ta'lim funksiyasini bajargan holda «ta'lim» so'zining yangicha talqiniga oid maqsadli ko'rsatmalarni amalga oshirishga yo'naltirilmagan.

Ko'maklashuvchi ta'lim faqat ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy yo'nalishlarning mavjud tizimini saqlashga, ya'ni konservativ-barqaror jamiyatning normal faoliyat yuritishiga yo'naltirilgan. Shu bois bunda shaxs allaqachon ma'lum bo'lgan, takrorlanuvchi vaziyatlardan chiqa olishi uchun mo'ljallangan, qayd qilingan usullar va qoidalar ustunlik qiladi.

Raqobatbardosh malakali kadrlarning eng muhim sifatlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

— o'qishdagi o'zlashtirishning yuqori darajasi va o'zini o'zi rivojlantirishga qodirligi;

— mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida tegishli ta'lim muassasasida olingan malakani tasdiqlash;

— ishlab chiqarishda yuqori darajadagi ijtimoiy faollik va mehnat unumdorligi;

— ishlab chiqarishda intizomlilik, mas'uliyat, ixtirochilik, ijodkorlik;

— o'quv fanlari bo'yicha olimpiadalar hamda tanlangan kasb mahorati tanlovlarida qatnashish va g'olib chiqish;

— ta'limni davom ettirishga ehtiyoj.

Ta'lim muassasasining aynan shunday xislatlarga ega bo'lgan bitiruvchisi qo'yilgan talablarga muvofiq mahsulot tayyorlashi yoki xizmat ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim muassasalari, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish uchun rivojlanish yo'lidan borishi kerak. Aksariyat amaliyotchi xodimlar buni anglab yetgan holda, eskicha yondashuvlarni takomil-

lashtirishni emas, balki ta'lim tizimini innovatsion strategiya ruhida rivojlantirishni tan olmoqdalar. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi innovatsion harakat jamiyatdagi real o'zgarishlarni va shaxs ehtiyojini hisobga olishga yo'naltirilgan.

Ayrim olimlar yangi maqsadlarni, metodlarni, metodikani, dasturlarni, vositalarni, mazmunni, faoliyatni tashkil etish shakllarini, boshqaruv turlarini va boshqalarni yangilik sifatida talqin qilmoqdalar.

«Yangilanish — yangi hodisa, yangi odat, yangi metod, ixtiro», — degan ta'rif ham mavjud (YU. Krasovskiy).

«Maktabni rivojlantirish — innovatsion jarayon» nomli kitob mualliflari ta'kidlab o'tganlaridek: «Pedagogik innovatika — ta'lim muassasasini rivojlantirishning yangi ta'lim amaliyotini yaratish bilan bog'liq jarayonlarini o'rganadigan fan sohasi. Bu jarayonlar innovatsion jarayonlar deb nomlanadi» (S.G. Xomeriki, M.M. Potashnik, A.V. Lorensov).

Bunday aniqlik ta'lim tizimi xodimlariga muayyan foyda keltirishi mumkin.

Shunday qilib, ta'limda innovatsiyalar yangi jarayonlar, konsepsiyalar, ta'lim texnologiyalarini yaratish va o'zlashtirishni ko'zda tutadi va h. k.

Ammo amaliyot ko'rsatishicha, innovatsion faoliyat ta'lim tizimining hamma xodimlari tomonidan ham to'g'ri tushunilavermaydi va samarali amalga oshirilavermaydi. P. Shedrovitskiy ta'kidlab o'tganidek, «innovatsiyalikni bugungi kunda mavjud bo'lgan bironta ham funksiyasini innovatsiyaning takrorlash, chiqish deb nomlash mumkin bo'lgan narsani ta'minlay olmaydi. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi ayrim innovatsiya emas, balki umuman innovatsion harakat ko'rib chiqish va tahlil qilishning boshlang'ich parametri bo'lishi kerak». U «pedagogik yoki ta'lim innovatsiyalarini» emas, balki «innovatsion strategiyani», «faoliyatni innovatsion tashkil etish»ni aniqroq deb hisoblashni ko'zda tutadi. Biz innovatsiyani bunday talqin qilish tadqiqotchilarga bu jarayonni kengroq va chuqurroq ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi, deb hisoblaymiz.

Innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?

«Yangilik kiritishning mohiyatini innovatsion faoliyat, ya'ni yangi natijalarga, ularni olish vositalari va usullariga erishish, an'anaviy faoliyatning eskirgan tarkibiy qismlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyat tashkil etadi», — deb ta'kidlaydi D. M. Gvishiani. Olim innovatsion faoliyatning radikal va takomillashtiriluvchi turlari o'rtasidagi ziddiyatli

xususiyatiga e'tiborni qaratadi. Takomillashtirish mavjud tashkiliy tuzilmalarga zid emasligi va ularga maqbul moslashishi amaliyotdan ma'lum. Tub yangiliklar esa ularni parchalaydi, shuning uchun keskin qarshilikka uchraydi. Ta'lim sifatini boshqarish jarayoni tashkilotchilari innovatsiyalarning bunday muhim xususiyatini doimo e'tiborda tutishlari kerak.

Yangilik kiritish jarayonining muhim xususiyatini ta'kidlab o'tamiz — innovatsiya ushbu ta'lim muassasasi dolzarb vazifalarni samarali hal qilishga ko'maklashishi kerak. Afsuski, aksariyat ta'lim xodimlari amalda bunga yetarli e'tibor bermaydilar, natijada yangiliklarning o'zlashtirilishi rasmiyatchilikka aylanadi.

M. M. Potashnik innovatsiyalarning boshqa muhim xususiyati — yangiliklar ta'lim muassasasini rivojlantirish vazifasini hal qilish imkonini berishi deb hisoblaydi. Boshqacha aytganda, innovatsiyalar «moda» uchun va «qizg'in» tadqiqotchilik faoliyati olib borilayotganini ko'rsatish uchun emas, balki o'quvchilar foydasini ko'zlab kiritiladi.

Boshqaruv xodimlari va pedagoglar muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yangiliklarni samarali o'zlashtirish mumkinligini anglab yetishlari juda muhim. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

— ta'lim jarayoni qatnashchilarining faol ishchanligi bosqichma-bosqich shakllantirilishiga rioya etish;

— ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari tomonidan o'zlashtirish maqsadlarining chuqur anglab yetilishi va qabul qilinishi hamda kelgusi faoliyat vazifalari aniq tushunib olinishi;

— bunda ushbu vazifalarning shaxsiy maqsadlarga zid bo'lgan qismining har doim yuzaga keladigan qarshilik ko'rsatish omilini hisobga olish;

— fikr almashish aniq va xolis axborot ayirboshlash;

— amaliy qarorlarni jamoa bo'lib ishlab chiqish va qabul qilish.

Pedagogik kadrlarni jiddiy qayta tayyorlamasdan, ta'lim muassasasini tegishli moddiy-texnika bazasi, moliyaviy, o'quv-dasturiy ta'minlamasdan turib innovatsion faoliyatni samarali tashkil etib bo'lmaydi.

Yangiliklarni o'zlashtirish jarayoni rahbariyat tomonidan majburlash chorasi bilan emas, balki xodimlarga harakat qilishda mustaqil va erkin ish olib borish imkoniyatini berish bilan kechadi. Pedagoglar jamoasining ishiga aniqlik olib kirish imkonini beradigan ko'rsatkichlar va mezonlarning obyektiv ro'yxatini oldindan ishlab chiqish, ularga bebaho yordam berishi mumkin.

Pedagogik tadqiqotlarda innovatsiyalar yangiligini aniqlashga katta e'tibor beriladi.

Kiritilayotgan yangiliklar alomatlarining variantlaridan birini keltiramiz (P. Shedrovitskiy):

— boshqacha ko'rinishda ma'lum bo'lgan tuzilish (birinchi daraja);

— ma'lum narsani uncha muhim bo'lmagan o'zgarishlar bilan takrorlash (ikkinchi daraja);

— ma'lum narsani aniqlash, konkretlashtirish (uchinchi daraja);

— ma'lum narsani muhim elementlar bilan to'ldirish (to'rtinchi daraja);

— sifat jihatidan yangi obyektни tashkil etish (beshinchi daraja).

Ta'lim muassasasida uni tizimli tashkil etish yangiliklarni o'zlashtirishning yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Bunda quyidagilar muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi:

— ta'lim muassasasining vazifasi, uning yangi maqsadlari va vazifalari;

— boshqaruv xodimlari va pedagoglar shaxsi, ularning o'zlariga va ta'lim oluvchilarga nisbatan nuqtayi nazari;

— o'quvchi shaxsi;

— o'quvchilar o'zlashtirayotgan bilimlar funksiyasi, tuzilmasi;

— ta'lim texnologiyasi va vositalari;

— tashkiliy tuzilma, pedagogik mehnat madaniyati va boshqalar.

Yangiliklarni ishlab chiqish va o'zlashtirish jarayonini har qanday ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'li sifatida ko'rib chiqqan holda kiritilayotgan yangiliklardan kutilayotgan natijalarni baholashning quyidagi asosiy mezonlarini ajratib ko'rsatamiz:

1. Natijalar ta'lim muassasasining avvalgi yoki ushbu yo'nalishdagi ta'lim muassasalari uchun xos bo'lgan natijalardan yuqori, shuningdek, maqbul bo'lishi kerak.

2. Rejalashtirilgan natijalarni olishga sarflanadigan vaqt namunaviy yoxud me'yoriy sarflanadiganiga nisbatan kamroq yoki ularga teng bo'lishi kerak.

Yangilik darajasini aniqlash uchun barchaga ma'lum algoritmlardan foydalaniladi. Masalan, quyidagicha yondashuv mavjud:

1. Baholanayotgan obyektning muhim ko'rsatkichlari, alomatlari, mezonlari ajratib olinadi.

2. Qiyoslash uchun unga o'xshashlari, uning prototiplari tanlab olinadi.

3. Baholanayotgan obyekt tanlab olingan o'xshash obyektlar bilan qiyoslanadi va mezonlarga muvofiq yangilik o'lchovi ham miqdoriy, ham sifat jihatidan belgilanadi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida ta'limni boshqarish sifatini yangilik hamda boshqaruv faoliyatining yangi yo'nalishi sifatida ko'rib chiqamiz.

Yangiliklarning keltirilgan tasnifiga muvofiq ta'lim sifatini boshqarishni biz to'rtinchi darajaga, ya'ni ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldirishga kiritamiz.

Keltirilgan ushbu ta'rif mazmunan tegishli to'ldirilishi va tuzilmalarga ajratilishi lozim, deb hisoblaymiz. Biz ishlab chiqqan tuzilmadagi ushbu qo'shimchalarning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchi. Ta'lim sifatini boshqarish maqsadi nafaqat jamoa faoliyati natijalarini barqaror holatda saqlashdan, balki ta'lim muassasasini faoliyat (rivojlanish)ning bundan ham yuqoriroq darajasiga o'tkazish orqali talab qilinayotgan ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

Ikkinchi. Natijalar sifati bitiruvchilarning ijtimoiy va ta'lim-kasb-hunar bobidagi harakatchanligi darajasi bilan ifodalanadi, ya'ni bunda gap ta'lim muassasasi rahbarlarining mavjud malaka tavsiflarini mutaxassisning kasbiy sifatlariga qo'yiladigan talablar bilan to'ldirilishiga yo'naltirish haqida bormoqda.

Boshqa loyihada ham shunday g'oya mavjud. Innovatsiyaning eng muhim formulalaridan biri quyidagi qoidadan iborat: «Ta'lim sifati — shunchaki bilimlar hajmi va ko'nikmalar tarkibi emas, balki zamonaviy mutaxassisning asosiy modelini tashkil etuvchi faoliyatning muayyan turlariga shaylik demakdir».

Ta'lim sifati o'quvchilarni bilimga boyitish va ularning ongida statistik tuzilmasini shakllantirish bilan emas, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatda ular hayotini organik dinamika bilan ta'minlash orqali tavsiflanadi. Bilimlardan konkret muammolarni hal qilishda foydalanish, bilimlarni doimiy ravishda to'ldirib borish bo'yicha rivojlangan qobiliyat va intellektual rivojlanishning amaldagi rag'batlari zarur (I.G. Leonov).

Uchinchi. Ta'lim sifatini boshqarishda ta'lim muassasasi rahbarlarining asosiy e'tibori pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini kuchaytirishga emas, balki kamchiliklar paydo bo'lishining oldini olish hamda ularning vujudga kelish manbalari va sabablarini tahlil qilishga qaratiladi. Bularning hammasi boshqaruv

kadrlaridan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metod va usullarini egallash, nazariy qoidalarni amaliyotda qo'llash mahoratini talab qiladi. Boshqacha aytganda, ular boshqaruvda xilma-xil — intuitiv, empirik, tajriba, formal va ilmiy mantiqiy yondashuvlardan foydalanishlari darkor (M. M. Potashnik).

To'rtinchi. Ta'lim sifatini boshqarish ushbu jarayonga ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarini kiritishni ko'zda tutadi. Faqat sharti shuki, tashkiliy tuzilma pedagogik jarayon qatnashchilari o'rtasidagi qat'iy «vertikal» aloqalardan «vertikal» bilan «gorizontal» aloqalarni bir-biriga uyg'un holda qovushtirishga o'tsagina shunday bo'ladi.

Masalan, quyida keltirilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini boshqarish modelida bu — kollej ichki boshqaruv tuzilmasining markaziy-simmetrik modeli hisoblanadi. Bunday tashkiliy tuzilmada rahbarlarning ham, pedagoglarning ham ongi «istisnosiz barcha bo'linmalarni pirovard maqsadga erishishga yo'naltirish» foydasiga o'zgaradi (K. Bereznyak).

Bunda direktor va uning o'rinbosarlarining funksional vazifalari ham o'zgaradi.

Beshinchi. Ta'lim sifatini boshqarish tizimli metodlardan foydalanishni ko'zda tutadi, bunda boshqaruv obyekti boshqacha xususiyatga ega bo'ladi: ... ta'limni innovatsion tashkil etishda faoliyatning ikki (ta'lim beruvchi bilan o'quv-bilish) turi emas, balki yaxlit holdagi o'quv-kasbiy vaziyat boshqaruv birligi hisoblanadi (I. Bogachek).

Bir guruh olimlar (O. G. Xomeiki, M. M. Potashnik, A. V. Lorensev) taklif qilgan metoddan foydalangan holda ta'lim sifatini boshqarish jarayonining tasnifini ko'rib chiqamiz.

1. Innovatsiyalar ko'lamligiga qarab belgilanadi. Bunda ta'lim sifatini kollej yoki maktab ichki doirasida boshqarish butun ta'lim muassasasini qamrab oladigan tizimli yangilik hisoblanadi.

2. Yangiliklarni o'zlashtirish jarayoni salohiyat darajasiga qarab belgilanadi. Ta'lim muassasasi doirasidagi ichki boshqaruv innovatsiyaning kombinatorli tipidan iborat, ya'ni ilgari ma'lum bo'lmagan elementlarning tashkiliy tuzilmaning yangi modeli asosida yangicha konstruktiv qo'shilishi hamda ilgari bunday qo'shib foydalanilmagan prinsiplarning amalga oshirilishi sodir bo'ladi.

3. Yangilikning o'z o'tmishdoshiga munosabati ularning quyidagi toifasini tavsiflaydi.

Ta'lim muassasasi darajasida sifatni boshqarishga nisbatan olganda aytish mumkinki, u boshqaruv faoliyatining shu paytgacha amal qilib kelgan mohiyatini o'zgartiradi va to'ldiradi.

Bu jarayon ikki bosqichdan iborat:

— birinchisi — bitiruvchilarni tayyorlash darajasiga qo'yiladigan nominal, normativ talablarning bajarilishiga qat'iy va to'liq yo'naltirish mavjud bo'lgan sharoitda ta'lim muassasasining faoliyati sifatini boshqarish. Boshqaruv nazariyasida bunday yondashuv konservativ yondashuv hisoblanadi (N. A. Selezneva);

— ikkinchi bosqich — rivojlanish sifatini boshqarish. Bunda o'zgartiruvchi-ijodiy, tadqiqot xususiyatiga ega faoliyatni amalga oshirish, yangiliklarni o'zlashtirish, o'z ilg'or pedagogik texnologiyalarini yaratish ko'zda tutiladi.

Ta'lim muassasasi barcha xodimlarining birgalikda harakat ishi bir-biriga muvofiq bo'lishiga erishish va tashkiliy madaniyat bunday boshqaruv samaradorligining zarur sharti bo'lib qolishi kerak.

Innovatsion jarayon bo'lgan ta'lim sifatini boshqarish quyidagi belgilarga ega:

Birinci belgi. Faoliyatning yangi usuli mavjudligi.

Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash obyekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi.

Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi.

Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan obyektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Shu bois boshqaruv tarkibi ta'lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak.

Ikkinchi belgi. Rivojlangan tashkiliy madaniyatning mavjudligi.

Oldingi paragrafda ta'kidlab o'tilganidek, jamoada me'yorlar tizimlarini, qadriyatlarni, urf-odatlar va an'analarni yuqori darajada shakllantirmasdan turib, ta'lim sifatini boshqarib bo'lmaydi. Bularning hammasi ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari o'rtasida uyg'un o'zaro munosabatni vujudga keltirish imkonini beradi.

Tashkiliy madaniyat ta'lim muassasasining eng muhim quyidagi vazifalarini funksional jihatdan hal qilishda yordam beradi:

— muvofiqlashtirish — belgilangan jarayonlar va xatti-harakat qoidalari yordamida amalga oshiriladi, bu jamoa barcha a'zolarining kelishilgan holda harakat qilishi imkonini beradi;

— motivatsiya — bajarilayotgan ish mazmuni ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tushuntirib berilishini ko'zda tutadi;

— ixtisoslashtirish — ta'lim muassasasining shunga o'xshash ta'lim muassasalaridan xarakterli farqqa ega bo'lishi demakdir;

— kadrlarni jalb qilish — ta'lim muassasasining boshqalaridan afzalligini targ'ib qilish, pedagoglarning ishlashi uchun maqbul shart-sharoit yaratish orqali hal qilinadi va h. k. (K. Sholts).

Uchinchi belgi. Ta'lim muassasasi rahbarlarida innovatsion madaniyatning shakllanganligi.

Bu ularning yangi bilimlar va faoliyat turlarini egallashga, o'zgarishlarga, xavf-xatarga va javobgarlikka tayyorgarligini bildiradi.

Boshqarish sohasidagi turli mutaxassislarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish yangi tipdagi menejer shaxsining eng muhim sifatlarini, xususan, mehnat jamoasi bilan maqbul munosabatda bo'la bilish mahoratini ajratish imkonini beradi. Yangi tipdagi boshqaruv kadrlarining asosiy vazifasi — «Yangiliklar kiritishga yo'naltirilgan boshqaruv munosabatlarning mos tizimini yaratish» dan iboratdir (Yu. Krasovskiy). Ta'lim muassasasi rahbarlari tomonidan yangi tashkiliy-psixologik madaniyat ma'nosidagi kasbiy mahoratni oshirib borishning quyidagi obyektiv davrlarining o'zlashtirilishini ham shunga kiritish mumkin:

— o'z imkoniyatlari bilan jamoa imkoniyatlarini o'rganish;

— o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari orqali jamoa imkoniyatlarini bilish;

— jamoa imkoniyatlaridan o'z kasbiy mahoratini oshirib borish uchun foydalanish;

— jamoa imkoniyatlarini o'zida va o'zi orqali ro'yobga chiqarish.

Boshqaruv kadrlarining pedagoglar va o'quvchilarning har qanday foydali tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va o'zlari ham shu

ishga qo‘shilishga qodirliklarini ham innovatsion belgi deb hisoblash mumkin. Tavakkalchilik va mas’uliyat ta’lim sifatini boshqarishda boshqaruv kadrlarining, ayniqsa, yetakchining muhim xususiyatlaridandir.

Ta’lim muassasasi rahbarlarining kasbiy bilimdonligi novator negizini tashkil qiladi.

Direktor va uning o‘rinbosarlarining kasbiy bilimlari nechog‘li darajada ekanligiga ko‘p jihatdan innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati boshqaruv nazariyasi, iqtisodiyot va sotsiologiya, siyosatshunoslik va huquq, pedagogika va psixologiya, gigiyena va fiziologiya sohalariga bog‘liq. Zamonaviy mutaxassis shaxsiga, muhandis-pedagoglar tarkibi faoliyatini va o‘quvchilarning o‘qishini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatiga oid normativ talablarni bilish ham ushbu ro‘yxatga to‘liq kiradi. Bunda zamonaviy ta’lim muassasalarini boshqarayotgan shaxslarning kasbiy-tashkiliy, axloqiy-psixologik sifatlari birinchi o‘ringa chiqadi.

To‘rtinchi belgi. Ta’lim muassasasi boshqaruv korpusi psixologik-pedagogik madaniyatining yuqori darajadali.

Bunday sifatning shakllanganligi ta’lim sifatini ta’minlashga doir faoliyatni loyihalashtirishning zarur shartidir. Ta’lim sifati va ta’lim muassasasini boshqarishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun rahbarlar konkret mahorat va ko‘nikmalarni egallashlari zarur. Biz psixologik-pedagogik mahoratni, eng avvalo, shular qatoriga kiritamiz. Ularning mohiyati, P.T. Frolov ta’kidlab o‘tganidek, topshiriqni ongli zaruratga, faoliyatning ichki ehtiyojiga aylantirish maqsadida mantiqiy va psixologik usullar yordamida xodimlarga ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir» (P. T. Frolov).

Ko‘rsatma-metodik xarakterdagi mahorat ham eng muhim ahamiyat kasb etadi. Bular tarkibiga quyidagi elementlar kiradi:

- pedagogik boshqaruv faoliyati maqsadlarini ta’riflash;
- uning natijalarini tahlil qilish va baholash;
- ta’lim sifatini boshqarishni tashkil etishda pedagogik metod va usullardan oqilona foydalanish;
- xodimlarga malakali yordam ko‘rsatish;
- ilmiy konferensiyalar, seminarlarni tashkil qilish va ularning ishida qatnashish;
- rahbarning jamoatchilik fikrini vujudga keltirish, ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish, mas’uliyat hissini tarbiyalash orqali muhandis-pedagog xodimlarga ta’sir ko‘rsatish mahorati.

Ta'lim muassasasi rahbarlari pedagoglarga, o'quvchilarga va ularning ota-onalariga yagona pedagogik talablarni qo'yishlari kerak. Bunda har bir xodimning individual imkoniyatlarini hisobga olish va chuqur o'rganish, jamoa oldida turgan vazifalarni hal qilishda har kimning rolini ko'rsatishga katta o'rin beriladi.

Beshinchi belgi. Ta'lim muassasasida o'z ishini o'zi uyushtirishning yuqori darajasi.

Ta'lim muassasasining o'zini-o'zi rivojlantirishi boshqaruv kadrlarining pedagoglar jamoasi bilan birgalikda tashqi ta'sirlarni idrok etish va ichki qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish asosida ta'minlanadi. Ta'lim sifatini boshqarishda rahbarlarning asosiy e'tibori pedagog xodimlarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini to'liqroq ochishga, zarur mustaqillikni berishga va pedagoglarga nisbatan keraksiz vasiylikni bartaraf etishga qaratiladi. Bularning hammasi muhandis-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilarning o'zishini uyushtirishi imkonini beradi. Xodimlarning yuksak kasbiy mahorati o'zishini o'zi uyushtirishi darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi (I.Kaoru).

Shunday qilib, ta'lim sifatini boshqarishning ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan tizimi innovatsiyaning asosiy belgilarini qanoatlantirishi kerak. Ammo bunda ta'lim muassasasidagi boshqaruv faoliyati umumiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi qonuniyatlarni ham aks ettirishini ta'kidlab o'tish zarur: boshqaruv tizimi bilan pedagogik jarayonning birligi; maktab direktori bilan direktor o'rinbosarining o'zaro munosabati; boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlarning nisbatdorligi, metodik birlishmalar faoliyati izchil, mustahkam o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirmoq lozim.

Nazorat savollari:

1. Rag'batlantirishga qanday sifatlar kiradi?
2. Tanbeh berish turlarini izohlang.
3. Topshiriqlar necha turga bo'linadi?
4. Faoliyat deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiya metodlari nechta izohlang?
6. O'quvchilarni ijodiy harakatga undovchi metodlarni izohlang.

V BO'LIM. PEDAGOGIK MAHORAT

13-mavzu: Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati

Reja:

1. Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari.
2. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati.
3. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik -psixologik tasnifi.
4. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari.
5. Pedagogik texnika.
6. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

1. Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari.

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy siyosiy - madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon ham jihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, xususan yoshlar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'diradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchavib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha

an'anaviy ta'limda o'quvchi - talabalarni faqat tayyor bilim larni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilim larini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi. bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqim ining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy texnikaviy taraqqivotning jadallashuviga, mavjud pedagogik, psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi" ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi.

Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridati biri kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish va mukammallashtirish demakdir. Shu o'rinda savol tug'iladi. Mahorat nima?.

Mahorat bu -yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidir. Mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. U ish-bilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida rivojlanib boradi. Bu xususiyatlarning barchasi faoliyat jarayonida tarkib topib boradi.

"Faoliyat - deb yozgan edi, akademik A.N. Leontev – dunyoni o'zlashtirishning birinchi shartidir". Shunday ekan pedagogik mahoratning shakllantirish va rivojlantirishda faoliyat yetakchidir. Pedagogik mahoratni egallashda o'qituvchining pedagogik faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchining kasbiy mahorati va mehnati orqali qo'lga kiritiladi, mehnat esa, faoliyatning tarkibiy qismlari (o'qish, ijtimoiy ish, o'yin, sport mashg'ulotlari va h. k.) dan biri hisoblanadi. Shu asosda pedagogik faoliyat o'qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari va ta'sir ko'rsatish usullarining muayyan ajmuidir. Pedagogik mahoratni shakllantirish muayyan sohani mukammal egallash, nazariy, amaliy ma'lum otlarga to'liq ega bo'lish, kasbiy tayyorgarlik ustida tinmay ishlashdan iborat. Pedagogik mahoratning betakror, noyob, mohir ustasi bo'lish uchun o'qituvchi - tarbiyachiga ilhom, ijod va o'z kuchiga ishonch bo'lishi kerak. Mana shu ilhom, ijod va ishonchni yo'lga qo'yuvchi, uning imkoniyatlarini to'la ishga soluvchi kuch faoliyatdir. Pedagogik mahoratni

shakllantirishda pedagogik faoliyat muhim o‘rin tutadi. Faoliyat to‘la ma’noda usullar, xolatlar, shakllarning umumlashgan tizimidan iborat bo‘lib, u har xil sharoitlarda ham mavjud bo‘ladi. Har qanday faoliyat singari o‘qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob’ekt va sub’ektdan iborat.

Pedagogik maqsad - o‘qitish, tarbiyalash va shu asosda talabalar shaxsini shakllantirishdan iborat. Usul esa tarbiyalanuvchilar obro‘cini egallash, hurmatiga sazovor bo‘lishi va ta’sir ko‘rsatishdir. Pedagogik mehnatning ob’ekti sifatida – o‘qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob - axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat sub’ekti esa - tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatuvchi - pedagogning o‘zi. Chunki, u o‘quvchi - talabalarga tabiat jamiyat, tafakkur qonunlari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun, avvalo, ularni o‘z faoliyatining ob’ektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o‘zlashtiriladi, o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchi - talabalarga yetkaziladi. Pedagogik mahorat - bu o‘qituvchi - tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar yig‘indisidan iborat.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi - talabalarda o‘qish, o‘qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko‘nikmalarini, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini o‘zlashtirish malakalarini shakllantiradi.

Albatta, bu malakalarni shakllantirishda uzluksiz ta’lim tizimining turlari, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarining o‘rni beqivos. O‘zining aql - zakovati, ilmiy salohiyati, ma’naviyati, madaniyati bilan milliy istiqlol g‘oyalari mustahkamlashda, ozod va obod Vatanni qurishda yonib yashaydigan shaxs bo‘lib shakllanadi va ta’lim islohotlari hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishga o‘z hissasini qo‘shadi. Shunday qilib, insonning ma’naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, hatti - harakati, odob - axloqiy kasbiy mahorati, shakllanib takomillashtirib boradi. Bu esa pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy, nazariy, amaliy jihatdan o‘qitishni yanada yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga davolat etadi.

O‘qituvchilik kasbi murakkab va ma’suliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafli va murakkabligi shu bilan belgilanadiki u doimo ongning yagona sohibi bo‘lgan inson bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning uchun, o‘quvchi bilan doimo muloqotda bo‘lganda, unga ta’sir ko‘rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya,

tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muntazam ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy, nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallagan, aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir. Buning uchun:

1. Pedagog - kasbiy faoliyatning pedagogik yo'nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mahorat asoslarining zamonaviy pedagogikaning ilg'or g'oyalari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtai - nazaridan yondoshish imkonini beradi.

2. Pedagog - pedagogik jarayonni aniq tashkil qilishi, boshqarishi, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalashi va uni ro'yobga chiqarish texnologiyasini, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qilinadi. Pedagogik mahoratni shakllantirishning birinchi sharti, faoliyatdir. Faoliyatga intilish har bir kishida juda barvaqt paydo bo'ladi va hayot davomida takomillashib boradi, insonga qoniqish, mamnuniyat bag'ishlab, kasbning haqiqiy egasi va maftunkori bo'lishga zamin yaratadi. O'qituvchining bunday faoliyatiga quyidagilar kiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalash g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtivoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy—siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan - naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shunga asosan pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir

qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jaravonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur.

2. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati.

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod talablari asosida tashkil etish, uni jam'iyat taraqqivoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Bugungi kunda o'zbek xalqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida katta yutuqlarga erishmoqda. O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'rifiy me'rosni o'rganish imkoniyati tug'ildi, milliy g'urur yana qayta tiklandi, ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda.

O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarini shuhratini tiklash ular g'oyalari hayotga tadbiq etish bugun hammaga ayon bo'lmoqda.

Qadim dan ota — bobolarimiz yosh avlodni xayoli, iymon - e'tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Buyuk allomalarimiz ta'lim otlarida kamtarlik insoniy eng go'zal fazilat ekanligi, u inson madaniyati, uning odamiyligi, mardligi kabi xislatlar bilan belgilanadi. Inson kam tarligi eng avvalo uning mexnatida namoyon bo'ladi, kamtar kishida havo - nafs, g'urur manmanlik bo'lmaydi, u odob - axloqli, mehr - shafqatli bo'ladi, ishida so'zida qat'iy turadi.

O'zbek madaniyati, chunonchi sharqona milliy tarbiya har bir tarixiy davr va bosqichlarda ijtimoiy - siyosiy jarayonlarda o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. O'tm ishda ota - bobolarimiz, buyuk allomalarimiz, yuksak ma'rifat sohiblari baxt — saodatni ozodlik, erkinlikda ko'rganlar. O'z zamonasida ilm, fan, madaniyat ravnaqi yo'lida katta inqilob yaratgan Abu Nasr Forobiv, Imom Al - Buxoriy, Mahmud Qoshqariy, Najmiddin Kubro, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az— Zamashxari, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yassaviy va boshqalar o'z ixtirolari va g'oyalari bilan butun jahonni hayratga soldilar.

Ilm, fan ravnaqi yo'lidagi tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida XI asrda Mahmud Xorazm shox rahbarligida Xorazmda tadqiqot Markazi

tashkil etildi, unda sharqning buyuk olimlari o'z faoliyatlarini olib bordilar, keyinchalik ushbu Markaz Markaziy Osiyoda yagona "Ma'mun akademiyasi" deb e'lon qilindi. Markaziy Osiyo ilm, ma'rifatni rivojlantirish muammolari bo'yicha Muso A1 – Xorazmiy, Ahmad A1 - Farg'oniy, A1 - Marvazi, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalar mazkur Akademiyada tadqiqotlar olib bordilar. Insoniyat jamiyati taraqqiyotida yetuk insonlarning faoliyati, sa'y - harakatlari natijalari muhim o'rin tutadi. Insoniyat hayotida alohida o'rin tutgan bunday shaxslarning surat va siyratlari, bajargan ishlari to'g'risida turli xil manbalarda yozib qoldirilgan va kelajak avlod ana shunday xislat - fazilatlarga ega bo'lishga undalgan. Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Farobiy muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan.

"O'qituvchi, - deydi Forobiv, aql - farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlari to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi ", - deb ta'kidlaydi. Mutafakkir o'qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona, odilona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir.

Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atohli olim Abu Ali ibn Sino "O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rosgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunvosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim" —deb ta'kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiyining fikricha: "Murabbiy bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalarida qat'iy turishi, ularga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaram aydi. Balki xilvat jovda bolaga gapirish darkor. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim. Chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir". Tarbiyachilik san'atida ustozni nihoyatda ulug'lab shunday yozadi:

Faromush qilmagilsan haqi ustod.
Ki oningdin durur ilmingga bunyod.
Agar ustodinga mehring yo'q o'ldi,
Degilkim ilmim mani mavq o'ldi.
Kishikim qildi ustodiga xizmat,

Zamoni o‘tmadi tobt ul izzat.

Koshifiy yaxshi ustozdan olgan pand—nasihatga quloq solmay behuda yo‘llarda yurgan farzand o‘zini —o‘zi rasvo qiladi, deya nasihat beradi.

Nasriddin Tusiy o‘qituvchi nutqi haqida shunday deydi: "O‘qituvchi munozaralarini olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo‘pol va qattiq bo‘lishi mumkin emas” .

Alisher Navoiy o‘z asarlarida odob, axloq, ziyraklak, irodavii kuch poklik, samimiylik xislatlari asosiy o‘rinni egallaydi. O‘qituvchining har jihatdan ibrat va namuna bo‘lishlari ta'lim va tarbiya garovi ekanligiga ishora qilgan. Alloma bolalarga bilim berish bilan bir qatorda ular nutqini rivojlanishiga ham alohida ahamiyat beradi va bunda u turli pedagogik usullardan foydalanadi.

Ahmad Donish o‘qituvchini o‘quvchiga kuchli ta'sir etuvchi shaxs deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o‘qituvchilik kasbini tanlagan nopoklik niyatida bo‘lishi nihoyatda zararlidir, chunki ular o‘zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlodga tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U o‘qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchi va talabalarga ko‘p bilim berish, o‘z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o‘z ustida ko‘p ishlashi lozim ligini ta'kidlaydi. Bundan ko‘rinadiki, Ahmad Donish o‘qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo‘yadi. U go‘zal axloqlilik va chuqur bilim donlikni o‘qituvchining beqiyos fazilati deb biladi. Zero, u o‘qituvchi tim solida odamlar, binobarin yoshlar o‘rtasida ilmiy bilim oluvchi ma'rifatparvarni ko‘rishini orzu qiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ma'rifat, ilm - fan, badiiy ijod sohasidagi butun faoliyatida millatimiz madaniyati ma'naviyatining ravnaqi uchun kurashib, buyuk siymo sifatida shuhrat qozongan holda ta'lim - tarbiyaga doir qimmatli fikr - mulohazalarni bayon etdi. Ustoz ta'lim — tarbiya haqida fikr bildirar ekan, mustam lakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatga erishishning birdan - bir vo‘li o‘lkada o‘zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm - fanni rivojlantirish kerakligini bayon etadi. Kattalar va muallimlarga murojaat qilib, ularni yoshlarni bilimli qilishga, mehnatga jalb etishga da'vat etadi.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning tabiatga mosligi, ta'lim va tarbiyada mo'tadillik printsiplarini asoslagan buyuk pedagogdir. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiatni va jamiyat ilmini o'rganishda "O'zimni tekshirib ko'rmaguncha ishonmayman" degan shiorga amal qiladi. U mohir pedagoglar haqida shunday yozadi: "Maqsad vaqtni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan - fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va o'quvchi "Har bir yangi narsaga o'ziga yarasha lazzat bor" - deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi.

Chet ellik pedagog olimlaridan K.Ushinskiy, A. Disterverg, L. Tolstoylar insonga bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishda pedagogik mahoratning roli buyuk ekanligini ta'kidlaganlar.

"Tarbiya san'ati shunday xususiyatga egaki, - degan edi K. Ushinskiy, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi -odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb aytadilar: lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari va maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qiladi" . L. Tolstoy haqiqiy o'qituvchi shaxsiga tavsif berib quyidagilarni yozgan edi: "A gar o'qituvchi faqat o'z ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchiga faqat otasi, onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordi -yu mujassamlashtirsa, u holda u mukammal o'qituvchi bo'ladi" . Kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini yaxshi tushungan A. Disterverg esa: "O'zing bilmagan narsalarni birovlariga o'rgata olmaysan", -degan edi.

Pedagogik mahoratni shakllantirishda o'qish san'atining roli haqida Emil Tagi shunday degan edi: "O'qish san'ati o'zganing ko'magi yordamida fikr yuritish san'atidir. O'qish o'zga bilan birgalikda fikrlash. o'zganing fikrini m ulohaza qilib ko'rish, o'zim izning fikrlarim izni o'lchash va unga zid fikrlarni xayoldan o'tkazish demakdir" -deb yozgan edi. O'qituvchidan jamiyat talab etadigan asosiy ijtimoiy vazifalar va ma'suliyat shaxs kamoloti, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog'liq. O'qituvchilarga qarata ta'lim -tarbiya ishlarini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqealar

bilan bog‘liq holda olib borishni talab etadi. Sharq mutafakkirlari o‘qituvchi o‘zi o‘qib tursagina - o‘qituvchi bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda o‘qituvchilik ham o‘ladi, deb haqqoniy aytgandir. O‘qituvchi o‘z shogirdlaridan doimo, hech bo‘lmaganda, bir necha bosh yuqori turishi kerak, aks holda bolalar oldida uning obro‘si bo‘lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o‘qituvchi javob berolmasdan qolishi mumkin.

Hozirgi sharoitda jam‘iyatning maktab oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to‘g‘ri hal qilish vazifasi mahoratli o‘qituvchiga bog‘liqdir.

3. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik -psixologik tasnifi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo‘lib, bir tekisda bo‘lmay, biri yuqori biri o‘rta va biri quyi darajadan iboratdir. Faqat aqli zaif insonlarda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o‘qituvchisining faoliyati inson shaxsini tiklantirishga qaratilgan. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi, qobiliyatni rivojlantirish esa layoqat, zehn, iste‘dod ya‘ni inson asab tizimida anatomik - fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur. O‘qituvchining ba‘zi psixik protsesslari unda shaxsga xos sifatlarining shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin.

O‘qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O‘qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umum insoniy fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. O‘qituvchi (pedagog, muallim, ustoz) - maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan va pedagogik faoliyat bilan (professional) shugullanuvchi inson. O‘qituvchilik kasbini tanlagan inson hamma narsani biladi va hamma narsaga javobgar. O‘qituvchilik vazifasi uning har bir o‘sinib kelayotgan avlod, jamiyat, davlat taqdiri uchun javobgarligi bilan xarakterlanadi. O‘qituvchi ta‘lim - tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. O‘qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi asosan o‘qituvchiga, uning kasbiga, iymon - e‘tiqodi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchilar tarbiyasiga oid pedagogik ishlar maxsus uyushqoqlik hamda muayyan malaka va ko‘nikmalarnigina emas, balki pedagogik qobiliyatlari darajasiga taalluqli bo‘lgan psixik xususiyatlari ham mavjud bo‘lishi kerak.

Qobiliyat - shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart - sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir. O'qituvchining kasbiy faoliyati favqulotda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab etadi. Kasbiy pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati, xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi :

- O'quvchiga nisbatan sezgirlik;
- Kommunikativlik - insonlarga yuz tutish, xayrixoxlik, xushmuomilalik;
- Perseptiv qobiliyatlar - kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg'u;
- Shaxs dinamikasi — irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishonтира olish qobiliyati;
- Xissiy barqarorlik — o'zini boshqara olish;
- Kreativlik - ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilish malaka va ko'nikmalarini egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O'qitish, o'rganish va o'rgutish bo'yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- O'quvchini tushunishini ko'rish va sezish ham da bunday tushinishning darajasini va xarakterini o'rganish qobiliyati;
- O'quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- Materialni yetarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga tushunarligini ta'm inlash qobiliyati;
- Talabalarning individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- O'quvchilarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- O'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- Mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- Boshqa insonning ichki holatini to'g'ri baholash, unga ham dardlik bildirish, hamnafas bo'la olish qobiliyati;
- Taqlid qilish uchun namuna bo'lish qobiliyati;

- Tarbiya jarayonida individual xususiyatlarini inobatga olish qobiliyati;

- Muloqatning lozim topilgan uslubini ham da o'z o'rnini toppish, kelisha olish qobiliyati;

- Hurmat qozonish ya'ni talabalar o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqatga bo'lgan qobiliyat alohida ajralib turadi .

O'qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog'laydilar.

Kommunikativ qobiliyat - bu pedagogik o'zaro aloqalar doirasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqat qobiliyatidir.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi — bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi — chunki bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtai nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirishi bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo'larkan, u odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish — kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida

Pedagogik ta'sir ko'rsatish - tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustakil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi. Ma'naviy boyligi va his—tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tom onidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullariga: talab, istiqbol, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish va jazolash kabilar kiradi.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishist uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni muvaffaqiyatli o'rnatish;
- munosabatda bo'lgan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

Ijtimoiy - psixologik tekshiruvchilar pedagogik muloqot malakasida ikkita asosiy kommunikativ ta'sir etish turlarini ajratadilar: ishonch hosil qilish va ishontirish. Pedagogning har bir harakati tarbiyalanuvchining munosabati, fikrlari, hissiyotlari, faoliyatlarini shakllantirishga, ya'ni ularning psixikasi va xulqiga har tomonlama ta'sir etishga qaratiladi. Lekin ishonch hosil qilish va ishontirishning psixologik jarayoni turlichadir. Ta'sir etishning har bir yo'li o'ziga xos xarakteriga ega. Ishonch hosil qilish yangi qarashlar, munosabatlarni shakllantiradi, noto'g'ri qarashlar va munosabatlarni o'zgartiradi.

Ishonch hosil qilish shakllariga: disputlar, diskussiya, suhbat, o'qituvchi himoyasi, shaxsiy namuna kiradi. Ishonch hosil qilishda o'zaro ta'sir qilish metodi sifatida maksimal ta'sirli bo'lishi uchun, u bir qancha shartlarga rioya qilish kerak:

- ishonchning mazmuni va shakli bolalarning yosh xususiyatlariga mosligi;
- ishonch hosil qilish tarbiyalanuvchining shaxsiy dunyoqarashiga mosligi;
- tarbiyachi bolalarda ishonch hosil qilishda avvalo o'zi shu narsaga nisbatan ishonch hosil qilishi.

Ishonch hosil qilishning natijasi o'qituvchining so'zlari va harakatlariga ham bog'liq. Tarbiyachining so'zi va harakatlari bir-biriga mos tushishi kerak. Masalan, tarbiyachi jahlni ustida bolaga qattiq jazo berishini aytadi, lekin esidan chiqib ketadi. Yoki biror nima va'da qilib, o'z so'zining ustida turmaydi. Bolalar bunday pedagogning so'zlariga ahamiyat bermay qo'yadilar. Yanayam yomon. Agar o'qituvchi balandparvoz, to'g'ri so'zlarni gapirsa —yu, lekin kundalik hayotida bunga amal qilmasa bunday o'qituvchilar jamiyatga zarar etkazadilar. Ishontirishning yuqori effekti o'quvchilarning olgan

bilimlarining mustahkamlaydigan mashqlari (ruhini tetiklash, to'g'ri xulq hosil qilish) orqali hosil bo'ladi. Ishontirishning usulini boshqatdan tarbiyalash, ya'ni qarash va muomalarni hosil qilish maqsadida qo'llash mumkin. Isbotlash shaxs dunyoqarashining etakchi struktura elementi bo'lib, ishontirishning o'zagi bo'lgan bilmilar hisoblanadi. Isbot orqali bilim egallayotgan o'quvchida unga to'g'ri kelmaydigan hamma ishontirishni qattiqqo'llik, isbotlash yo'li bilan qaytara olish qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik ta'sir qilish usuli bo'lgan ishontirish bilan birga pedagogik jarayonda ta'sir etish ham o'ziga xos o'rniga ega. Ta'sir etish - odam larning ish va muomala jarayonida bog'liqlikni belgilaydigan vositalarning biri. U ning asosiy o'ziga xosligi shundaki, u odam ning psixikasiga va xarakteriga o'zi bilmagan holda ta'sir qiladi, shaxsning psixika strukturasi nazoratsiz holatda kirib, kundalik ishi, xarakterida ko'rinadi.

4. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim -tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim - tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy psixologik tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning quyidagi yo'nalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Prognostik yo'nalish. O'qituvchining muloqotga bevosita tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar bilan bo'lajak har qanday muloqot turini modellashtirish.

2. Muloqotning boshlang'ich yo'nalishi. O'quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq bevosita o'zaro ta'sir metodlaridan foydalanib, tashabbuskorlikni qo'lga olish.

3. Muloqotning uchinchi yo'nalishi. Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish.

4. Muloqotning to'rtinchi yo'nalishi. Keyingi pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimini modellashtirish va muloqotning amalga oshirilgan tizimini doimiy taxlil qilib borish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Kommunikativ muloqot
- Interaktiv muloqot
- Perseptiv muloqot.

1. Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Interaktiv muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, ularning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, hatti-harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir—birlarini idrok kilishi, anglashi tushuniladi.

5. Bunda muloqotda kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol shaxs sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

Jonli muloqot - o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir.

O'qituvchi pedagogik mahoratida mujassam lashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir

dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibliigi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim - tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi ham da o 'qituvchi jonli m uloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli m uloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doim o quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-m ulohazasi asosida javob bera olishi kerak.

O'qituvchining muloqot usullari. Avtoritar usulda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi;
- ta'lim -tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi; qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- topshiriqlarning to'liq bajarilishini talab qiladi; 300 gap qaytargan, fikr bildirgan o'quvchini yoqtirm aydi; o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Demokratik usul asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi.

Liberal usul asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariga sho'rolar zamonidan qolgan talim - tarbiya tizimga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
- ta'lim tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, takdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

5. Pedagogik texnika.

Hozirgi zamon pedagogika fani o'qituvchining pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning ro'li beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika) his - tuyg'ularini (em otsiyasini) boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq

texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ishlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik ifodalar ham muhim o'rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo - ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi, tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, o'quvchi mashg'ulotlarini samarali va mazmunli o'tishi uchun puxta zamin yaratib beradi.

Mimika- bu o'z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lum otlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar o'qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini "o'qib" oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar o'quvchi mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatm asligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarga faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchi tarbiya topshiriqlarini yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim. Yuz ifodasi, nutq, munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak. U ishoneh, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qosh, ko'z, yuz ko'rinishi ishtirok etadi. Ko'z, qosh, yuz o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik qoniqm aslik, hala bo'lish va boshqa belgilarni ifodalasa o'qituvchilar diqqatini bo'lm asdan boshqalarga xalaqit bermasdan o'quvchi-tarbiya ishlarini olib borishga yordam beradi. Shuni ham alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o'qituvchining nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'lishi zarur. Dorskaga, eshikka, derazaga ko'rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

Pantomimika - bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir. O'qituvchi darsda o'quvchi ma'lum otlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lum otlarning obrazini chiza olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ichki his - tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shib butun borliq materiallar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarda

ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish xolatini tarbiyalash lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining harakatlari ma'noli, ortiqcha harakatlardan xoli bo'lmog'i darkor.

Masalan: keraksiz hollarda qo'llari bilan imo - ishoralar qilish, boshini uyoq — buyoqqa tashlash va h.k. Bimday xolatlar o'quvchilarning g'ashini keltiradi va o'quvchi predm etiga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg'ularini uyg'otadi.

O'qituvchi sinfda yurgan paytida faqat oldin va orqaga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish o'quvchilar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda o'quvchilar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar. Orqa tomonga qarab yurayotganda uncha ahamiyatga molik bo'lmagan fikrlar aytilsa ham bo'ladi. Chunki bu vaqtda o'quvchilar bir oz erkin holatda bo'ladilar.

O'qituvchining o'z hatti-harakatini idora qilishi tizimida o'z hissiy (psixik) holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'sir ko'rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo'la olish qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Bir adib avtganidek. "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbivalasin" va o'qitsin. Bunday malakaga ega bo'lgan pcdagog o'z —o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi. O'z xatti - harakatini, hissiy holatini nazorat qilishdapedagog o'zida quyidagilarni shakllantirish lozim:

- o'z hulqini nazorat qilish, (muskul zo'riqishini, harakati, nutq tempi, nafasolishini tartibga solish): - faoliyatni dam oldirish, ya'ni link, musiqaviy, yumoristik, jismoniy pauzalarni yaratish:

- o'z - o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatish va hakoza.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo'lishi lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qaxramonlarni xarakterlayotganda aktyorlik, O'quvchilarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Yuqorida qayd qilib o'tilgan kasbkorlik malakalari o'qituvchining o'quv va maxsus fanlar

bo'yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallashga intilish, o'z kasbiga qiziqish va burch, hamda ma'suliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi. Masalan, nutq texnikasini, his - tuyg'u, mimik, pantomimik malakalari bilan qo'shib olganda amalga oshirish bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo — ishora bilan, kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishtalik bilan aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatiga asoslansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik fiziologik fazilatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o'qituvchining yoshi, jinsi mijosi, fe'l - atvori, sihat — salom atligi va anatomik — fiziologik xususiyatiga bog'liqdir. Shunday qilib, o'qituvchi - tarbiyachi o'zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazm unini chuqur o'zlashtirsa pedagogik texnikani egallashning imkoni bo'ladi va u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

6. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, oqituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetini, pedagogika, psixologiya fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi. kasbiy jihatdan o'z -o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual kasbiy xususiyatga ega. Birinchidan har bir o'qituvchi, har bir tarbiyachi o'zining kasbiy yo'nalishiga ega. Bu y o'nalish o'qituvchini mustaqil fikr yuritish, mustaqil ijod qila olish orqali qo'lga kiritiladi va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi.

Ikkinchidan pedagogik texnikani tashkiliy - metodik malakalarni egallashga bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l - yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab ko'nikma hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish o'z - o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi, va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal

qilish uchun tajriba maydoni bo'lib qoladi. Demak, tashkiliy metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash imkonini beradi.

U chunchidan pedagogik texnikani egallagan - har bir pedagog individual dasturini ishlab chiqmog'i lozim. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natija nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va h. k.

Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi. Chunki ushbu ko'nikma va malakalar rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishm aydiganini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lura mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining nutqi qashshoq, so'zlarini talaffuz qilish qobiliyatli past, estetik jihatdan omil, bo'lar bo'lmasga hissiyotiga erk beradigan bo'lsa tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga. Aql idrokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim ekan. Bu pedagogik texnikani egallashning to'rtinchi yo'lidir. Shunday qilib, pedagogik texnika, uning malakalari, egallash yo'llari to'g'risida bildirgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning roliga yetarli baho bermaslik, shuningdek pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir pedagogning individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv - tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z -o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual — kasbiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z -o'zini tarbiyalash, ya'ni mohir o'qituvchi kasbiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi ro'l o'ynaydi, deb aytish mumkin. Tashkiliy - metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, gruppaviy yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol uynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq

ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, xulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlash va sinab ko'rish, o'zining odamlar bilan birga qiladigan ishi xususiyatlarini anglash va kasbiy faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Psixologlarning pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatish rahbarlarining tajriba ishida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10-14 kishidan iborat bo'lishi belgilab berilgan. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm - farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi. Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z - o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga, psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Biroq, tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular, masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalar alarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish vuzasidan muayyan ish olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishm aydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgai ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik mahorat fani va uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati.

2. O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlariga ta'rif bering.

3. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz va uni egallash yo'llari.

4. Kommunikativ qobiliyatga ta'rif bering.

5. Sharq mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Nosr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiyning ijodiy me'rosida mudarrisni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar, ularning mahorati muloqoti va muomala madaniyati munosabatga kirishish mahorati, ularni egallashga qo'yiladigan talablar haqidagi fikrlingiz.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Ta'lim mazmuni deganda nimani tushunasiz?

- A. Davlat ta'lim standarti
- B. O'quv rejasi va dasturlar, darsliklar
- C. O'quv qo'llanma va tavsiyanomalar
- D. Yuqoridagilarning barchasi

2. Ta'lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?

- A. Ta'limning maqsad, vazifalari, natijasi, nazorat va baholash uslublari
- B. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi
- C. Ta'lim metodlari, shakllari, vositalari va mazmuni
- D. Yuqoridagilarning barchasi

3.

Pedagogika

fanining tarkibiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?

- A. Maktabgacha yoshdagi pedagogika va maktab pedagogikasi
- B. Katta yoshdagilar pedagogikasi, kasbiy va ijtimoiy pedagogika
- C. Defektologiya
(surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika),
innovation pedagogika
- D. Yuqoridagilarning barchasi

4. O'zbekistonda uzliksiz ta'lim tizimi deganda nimani tushunasiz?

- A. Maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta ta'lim, o'rtamaxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim
- B. Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya
- C. Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus,

kasb-hunar

ta'limi, oliy ta'lim, o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya

D. Maktabgacha ta'lim-tarbiya, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi, oliy ta'lim,

oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va

qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kadrlarning malaka oshirish va ularni

qayta tayyorlash, oiladagi ta'lim, mustaqil ta'lim

5. Optimallashtirish deganda nimani tushunasiz?

A. Ta'limda fanlararo o'qitish nazariyasi

B. Ta'lim berib, o'qitish nazariyasi

C. Muammoli o'qitish

D. Ko'p sonli imkoniyatlardan eng qulayini tanlab olish

6. Ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?

A. Tushuntirish (muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda tadqiqot)

B. Og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat

C. Ta'limda qiziqishni rag'batlantirish

D. Yuqoridagilarning barchasi

7. «Didaktika» termini yunoncha

«didaktikos» degan so'zdan olingan bo'lib,

qanday ma'noda tarjima qilinadi?

A. O'qituvchi

B. Ta'lim berish va o'qitish

C. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi

D. Ta'lim oluvchi

8. «Buyuk didaktika» asarini kim yozgan?

A. Suqrot B. Arastu C. Ya.A.Komenskiy D. J.J.Russo

9. O'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitishning tamoyillari, ta'lim

mazmuni, ta'lim metodlari, o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari

pedagogikaning qaysi bo'limiga tegishli?

A. Tarbiya nazariyasi

B. Didaktika

C. O'qitish vazifalari

D. Hamina javob to'g'ri

10. Pedagogikani asosiy prinsipi.

A. O'quvtarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy, badiiy, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog'liq bo'lgan qonuniy aloqalardir.

B. O'qituvchi tomonidan amaliy qonunlarni ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish.

C. Jamiyatning alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirishdir.

D. Hammasi to'g'ri.

11. Pedagog, pedagogika atamalari qaysi so'zdan kelib chiqqan va qanday ma'noni bildiradi?

A. Pedagogika atamasi qadimgi lotin tilidagi "paydagogos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiradi.

B. Qadimgi turk tilidagi paydogogoc so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'qitaman", "o'rgataman" degan ma'noni anglatadi.

C. Ingliz tilidagi "payne" so'zidan olingan bo'lib, bolani rivojlantirish, yetaklash, tarbiyalash degan ma'nolarni bildiradi.

D. Qadimgi yunon tilidagi paydogogos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiradi.

12. Pedagogika qanday fan?

A. Pedagogika tarbiyaning nazariy asoslarini tadqiq etuvchi ijtimoiy-gumanitar fan

B. Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, prinsiplari, shakl va metodlari haqidagi gumanitar fan.

C. Pedagogika ta'lim jarayonining mazmuni, qonuniyatlari, metodlarini o'rganuvchi, ijtimoiy, umumkasbiy fan.

D. Pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, qonuniyatlari, metodlarini o'rganuvchi ijtimoiy, umumkasbiy fan.

13. Pedagogik muhit nima?

A. Bir butun o'quv-jarayonni tashkil etishning asosiy shaklidir.

B. Pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar sistemasidir.

C. Inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning sistemasidir.

D. Shaxslararo munosabatning doirasi kabi omillarning bir-birini boyituvchi va muvofiq kelishdir.

14. Pedagogik jarayon.

A. Maxsus tashkil etilgan sistema, bolalar muhitida muloqot olib borishdir.

B. Inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat.

C. Ma'lum bir

maqsadga

yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va

mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining

yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z o'zini taraqqiy ettirishdir.

D. Hammasi to'g'ri...

15. Pedagogik jarayonning qonuniyatlari nima?

A. Hozirgi ta'limning ilmiylik qonuniyatlari, o'quvchilar imkoniyatlarini va

yoki xususiyatlarini hisobga olish, ko'rgazmalilik, ta'limda muntazamlilik, davomiylik, o'quvchilarning faolligi, ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri va boshqa.

B. Ta'lim-tarbiya jarayonining bir-biriga chambarchas bog'liqligi.

C. O'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati.

D. Hamma javob to'g'ri.

16. Pedagogika

faniga berilgan quyidagi ta'riflardan qaysi birini to'g'ri deb hisoblaysiz?

A. Pedagogika uzluksiz

ta'limni amalga oshirish, yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan

B. Pedagogika inson tarbiyasi haqidagi fan

C. Pedagogika ta'lim-tarbiya va qonuniyatlari haqidagi fan

ma'lumot,

D. Pedagogika uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslarini va prinsiplarini, ta'lim-tarbiya jarayonida inson shaxsini rivojlantirish, shakllantirishning mohiyati, qonuniyatlari haqidagi fan,

17. Pedagogik jarayonning bosqichlarini ayting

- A. Go'dak dunyoga kelgan kundan boshlab to umrining oxrigacha bo'lgan davrdan tarbiyalanishi va ta'lim olishini aytishimiz mumkin.
- B. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarning yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshdagi ya katta yoshdagilar.
- C. Pedagogik jarayon bosqichlari deyarli hamma bosqichlari.o'zining turli riyojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

18. Pedagogik muloqot nima?

- A. O'quv-tarbiya jarayoni davomida o'qituvchining o'quvchilar bilan kasbiy muloqoti hisoblanadi.
- B. O'zaro munosabatlar, ta'sirlar ularning aloqalarini amalga oshirishdir.
- C. Jamoa guruhlarning hamkorligi, ularning shaxsga ta'siri.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

19. Tarbiyaning asosiy vazifasi nima?

- A. Tarbiya yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy ko'nikma va malakalarini, extiyoji va intilishlarini tarkib toptirishdan iborat
- B. Odamlaming dunyo bilan munosabatlarning bir butun sistemasini ta'minlovchi, vosita
- C. Zarurat, ehtiyojlilik-qandaydir bir vosita, o'zga narsaga javob berish, insonning ruhiy holatini to'g'rilovchi omil.
- D. Odamning jamiyat a'zosi sifatida o'z-o'zini anglash va tafakkurini, faoljyatining ob'yektivligini biluvchanlik tushunchasidir

20. Umuminsoniy tarbiya va qadriyatlarga nimalar kiradi?

- A. Butun insoniyatning ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalari
- B. Barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan ilg'or tarbiyaviy g'oyalar, an'alar
- C. Tarbiyada barcha insonlarning qadr - qimmatini hurmat qilish
- D. Barsha millatlarga xos axloqiy normalar

21. Shaxs kamolotiga qanday omillar ta'sir etadi?

- A. bola shaxsining ribojlanishiga muhit ba tarbiya kabi omillar.
- B. shaxsning kamol topishida ijtimoiy ba biologik omillar ta'sir etadi.

C. odamlarning munosabati.

D. biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi.

22. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarning ortib borishi nima bilan bog'liq?

A. O'z

kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevish, maktabda ta'lim-tarbiya ishini yuqori saviyada olib borishi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

B. Nutqi ravon, ifoda usuliga bog'liq.

C. Bolalarni sevishiga bog'liq.

D. Hamma javoblar to'g'ri

23. Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

A. Tarbiya yagona jarayon.

B. 6 yoshdan bolani muallimga topshirish.

C. Bolaga jamoada ta'lim berish afzalligi.

24. Alisher

Navoiyning qaysi asarida

pedagogik qarashlar haqida ko'proq yoritilgan.

A. "Farhod a Shirin".

B. "Mahbub-ul-qulub".

C. "Sabbai Sayyor".

D. "Hayratul-Abror".

25. Kadrlar

tayyorlash milliy dasturini amalga

oshirishda pedagogika fanlarining ahamiyati

A. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

va "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda

pedagogik faoliyat bilan bir

qatorda

yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish-talab etiladi.

B. Bolalarni qadr-qimmatini hurmatlash.

C. Davlat tili va ona

tiliga, oilaga, milliy, tarixiy qadryatlarga

nisbatdan hurmat

bilan munosabatda

bo'lish tuyg'usini tarbiyalash ma'suliyatli vazifa ekanligi

ta'kidlanadi.

D. Hamma javoblar to'g'ri.

26. Shaxs kamolotining omillari.

A. Ijtimoiy omil.

B. Biologik omil.

C. Ta'lim va tarbiya.

D. Hamma javoblar to'g'ri

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi / Xalq so'zi gazetasi, 2017yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017.

4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son, 70-modda.

5. Mavl onova R., Xoliqberdiev K., To'rayeva O. Pedagogika. –T., 2008. 5-11; 27-48 betlar.

6. Mavl onova R.A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H.. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: Fan va texnologiyalar, 2010

7. Iskan darov, Haydarov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.

8. B.S.Abdullaeva, M.B.Urazova, N.X.Voxidova. Obshaya pedagogika – T.: “Sano-standart”, 2017.

9. Mux siyeva A.Sh. Oila pedagogikasi. – T.: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2018.

10. Ishmuxammedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar – T.: Fan va texnologiya, 2010.

11. Hoshimov K., Nishonova S. va boshqalar. Pedagogika tarixi – T.: O'qituvchi, 1996.

12. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995.

13. Abdurauf Fitrat. Oila yoki uni boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat, 2000.

14. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1993.

15. Karimova O. Oilaning huquqiy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2003.

16. Sodiqova T. O‘g‘lim senga aytaman, qizlarga atalgan so‘zlar. – T.: Sharq, 2005.

Axborot manbalari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.Uz
5. [tdpu-INTRANET.Ped](#)

MUNDARIJA:

Kirish.....3

I BO‘LIM. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

1 - mavzu: Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy tadqiqot ob‘ekti, metodlari.

Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy tadqiqot ob‘ekti, metodlari..... 5

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari..... 7

Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi..... 8

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari..... 9

2 - mavzu: Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha..... 59

Shaxs tarbiyasiga ta‘sir etuvchi omillar.....62

Shaxs rivojlanishida faoliyatnig o‘rni.....64

Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.....65

3 - mavzu: Didaktikaning maqsad va vazifalari.

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari.

Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi.....70

Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.....72

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi..... 73

Zamonaviy pedagogikada ta‘lim paradigma (modeli)lari.....76

II. BO‘LIM. TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETISH

4 - mavzu: Ta‘lim mazmuni. Ta‘limning maqsad va vazifalari.

Ta‘lim mazmuni. Ta‘limning maqsad va vazifalari.....82

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.....86

5 - mavzu: Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar.

Ta‘lim vositalari va ularning vazifalari.....99

Darslarda multimedialli axborotlardan foydalanish samaradorligini aniqlash.....	105
Boshlang'ich sinflarda ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	107

6 - mavzu: Ta'limni tashkil etish shakllari.

Ta'limni tashkil etishning shakllari.	113
Dars - ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.....	116

7 - mavzu: Ta'limni tashxislash.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi.....	123
Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari.....	125
Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.....	127
Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.....	130
Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari.....	132

III. BO'LIM. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA

8 - mavzu: Tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati.

Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.....	138
Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.....	144

9 - mavzu: Jamoaning shaxs rivojlanishidagi o'rni.

Jamoa haqida tushuncha.....	161
O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlar.....	164

10 - mavzu: Oilada tarbiya asoslari.

Tarbiya turlarining umumiy tavsifi.....	169
Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.....	173
Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari.....	174
O'quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati.....	182
Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, va-zifalari va metodlari.....	183
Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.....	193

11 - mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Muammoli pedagogik vaziyalar.....	209
Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.....	215

IV.BO'LIM. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

12-mavzu: O'zbekistonda ta'lim tizimini boshqarish.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.....	222
Maktabda rahbarlar faoliyati.....	228

V.BO'LIM. PEDAGOGIK MAHORAT

13 - mavzu. Tarbiya jarayonining mohiyati

Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari.....	239
Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati.....	243
Pedagogik qobliyat, qobiliyatning pedagogik -psixologik tasnifi.....	247
Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari	251
Pedagogik texnika.....	253
Pedagogik texnikani egallash yo'llari.....	256

BOSHLANG‘ICH VA UZLUKSIZ TA‘LIM PEDAGOGIKASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2024

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	D.Toshpulatova

**E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 14.05.2018.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturasida. Ofset bosma usulida
bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 24,5. Nashriyot bosma tabog‘i 24,75.
Tiraji 500. Buyurtma №341.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**